


Milliy musiqa cholg'ulari

MURODULLO ABDUKARIMOV

CHOLG'USHUNOSLIK



NASAF - 2006



Murodullo Abdukarimov

CHOLG'USHUNOSLIK

**Oliy musiqiy ta'lim hamda san'at va
madaniyat kollejlari uchun
darslik.**

**O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari
vazirligi respublika metodika va axborot markazi
nashrga tavsiya etgan.**

Qarshi - 2006

Kitobni tayyorlashda uzoq yillar davomidagi ilmiy musiqiy safarlar jarayonida keyingi yillarda O'zbekiston va Tojikiston hududida ijrochilikda qo'llanilayotgan musiqa cholg'ulari, cholg'ushunoslik borasida faoliyat ko'rsatayotgan musiqa cholg'ularini tayyorlovchi xalq ustolari, mutrib –

sozandalar, hofiz – xonandalar, bastakorlar, musiqashunoslar va boshqalar bilan musiqiy suhbat davomida to'plangan ma'lumotlardan foydalanildi.

Kitob musiqashunos olim, Qarshi Davlat universitetining dotsenti, “Qo'shiqchilik” kafedrasining mudiri, San'atshunoslik fanlari nomzodi Murodullo Abdukarimov tomonidan tayyorlandi.

Musiqiy muharrir: **Fayzulloh Karomatli. O'zbekiston Respublikasi San'atshunoslik institutining etuk musiqashunos olimi, San'atshunoslik fanlari doktori, professor.**

Taqrizchilar: **Rifatullo Qosimov. O'zbekiston Davlat konservatoriyasi Sharq musiqasi fakulteti “An'anaviy ijrochilik” kafedrasining mudiri, professor.**

Botir Matyoqubov. H.H. Niyoziy nomidagi Toshkent Davlat kolleji direktori, San'atshunoslik fanlari nomzodi.

MUNDARIJA.

| | |
|---|---|
| 1. Kirish..... | 4 |
| 2. Musiqa ilmida cholg'ular..... | 6 |
| 3. Sharq musiqacha cholg'ulari..... | 8 |
| 4. O'rta Osiyo musiqacha cholg'ulari..... | 9 |

| | |
|--|-----|
| 5. Milliy cholg' u ustolari..... | 17 |
| 6. Ud musiqa cholg' usi..... | 30 |
| 7. Tanbur musiqa cholg' usi va Sharq xalqlarida mavjud tanbur oilasiga mansub musiqa cholg' ulari..... | 34 |
| 8. Sato musiqa cholg' usi..... | 46 |
| 9. Setor musiqa cholg' usi..... | 50 |
| 10. Dutor musiqa cholg' usi..... | 62 |
| 11. Chang musiqa cholg' usi..... | 66 |
| 12. Qonun musiqa cholgusi..... | 74 |
| 13. Nay musiqa cholg' usi..... | 77 |
| 14. Qo'shnay musiqa cholgusi..... | 80 |
| 15. Surnay musiqa cholg' usi | 84 |
| 16. Karnay musiqa cholg' usi..... | 86 |
| 17. Gijjak musiqa cholg' usi..... | 87 |
| 18. Qashqar rubobi..... | 95 |
| 19. Afg'on rubobi..... | 100 |
| 20. Tor musiqa cholg' usi..... | 102 |
| 21. Soz musiqa cholg' usi..... | 105 |
| 22. Doyra cholgusi..... | 107 |
| 23. Milliy musiqa cholgularining ijrochiligi xaqida..... | 113 |
| 24. Xulosa..... | 146 |
| 25. Foydalanilgan adabiyotla ro'yxati..... | 148 |
| 26. Hova sifatida..... | 150 |
| • Yetuk ustozlar haqida ma'lumot..... | 151 |
| • Musiqiy atamalar..... | 158 |
| • Qashqadaryoning madaniyati, san'ati va musiqiy hayoti..... | 165 |
| • Ustozlar bilan suhbat..... | 180 |

KIRISH.

Musiqa ilmining amaliy va nazariy taraqqiyotida, xususan cholg' u ijrochiligida milliy musiqa cholg' ularining ham o' ziga xos o' rni bo' lib, cholg' u ijrochiligi musiqa asarlarini paydo bo' lishida, musiqa madaniyatining rivojlanishida, asrlar osha takomillashib, bizning davrimizgacha yetib kelishida asosiy omil hisoblanadi.

Musiqa cholg' ulari, cholg' u ijrochiligi har bir davrda musiqa ilmining amaliy va nazariy taraqqiyotiga asosiy manba hisoblanib, xalq cholg' ulari har bir millatning milliy musiqa ijrochiligiga mos ixtiro qilinadi. Musiqa cholg' ulari ijrosida esa har bir millatning musiqa ijrochiligiga xos milliy musiqiy sadolanish qoidalari, milliy musiqiy ijro tuzilmalari, ijrochilik maktablari, musiqiy holat, musiqiy asarlar, ijro bezaklari, mahorat va boshqa musiqa ijrochiligiga mansub masalalar namoyon bo' lib turadi. Chunki milliy musiqa cholg' ularida asosan ko' proq har bir xalqning milliy musiqa merosiga oid musiqiy asarlari ijro etiladi va shu bois xalq cholg' ulari deb ataladi. Har bir millatning musiqa merosi, milliy musiqa cholg' ularining ijrolaridagi sadolanish bilan bir-biridan farq qiladi va ijro musiqiy asarlarni qaysi millatga mansubligidan darak beradi. Masalan: Arab, Fors, Turk, Hind, O'zbek, Tojik, Qozoq, Qirg'iz, Turkman musiqasi va hokazo. Hosil qilingan musiqa sadolaridan biri "nag'ma" deb atalib, "nag'ma" ikki xil nomlangan. "Qavliiy" bu tabiiy inson tovushidagi sadolar va "fe'liy" esa sun'iy deb sanalib, ya'ni musiqa cholg' ularidan chiqadigan musiqiy sadolar tushuniladi. (Is'hoq Rajabov. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent- 1963. 12.s.).

Musiqa cholg' ularining ko' plari qadimiy musiqa cholg' ulari hisoblansa, ba' zilar esa keyingi yillarda ixtiro qilingan musiqa cholg' ularidir. Albatta dastlabki yaratilgan musiqa cholg' ulari oddiy, sodda ya'ni dastlabki musiqiy sadolar hosil qilinishining boshlanishi bo' lgan. Musiqa cholg' ularining yaratilish tarixi necha ming yilliklarga borib taqaladi. Bizning eramizda insho qilingan ba' zi bir musiqiy risolalardagi ma' lumotlardan birida go' yo dastlabki musiqa cholg' usi Fishog' urs (Pifagor) hakim tomonidan ixtiro qilingan deyiladi. (I. Rajabov. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent 1963. 17.s.)

Hozirgi kunda dunyodagi Sharq va Ovrupo xalqlarida 300 dan ortiq musiqa cholg' ulari milliy musiqa ijrochiligida qo' llanilmoqda. Shu bois biz "Sharq xalqlari" milliy musiqa cholg' ulari, O' rta Osiyo jumladan O'zbekiston hududida mavjud milliy musiqa cholg' ularining

tarixi, zamonaviy musiqa cholg'ulari va ularning hozirgi zamon musiqa madaniyati rivojidadagi o'rnini haqida fikr yuritmoqchimiz.

Sharq xalqlari deganda biz arab, fors, turk tillarida so'zlashuvchi, azaldan tarixi, urf-odati, madaniyati va san'ati, adabiyoti, musiqa ijrochiligi bir-biriga yaqin xalqlarni tushinamiz. Shu bois tarixda "Sharq falsafasi", "Sharq adabiyoti", "Sharq madaniyati va san'ati", "Sharq musiqasi", "Sharq musiqa cholg'ulari" va juda ko'p umumiy atamalarni guvohi bo'lamiz. Sharq xalqlari deganda Marg'ibdan Mashriqqacha, ya'ni kun chiqardan kun botargacha bo'lgan masofa oralig'ida istiqomat qilayotgan xalqlar tushuniladi."Sharq musiqasi" to'g'risida Abdurauf Fitrat shunday fikr bildiradi: "Bizda Sharq musiqasiga qarshi G'arb musiqasi degan so'z yuradur. Bu kun bu so'zdan anglashilgan ma'no turk, arab, fors millatlarining musiqasidir". (Fitrat. O'zbek kilassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent. 1993. 6.s.) Qadimul ayyomdan va hozirgi kungacha "Sharq xalqlari" musiqa ijrochiligida qo'llanilayotgan milliy musiqa cholg'ularining yaratilish tarixi, nomlanishi, ko'rinishi va tuzilishi, shakli, ijro holatlari umuman musiqa ijrochiligiga tegishli juda ko'p yaqin o'xshashliklar mavjud bo'lib, ud, nay, chang, qonun, g'ijjak, dutor, setor, doyra, karnay, surnay, nog'ora va boshqa ko'pgina musiqa cholg'ulari "Sharq xalqlari" musiqa ijrochiligida keng miqyosda qo'llanilmoqda. Musiqa cholg'ularining nomlanishi, ularda mavjud tuzilmalarning nomlanishi ham arab, fors, turk tillaridadir.

Cholg'u ijrochiligi yildan-yilga boyib, takomillashib, rivojlanib bormoqda. Keyingi yillarda cholg'u ijrochiligiga alohida e'tibor berilib, Boshlang'ich, O'rta va Oliy musiqa dargohlarida "Cholg'u ijrochiligi" bo'limlari faoliyat ko'rsatib, barcha milliy musiqa cholg'ularining ijrolari o'rganilmoqda. Musiqa cholg'ulari uzoq yillardan buyon turlicha nomlanib kelinmoqda. O'zbekistonda "Xalq cholg'u asboblari", arab tilida "Oloti musiqiy", fors tilida "Sozhoyi milliyi musiqiy", "Oloti musiqiy", "Asbobhoi xalqiy", rus tilida "Музыкальные инструменты". lotin tilida "Miyuzikal instruments" va hokazo. Xalq cholg'ulari to'g'risida ko'pgina musiqiy risolalar, ilmiy risola va maqolalar, darslik va o'quv qo'llanmalari insho etildi. O'zbekistonda hozirgi kunda "Xalq cholg'u asboblari" o'rniga "Xalq cholg'ulari" bilan bir qatorda, "Milliy musiqa cholg'ulari" atamalari qo'llanilmoqda. Maskur qo'llanma "milliy musiqa cholg'ulari" ("Cholg'ushunoslik") deb atalishini lozim topdik.

Keyingi 20 yil ichida musiqa cholg'ularining milliy uslubdagi ijrochilik bo'limlari tashkil etilib, yetuk ijrochilar yetishib chiqdi. Ular orasida Xalq hofizlari, Xalq va Xizmat ko'rsatgan artistlar, Umumjahon, O'rta Osiyo, O'zbekiston hududida o'tkazilgan cholg'u ijrochiligi tanlovlarining g'oliblari, yetuk sozandalar yetishib chiqib, ular cholg'u ijrochiligida o'ziga xos ijrochilik maktablarini yaratgan ustoz sozandalarning an'analari davom ettirilib, muayyan cholg'u ijrochiligi yo'nalishlarini yaratmoqdalar. Shuning uchun bu kitobda keyingi yillardagi cholg'u ijrochiligiga xos musiqiy ma'lumotlarga keng urg'u berildi.

MUSIQA ILMIDA CHOLG'ULAR.

Musiqa ilmining tarixi juda qadim-qadimlargacha borib taqaladi. Lekin bizning eramizdan avvalgi musiqiy ma'lumotlar bizgacha yetib kelmagan. Faqat keyingi yillarda olimlarning qidiruvlari natijasida yer ostidan va joylardan topilgan uy ro'zg'or buyumlaridagi musiqa cholg'ularining va ijrochilarning tasvirlari aks ettirilgan suratlar va boshqa ma'lumotlarga tayanib, musiqa ilmining juda qadim tarixga ega ekanligini guvohi bo'lamiz. Masalan: "Avesto" asari 3000 yillik tarixga ega bo'lgan nodir asar hisoblanadi. Albatta o'sha davrlarda ham madaniyat, san'at xususan musiqa ijrochiligi ham bo'lgan. Tarixchi Mas'udiy-ning "Muruj az-zahab" (Oltin vodi) kitobida qayd etilishicha Aleksandir Makidonskiy Istahar shahrini bosib olib, olimlarga "Avesto" dagi tibbiyot, falsafa va ilmi nujunga doir o'rinlarni tarjima qildirib, qolgan qismini yoqib yuborishni buyurgan. Mas'udiyning ma'lumotiga ko'ra "Avesto" matni 12 ming oltin taxtaga yozilgan. (Tilab Mahmudov. Avesto haqida. Toshkent. 2000.6.s.).

Musiqa ilmi qachon paydo bo'lgan? degan savolga jo'ngina qilib, odamzod yaratilgan lahzada deb javob berish mumkin. Rivoyatlarda aytilishicha Alloh Taolo Hazrati Odamni yaratib, uning vujudiga jonni kiritish jarayonida musiqa sadolari arzu samoni to'ldirib turgan ekan. Musiqa haqida gap ketganda "Jonbaxsh" sifatining qo'llanilishi ham shundan bo'lsa ajab emas". (Nafas Shodmonov. Temuriylar davrida musiqashunoslik. Toshkent. 1995. 3. s.).

Lekin musiqa ilmining qachon paydo bo'lganligi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Musiqa ilmi go'yo bir ilohiy kuch bo'lib, uning

paydo bolishi haqida turli xil rivoyatlar mavjud. “Zuhro yulduzi xonanda-sozandalarning xomiysi hisoblangan. Cho’lpon yulduzi yoki Venera sayyorasi”. (Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug’ati. IV. Toshkent 1985. 316.s.).

Bizning eramizda yashab ijod etgan ko’pgina allomalar fanning turli sohalarida ijod etish bilan birga musiqa ilmiga ham alohida e’tibor berganlar. Masalan: Arestotel, Forobiy, Ibn Sino, Urmaviy, Marog’iy, Xorazmshoh, Jomiy, Navoiy, Kavkabiy, Husayniy, Darvesh Ali Changiy, Komil Xorazmiy va boshqalar. IX asrlardan boshlab “Musiqa” ilmiga va uning ijrochiligiga oid musiqiy asarlar paydo bo’la boshladi. Forobiyning “Kitobu-l-musiqiy al-kabir” (Musiqaqa oid katta kitob), X-XI asrlarda Abu Ali Ibn Sinoning “Kitobu-sh-shifo”, “Donishnoma” kitoblaridagi maxsus boblar, Abdulqodir Marog’iyning “Maqosid-ul-alhon” (“Kuylar maqsadlari”), Urmaviyning “Risolatush-sharafiya”, Qutbuddin Sheroziyning “Durratut-toj” musiqiy risolalari, Abdurahmon Jomiyning “Risolayi musiqiy” (“Musiqa ilmi risolasi”), Kavkabiyning “Risolayi musiqiy” asari ya’ni “Risola dar bayoni duvozdah maqom” (“O’n ikki maqom bayoniga bag’ishlangan risola”), Husayniyning “Qonuni-ilmi va amaliyi musiqiy” (“Musiqa ilmining amaliy va nazariy qonunlari”), Darvesh Ali Changiyning “Tuhfatu-s-surur” (“Shodlik tuhfası”) asarlari shular jumlasidandir. Komil Xorazmiyning “Tanbur nota chizig’i”da esa maqomlar nota yozuvi berilgan. Yozilgan ilmiy asarlarda har bir mutafakkir olim o’zi yashab ijod etgan davridagi musiqiy hayotga doir musiqa ilmini amaliy va nazariy sohalariga tegishli musiqa cholg’ulari va ularning ixtirochilari, sozanda, xonanda, bastakor, musiqashunoslar to’g’risidagi ma’lumotlar o’z ifodasini topgan.

Qadimiy shahar va o’lkalarning nomlari ko’pgina yozilgan asarlarda zikir etilgan. Masalan: O’rta Osiyo hududidagi Movarounnahr, Turon, Turkiston, Toshkent (Shosh), Samarqand (Marokand yoki Samarkend), Termiz, Buxoro, Farg’ona, Xorazm, Qarshi (Nasaf, Naxshab), Shahrisabz (Kesh), Ajam, Hisor, Marv va hokqazo shaharlararo “Buyuk Ipak yo’li” vositasida iqtisodiy va madaniy aloqalar olib borilgan. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug’ati. IV Toshkent. 1985 yil. Bu asarda ba’zi bir shaharlar va o’lkalar to’g’risida quyidagicha ma’lumotlar berilgan: **Movarounnahr** - o’rta asrlarda Amudaryoning o’ng tomonidagi yerlar to Sirdaryogacha, Farg’onadan Xorazmgacha bo’lgan joylar shunday nomlangan. **Marv** - Xirosonning obod va mashhur shahari hozirgi Mari shahri. **Xuroson**-sharqdan Movarounnahr, g’arbdan Ko’histon bilan tutashgan, Hirot,

Marv, Balx, Nishopur kabi katta shaharlai mavjud. **Xorazm** - Movarounnahrdagi mashhur voha. **Shahrisabz** - Movarounnahrdagi go'zal va qadimiy shahar: Dedilar: Kishvari durur dilkash. Oti ham Shahrisabz erur ham Kash. **Sheroz** - Erondagi shahar nomi. Xuroson demakim, Sherozu Tabruz, ki qilmishdur nayi kilkim shakarrez. **Naxshab** – Movarounnahrdagi shahar nomi. “Nasaf” nomi bilan yuritilgan. Hozirgi Qarshi shahri. Mahi Naxshab-Qarshi go'zali. Bo'lur shom ul mahi Naxshab ravona. Kamandi zulfin ochib shab ravona. **Samarqand**- Movarounnahrdagi ma'muriy va madaniy markaz bo'lgan qadimiy shahar. Qadimiy Sug'd davlatining poytaxti Marokand. **Toshkand**- Toshkent qadimiy Shosh shahrini keyinchalik shunday atashgan. **Buxoro**- Movarounnahrdagi adabiyot, madaniyat va san'at rivojlangan qadimiy shahar. **Ajam**- qadimda Eronni shunday atashgan. Arablar Arabistondan tashqaridagi yerlarni ham Ajam deb atashgan. **Astarobod**–(Astirabod) Kasbiyning janubiy-sharqida joylashgan Eron shaharlaridan biri, qadimda “Jurjon” nomi bilan mashhur bo'lgan. Ko'ngil mulkin istar obod, vah buzar xayli firoq. To Navoiy azmi mulki Astirobod ayladi.

Yuqoridagi nomlari zikr etilgan shaharlarda ilmu-fanning barcha sohalarida ijod qilgan yetuk allomalar: she'riyat, adabiyot, san'at, musiqa dunyosining ijodkorlari yashab faoliyat ko'rsatishgan. Musiqa sohasidagi mutaxassislar ham xon saroyida yashab ijod etishgan. Masalan: VI asrda O'rta Osiyolik hofiz-sozanda, bastakor, musiqashunos Borbad Marvaziy Eron shohi Xusrav Parviz saroyida yashab ijod etgan. Sharqda u Borbad musiqa cholg'usining ixtirochisi. Sharq musiqa madaniyati rivojining asoschisi sifatida tan olinadi. U yaratgan Barbad musiqa cholg'usi va u bastalagan “Xusravoniy” nomli musiqiy asarlari X-XII asrlarda Xuroson va Turon musiqa ijrochiligida keng qo'llanilgan.

SHARQ MUSIQA CHOLG'ULARI.

Sharq musiqa cholg'ulari umuman ko'pgina dunyo musiqa cholg'ularining asosini tashkil etib, dastlab milliy musiqa cholg'ularini deyarli juda ko'p nusxalari Sharq olimlari, allomalari tomonidan ixtiro etilib kelingan. Keyin boshqa davlatlarga tarqalib, ular ko'rinish va tuzilishi jihatidan bir xil, faqat joylashgan muhiti, nomlanishi, shakli, tuzilishlari, ijro etiladigan asarlari bilan bir-biridan farq qiladi. Masalan: barcha Sharq xalqlarida, nay, doyra, surnay, ud, tanbur, dutor, chang va

boshqa musiqa cholg'ulari uchraydi. Ya'ni – doyra, nag'ora, chirmanda, dumbelek yoki daf, nay (fleyta) cholg'usi, misnay, yog'och nay, g'arav nay hamda qo'shnay, zurna, surnay, karnay. Ud cholg'usi – lyutniya, tanbur cholg'usi- tanbur, tenbur, tambur va hokazo nomlar bilan nomlanib, Sarq xalqlari musiqa ijrochiligida qo'llaniladi.

Hindiston, Pokiston, Afg'onistonda bir-biriga o'xshash: vina, sorod, setor, tambur, tanbur, tabl, zurna, kamoncha, santur, soz, qonun kabi musiqa cholg'ulari, Xitoy, Yaponiya, Mangoliyada bir-biriga o'xshash hamda Xitoyning Uyg'ur xalqlari yashaydigan Qoshqar mahalgozida, O'rta Osiyoning O'zbekiston, Tojikiston davlatlaridagi ud, tanbur, dutor, nay, surnay, qo'shnay, doyra, rubob, nag'ora, g'ijjak, dumbra, changqobiz, bulamon va boshqa nom bilan ataluvchi musiqa cholg'ulari uchraydi.

Hindiston va **Pokistonda** – sitor, surbahar, tambur, tungtungi, ektar, kemancha, sarangi, kanun. **Afg'onistonda**– tanbur, rabob, sarinda, dilrabo, kemanche. **Kambodjada**- akhong, shong, chapey, sralay, sadin, trokher. **Laosda** - taphon, khen, thake, romania, khong-vong, rangnat. **Indonesiuada** – sralay, gambuz, ninut. **Afrikada** – klangu, valiha, totambito, bagana. **Arabistonda** – darbako, zamr, zurna, ud, kanun, rubob, santur, naqqariya, bendur, durbek. **Turkiyada** - surna, nafir, lira, kemanche, horon, rabob, ud, tanbur, kanun, djud-juk, tuluma, def yoki dumbelek. **Eron** va **Kavkaz** xalqlarida -tor, soz, ud, qonun, santur, chang, tanbur, zurna, tabl, def va boshqa musiqa cholg'ulari ijrochilikda keng qo'llanilmoqda.

O'RTA OSIYO MUSIQA CHOLG'ULARI.

X-XII asrlarda O'rta Osiyoda musiqa san'ati jumladan cholg'u ijrochiligi ancha rivojlanib, o'sha davrlarda juda ko'p musiqa cholg'ulari musiqa ijrochiligida keng qo'llanilgan. Bu borada musiqashunos Darvesh Ali Changiy o'zining musiqiy risolasida – chang, ud, nay, doyra musiqa cholg'ulari ayniqsa 5 va 6 qo'sh torli “Ud” musiqa cholg'usi haqida ma'lumot berib, bu musiqa cholg'usining o'sha davrdagi mavqeini va musiqa ijrochiligidagi o'rnini yuqori baholab, “Ud” barcha musiqa cholg'ularining podshohidir va “Rud” musiqa cholg'usi ham kamon vositasida ijro etilganligi haqida ma'lumot beradi. (A.A. Семёнов. Средне- азиатский трактат по музыки. Дарвеш Али. Ташкент.1946.стр. 18).

Ma'lumki IX-X asrlarda yashagan buyuk shoir Abu Abdullo Rudakiy o'z zamonasida "Rud" va "Chang" musiqa cholg'ularining mohir ijrochisi bo'lgan. O'sha davrda yashagan Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asari yaratilib, bu asarda bir qancha mehnat qo'shiqlari, qahramonlik qo'shiqlari, umuman juda ko'p turli xil qo'shiqlar o'z aksini topgan. X asrning buyuk allomasi musiqashunos olim Abu Nasr Forobiy (873-950) musiqa ilmiga katta e'tibor berib, musiqa cholg'ularining ijrolari, musiqa nazariyasi, "Sharq nota tizimi"ni yaratish va ularni o'sha davrdagi musiqa ijrochiligiga qo'llanish masalalari, matematika fanini mukammal o'rganish bilan birga, matematika fanining bir turi hisoblangan musiqa ilmini o'rganish va uni targ'ib etishga o'zining buyuk hissasini qo'shgan. Uning "Kitobul-musiqiy al kabir ("Musiqa ilmiga oid katta kitob") asarida turlicha musiqa usullari (zarblari), musiqa cholg'ularidan ud, tanbur, nay, chang va turlicha musiqiy ovozlari haqida ma'lumot berilgan. (M.M. Xayrullayev. Forobiy. Toshkent. 1963. 176 s.) X asr ashula san'atiga doir ma'lumotlar Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" asarida ham o'z aksini topgan.

O'zbek adabiyotshunos olimi N. Mallayev qadimiy qo'lyozmalardagi ma'lumotlarga tayanib X-XII asrlarda O'rta Osiyoda musiqa cholg'ularidan – tanbur, rubob, kus(qo'sh) nag'ora, qubuz, tabl, zurna, nay, chag'ona, shaypur, surnay, karnay, arg'unun, qonun kabi hamda zarbli va puflama musiqa cholg'ulari musiqa ijrochiligida keng qo'llanilganligi haqida, shuning bilan birga shu davrda "Rost", "Xusravoniy", "Boda", "Ushshoq", "Zurafkand", "Bo'slik", "Sipaxon", "Navo", "Basta", "Taron" va juda ko'p musiqiy asarlar ijro etilganligi haqida ma'lumot bergan. (N.M. Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi. 94 s).

Tibbiyot dunyosining allomasi Abu Ali Ibn Sino (980-1037) ham musiqa ilmiga katta e'tibor bergan. Ba'zi musiqiy risolalarda zikr etilishucha Abu Ali Ibn Sino go'yo Sulton Mahmud G'aznaviy, Nosir Xusravlar bilan birgalikda "G'ijjak" musiqa cholg'usini ixtiro qilganligi haqida ma'lumot berilgan (Askarali Rajabov. "Nag'mai Niyogon". Dushanbe. Adib. 1998. 194 s.) X asrda yashagan Muhammad Ibn Muso al Xorazmiy ham musiqa ilmiga katta e'tibor bergan. Shunday qilib XII asrlarga kelib Forobiy va Ibn Sinolarning musiqa nazariyasi asosida Xorazmlik olim Ar-Roziy hamda Ash Sheroziy, Urmaviy, Amuliy va boshqa olimlar ham musiqa ilmi bilan shug'ullanganlar.

O'rta Osiyo xalqlari tarixda juda ko'p iste'lolchilarni, bosqinchilik harakatlarini o'z boshidan kechirgan. Masalan: Axmoniyalar, Sosoniylar, makidoniyalik Iskandar (334), Chin hoqonlari (IV asr), Arab xalifaligi (VII asr. 665), Mo'g'ul istelochilari (XII asr. 1219) va boshqalar. Bu davrlarda Xorazm, Surxandaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro, Farg'ona vodiysining ko'p joylari xarobaga aylangan. Hozirgi kunda O'zbekiston hududidagi Xorazm, Afrosiyob, Xolchayon, Termiz, Varaxsha, Bolaliktepa, Dalivarzintepa hududlarida olib borilayotgan arxeologik qazilmalar natijasida topilgan juda ko'p yodgorliklarda adabiyot, san'at va madaniyat sohasiga tegishli hamda juda ko'p musiqa cholg'ularining qoldiqlari, xonanda va sozandalar aks ettirilgan suratlarining nusxalari topilmoqda.

Faqat Amir Temur Zamonida Turkiston mo'g'ul bosqinchilaridan ozod qilindi. Movarounnahr qo'lga olinib, Samarqand uning poytaxti deb e'lon qilindi. Undan tashqari Oltin O'rdaga yurib Shimoliy Kavkazni, Astraxan, Qora dengiz bo'ylari 1399 yil, Eron, Shimoliy Hindiston, Turkiya 1402 yil, keyin Iroq, Suriya va boshqa juda ko'p mamlakatlarni egalladi. Shu davrda Movarounnahrda madaniyat, adabiyot, san'at rivojlandi. Ayniqsa Samarqandda ilmu-hunar sohiblari, olimlar, me'morlar, naqqoshlar, rassomlar, aktyorlar, musiqashunoslar, xonanda va sozandalar to'plandilar. Musiqa ilmining namoyondalari Abdulqodir Marog'iy sozanda va bastakorlardan Sayfiddin Qutbi Noyi, Said Yusuf qubuz, Darvesh Bek va boshqalar yashab ijod etdilar (M. Rahmonov. O'zbek teatri. Toshkent 1975 yil. 217 s.).

XII-XVI asrlarda asosan madaniyat va san'at sohasida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ulug'bek davrida ayniqsa Movarounnahr madaniyati ancha yuksaldi. Ulug'bek Samarqand va Hirotida mashhur buyuk allomalar, olimlar, yozuvchilar, san'atkorlar doyrasida xususan o'sha davrda Sharqda mashhur Muhammad Xorazmiy, Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin bin Mab'udiy, Ali Qushchi va boshqalar bilan birga ijod qildi. Abdurauf Fitrat Ulug'bek zamonasida Samarqandda yashab ijod etgan musiqa ilmining namoyondalari haqida ma'lumotlar beradi. Samarqandlik Darvesh Ahmad Qonuniy, Sulton Ahmad Noiy musiqa risolasining muallifi Qorako'llik Hisoriy, Xorazmlik Abu Vafo, musiqashunos Sohib Balxiy, Shahrizabzlik bastakor Abdul Baraka, Navoiyning muallimi mashhur sozanda Xo'ja Yusuf Burxon, Navoiyning tog'asi Muhammad G'aribiylar va hokazolar. Mashhur musiqashunos Hofiz Darvesh Ali Changiy o'zining "Tuhfat us-surur" ("Shodlik tuhfas") asarida Ulug'bek ham musiqa ilmiga katta

e'tibor bergan deydi. (A.Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Samarqand- Toshkent. 1927 yil 58 s.).

Ulug'bek vafotidan keyin (1449) shu davrda Xuroson, Sharqiy va Shimoliy Eron hududida Temuriylarning oxirgi yirik davlati hukumronlik qilib, uning poytaxti Hirot shahri hisoblanib, bu shaharda o'z davrida adabiyot, san'at, madaniyat, musiqa sohalarini rivojiga katta e'tibor bergan o'zbek xalqining buyuk shoiri Alisher Navoiy (1441-1501) yashab ijod etar edi. Bu davrda Navoiy bilan birgalikda Xorazmiy, Xo'jandiy, Abdurahmon Jomiy, Sayfiy Saroiy, Ahmadiy, Bobur, Muhammad Solih Majruiy kabi shoirlar, tasviriy san'atning ulug' namoyondasi Behzod, Mirak Naqqosh va xonandalardan- Hofiz Basir, Hofiz Mir, Hofiz Hasan Ali, Hofiz Jomiy, Hofiz Turbatiy, sozandalardan- Hasan Noyi, Qulmuhammad Udiy, Hasan Bolaboniy, Ali Xonaqoiy Muhammadiy, Ahmad G'ijjakiy, Ali Ko'chak Tanburiy va boshqalar Hirot shahrida yashab ijod etganlar. Ayniqsa Alisher Navoiy musiqa dunyosining namoyondalariga o'zi xomiylik qilgan. O'sha davrda ko'hgina uydan nag'ora, nay, g'ijjak, ud, tanbur va boshqa ko'pgina musiqa cholg'ularining sadolari eshitilib turar ekan. Vosifiy esa Husayin Bayqaro saroyida ham tez-tez bo'lib turadigan bazm, mushoiralarda, tantana va tomoshalarda turli musiqa ijrochilari qatnashganligi haqida ma'lumot beradi. (A.N. Bol'direv. Zayniddin Vosifiy. 1957.s.41.).

Umuman Alisher Navoiy Hirotida adabiyot, san'at va madaniyatni yuqori darajaga ko'tarilishiga o'z hissasini qo'shdi. Ayniqsa musiqa madaniyatining rivojida yangi kuylar, qo'shiqlar, musiqiy risolalar yozildi va bastakorlar, hofizlar yetishib chiqdi. Navoiyning iltimosiga binoan Abdurahmon Jomiy "Risolaiy musiqiy" asarini yozdi. Zaynylobiddin al Husayniy "Qonuni ilmi va amaliy musiqiy" ("Musiqqa ilmining amaliy va nazariy qonunlari.") nomli musiqa risolasini yozib, uni Navoiyga bag'shladi. Abdulqodir Marog'iyning "Maqosid ul alhon" risolasi yozildi. Navoiy o'zining "Majolisun-Nafois" asarida musiqa ilmi bilan ijod qilgan shoirlarni nomlarini tilga oladi. Abdulla Vafoiy Xorazmiy, Jomiyning jiyani movlono Muhammad hamda Xoja Abdullo musiqa sohasida ham ijod qilganligi, shu bilan birga Navoiy o'z zamonasining buyuk sozanda bastakori Xoja Yusuf Burxonni eslab, bu zot musiqa ilmi bo'yicha Navoiyning ustози ekanligi haqida ma'lumot beradi. (Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar. Jild III. 1948y. 13-112 betlar.).

XIY va XY asrlarda ilm fan, madaniyat va san'at sohasida faqat Samarqand va Hirotda emas balki bu davrda Farg'ona, Toshkent, Buxoro, Kesh, Xiva kabi Movarounnahrning boshqa joylarida ham san'atning barcha sohalari kabi musiqa san'ati ham taraqqiy etdi. O'sha davrda Farg'ona hukmdori Umarshayx (Boburning otasi) o'z poytaxtiga ko'pgina madaniyat va san'at namoyondalarini to'plashga harakat qiladi. "Boburnoma" asarida Bobur osha davrdagi Andijon madaniyatining ravnaqi haqida gapirib, ushbu diyordagi musiqa namoyondalaridan Xo'ja Yusufni, Vosifiy esa Toshkentlik bastakor, sozanda shoh Husayn haqida ma'lumot beradi. (Boburnoma. Toshkent. 1958. 12.s.). Shunday qilib O'rta Osiyo xalqlari, jumladan o'zbek xalqi XIY-XYI asrlarda ilm-fan, madaniyat, san'at, musiqa, naqqoshlik, xattotlik va boshqa sohada katta muvaffaqiyatlarga erishdi.

1849 yildan boshlab Shoyboniyxon davri boshlandi. U temuriylar davrida Buxoroda tahsil olgan bo'lib, bobosi Abdulxayrxon an'anasini davom ettirib, Turkiy davlatlarni birlashtirish maqsadida temuriylar davlatiga hujum qildi. Ko'p o'tmay Movarounnahr, Xorazm, Xurosonni qo'lga kiritdi. Buxoro, Samarqand, Urganch, Hirot shaharlardagi qattiq janglar bois Temuriylar davlati o'rniga Shoyboniylarning o'zbek davlati tuzildi. Shu davrda madaniyat va san'at sohasida ancha tushkunlik ro'y berib, ko'pgina ilm-fan sohiblari o'z vatanlarini tashlab xorijiy mamlakatlarga ketishga majbur bo'ldi. Jumladan Bobur Mirzo Hindistonga borib "Buyuk Mo'gul Davlati" nomi bilan qurgan davlati natijasida Movarounnahr va Xiroson madaniyati ham ularda rivojlanib, bir qancha san'atkor, xonanda va sozandalar ham Hindistonga ketib qolganligi haqida Darvesh Ali ma'lumot beradi.

XY asr musiqa ilmi namoyondalaridan biri Najmiddin Kavkabiy bo'lib, Darvesh Ali Changiyning hikoya qilishicha Kavkabiy Hirotida tahsil ko'rgan bo'lib, uni Ubaydulloxon tomonidan Hirotidan Buxoroga olib kelinganligi va Kavkabiy bu yerda o'zining musiqa maktabini yaratib, Xo'ja Muhammad, Rizo Samarqandiy, Xo'ja Hasan Nisoriy, Hasan Kavkabiy, Boqi Jarroh kabi musiqashunoslarni tayyorlab, o'zining musiqa sohasidagi buyuk musiqa risolasi "Risolaiy musiqiy" ya'niy "Risola dar bayoni duvozdah maqom" asarini yaratdi.

XYI asrga kelib, madaniyat, san'at jumladan musiqa san'ati ham tushkunlikka tushdi. Urushlar kuchayib ketdi. Natijada 1716 yilda Farg'onada O'zbeklar urug'idan hisoblangan Shohruxbiy Qo'qonni Buxorodan ajratib Qo'qon xonligini barpo etdi. Keyinchalik Turkiston

XYII asrlardan boshlab Buxoro, Qo'qon, Xorazm xonligiga bo'linib ketdi. Ma'lumki O'rta Osiyo xalqlari juda ko'p tarixiy voqeyalarni boshidan kechirib, har bir davrda barcha fanlar qatori musiqa ilmi ham goh rivojlanib, goh tushkunlikka uchrab musiqa cholg'ulari ijrosi, sozanda va xonandalar, musiqashunoslar turli xil holatda yashab ijod etishdi. Yuqoridagi O'rta Osiyo hududidagi mavjud musiqa cholg'ulari turli xil jarayonlarni boshidan kechirib, ko'pgina musiqa cholg'ulari, urushlar jarayonida boshqa davlatlardan keltirilib, ba'zan boshqa xorijiy davlatlarga olib ketilib turli xil holatlarda musiqa ijrochiligida qo'llanilgan. Umuman O'rta Osiyo madaniyati butun Sharq madaniyati rivojiga katta hissa qo'shdi. VII asrlardan boshlab O'rta Osiyo musiqa san'ati shu darajada rivojlanganligidan ham tarixda Borbad Marvaziy nomli turkistonlik bastakor, hofiz, sozandaning nomi zikr etilgan. U VII asrlarda Faxlobod (Borbad) nomi bilan mashhur bo'lib uni Eronga olib ketishgan. Faxlobod o'zining musiqa maktabini yaratib, o'n ikki maqomni ba'zi bir nusxalarini yaratilishiga asos solgan, yani Turkiston musiqasini Eronga tarqatgan. ("Ma'rif va madaniyat") jurnali. Baku. 1923 y. N 8. 9 s.).

Harbir asr, davrda milliy musiqa ijrochiligida qandaydir musiqa cholg'usi asosiy yetakchi o'rin egallagan. Masalan: Sarq xalqlarida jumladan O'rta Osiyoda VII asrlardan to XYIII asrlargacha musiqa ijrochiligida "O'n ikki maqom" nomi bilan ataluvchi turkum asarlar ijro etilib, bunda "Ud" cholg'usi asosiy hisoblangan bo'lsa, XYIII asrning oxiri XIX asrning boshlanishida O'rta Osiyoning adabiyot, san'at va madaniyat rivojlangan shaharlaridan biri Buxoroda "On ikki maqom" turkumi o'rniga "Shashmaqom" shakillanib, buning ijrosida esa "Tanbur" asosiy musiqa cholg'usi bo'lgan.

O'rta Osiyo hududidagi - O'zbekiston, Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston davlatlarida turli-tuman musiqa cholg'ulari bo'lib, bu davlatlarda bir xil nom bilan ataluvchi lekin turli xil asarlarning ijrosiga mo'ljallangan musiqa cholg'ulari milliy musiqa ijrochiligida keng qo'llanilmoqda. Ular – Tanbur, dutor, doyra, rubob, surnay, karnay, g'ijjak, nag'ora, chang, qobuz va hokazo,shu qatori ayrim viloyatlarning o'ziga xos musiqa cholg'ulari bo'lgan. Xorazmda-bulamon, garmon, tor, Buxoroda- Afg'on rubobi, Farg'ona viloyatida-qo'shnay, dutor musiqa cholg'ulari bor. Abdurauf Fitrat o'zining "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" asarida ma'lumot berishicha 1920 yillarda Buxoroda-tanbur, dutor, nay, qo'shnay, qobuz, doyra, rubob, nag'ora, karnay, sunray, dumbra kabi musiqa cholg'ulari

ijrochilikda qo'llanilgan. Hozirgi Tojikiston hududi to afg'oniston chegarasigacha janubiy Buxoro deb atalgan. Undan tashqari juda ko'p xorijiy davlatlar bilan chegaradoshdir. Masalan: O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Afg'oniston hamda Xitoy, Hindiston, Pokiston kabi ko'p davlatlar bilan chegaradosh, ba'zilariga yaqin. Tojikistonning Tog'li Badaxshon Avtanom viloyatida Pomir rubobi, Badaxshon rubobi, blandzikom va Badaxshon tanburi, Badaxshon setori, Pomir nayi, qumri, dumbra, jig'ak, gaf, labchang, panjtor, duvozdah tor (o'n ikki torli) va boshqa nom bilan ataluvchi musiqa cholg'ulari ijrochilikda qo'llanilmoqda. Tojikistonning Xo'jand, O'rotepa, Isfara, Konibodom kabi manzilgohlari Farg'ona vodiysi bilan chegaradosh bo'lib, musiqa ijrochiligi ham bir-biriga yaqin. Ko'lob, Qorategin, Darvoz, G'arm manzilgohlarida cholg'u va ashula yo'li ijrosiga xos musiqiy asarlar ijrolarida ko'proq dumbra, tablak, jig'ak (g'ijjak) kabi musiqa cholg'ulari qo'llaniladi. Ayniqsa O'rta Osiyoning barcha hududlarida dutor, dumbira, doyra, g'ijjak, nay ko'proq uchraydi. Hozirgi kunda O'rta Osiyo hududida qadimiy musiqa cholg'ulari bilan bir qatorda ko'p ovozlilikka moslashtirilgan (rekonstruksiya) musiqa cholg'ulari mavjud. O'rta Osiyoning yirik shaharlaridan Toshkent, Dushanbe, Olma Ota, Samarqand shaharlarida O'rta Osiyo va Umumjahon miqyosidagi musiqiy anjumanlar o'tkazilib, milliy musiqa ijrochiligiga xos asarlar, jumladan milliy musiqa cholg'ularining ijrolari namoish etilmoqda. Olma Ota shahrida 1973 yil da o'tkazilgan Osiyo davlatlarining musiqiy tribunasi, Dushanbe shahrida 1990 yilda Borbad Marvaziyning tavalludini 1400 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan umumjahon musiqiy anjumani, Toshkent shahrida 1975 yilda o'tkazilgan "Maqom, mugam va zamonaviy bastakorlar ijodi" hamda Samarqand shahrida ko'p yillardan buyon o'tkazilib kelinayotgan umumjahon musiqiy anjumanlari va keyingi yillarda Samarqandda o'tkazilayotgan "Sharq taronalari" musiqiy anjumanlari shular jumlasidandir.

Shunday qilib hozirgi kunda Sharq xalqlari xususan O'rta Osiyo hududidagi davlatlarda maqom asarlari (Buxoro, Xorazm, Farg'ona-Toshkent maqomlari) hamda uyg'ur maqomlari, klassik kuylar, xalq ashulalari, baxshichilik, dostonchilik, fol'klor qo'shiqlari, aytishuvlar, lapar va boshqa musiqa ijrochiligiga xos musiqiy asarlar ijrosida turli tuman 30 dan ortiq musiqa cholg'ulari qo'llanilmoqda.

Milliy musiqa cholg'ularini ijrolariga umuman milliy musiqa ijrochiligiga kam e'tibor berilib, natijada 1972 yilda Toshkent Davlat

konservatoriyasida San’atshunoslik fanlari doktori, professor Fayzullo Karomatov rahbarligida maqom asarlarini ijrolari, umuman milliy musiqa ijrochiligiga xos “Sharq musiqa” kafedrasi tashkil qilinib, milliy musiqa cholg’ularini ijrolari qayta tiklanib, musiqa ijrochiligida ud, tanbur, qonun, nay, g’ijjak, dutor, rubob, doyra, surnay, qo’shnay, sato va boshqa musiqa cholg’ularini milliy uslubdagi ijrolari ham o’rganila-boshlangan. Demak hozirgi kunda an’anaviy musiqa ijrochiligida barcha milliy musiqa cholg’ularini milliy uslubdagi ijrolariga katta e’tibor berilmoqda.



Fayzulloh Karomatli Musiqashunos olim. San’atshunoslik fanlari doktori, professor.

Undan tashqari hozirgi kunda O’zbekistonda qayta tayyorlangan musiqa cholg’ularidan - g’ijjak alt, gi’jjak tenor, g’ijjak bas, gi’jjak kontrabas, xuddi shunga o’xshash dutor, nay, ruboblarning turli xildagi sado beruvchi va nomlanuvchi nusxalari tayyorlanib, bu musiqa

cholg'ulari orkestr, fortepiano jo'rligidagi maxsus bastalangan asarlarni ijrolariga mo'ljallangan.

Hozirgi kunda O'zbekiston hududidagi barcha Boshlang'ich, O'rta va Oliy musiqa dargohlarida "Xalq cholg'ulari" va "An'anaviy ijrochilik" bo'limlari faoliyat ko'rsatib, ijrochilikda esa ko'proq milliy musiqa ijrochiligiga xos musiqiy asarlarni ijrolarini o'rganish va targ'ib qilish masalalariga katta e'tibor berilmoqda.

Ko'pgina musiqashunos olimlarimiz, bastakorlar, mutrib sozandalar musiqa cholg'ularini tarixi, joylashgan muhiti, ijro imkoniyatlari va boshqa masalalarga tegishli maxsus kitob, darslik, o'quv qo'llanma, dastur va musiqiy risolalar yozib, cholg'u ijrochiligi haqida ma'lumotlar berilgan. Fitrat. "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" Toshkent 1993 (qayta nashri), Беляев В. М. "Музыкальные инструменты Узбекистана". М. 1953, Mulla Bekjon Rahmon o'gli va Muhammad Yusuf Devonzoda. "Xorazm musiqiy tarixchasi" T. 1998 (qayta nashri), Кароматов Ф. М. "Узбекская инструментальная музыка". Ташкент. 1972 va hokazo.

MILLIY CHOLG'U USTOLARI.


Musiqani cholg'ularsiz tasavvur qilish qiyin albatta. Chunki son-sanoqsiz musiqa sadolarini biz musiqa cholg'ulari, shu qatori xonandalar ijrosidagina tasavvur qila olamiz. Har bir kishi ushbu musiqa sadolarini eshitib ta'sirlanadi va ruhiy ozuqa oladi. Ma'lumki birinchi musiqa cholg'usi Fishog'urs (Pifagor) hakim tomonidan ixtiro qilinib, birinchi musiqa sadolari hosil qilingan ekan. Asrlar osha musiqa ilmi yana takomillashib, rivojlanib, butun Sharq xalqlarida, O'rta Osiyoda jumladan O'zbekistonda son-sanoqsiz musiqa cholg'ulari, musiqa asarlari bunyod etilishiga imkoniyat yaratilganki, albatta ushbu musiqiy asarlar necha asrlar davomida xalq tomonidan og'zaki an'ana uslubida bastalanib musiqa cholg'ularida ijro etilib bizning davrimizgacha yetib kelgan.

Ma'lumki barcha musiqa cholg'ulari xalq ustolari yoki qandaydir tarixiy shaxs tomonidan ixtiro qilinadi. Musiqa cholg'ulari turli davlatlarda turli xil yog'och daraxtlardan tayyorlanadi. Masalan: Arabistonda "Ud" musiqa cholg'usi qora daraxtdan, Hind setori non



Xalq ustasi O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan San'at arbobi Usto Usmon Zufarov bilan milliy musiqa cholg'ularini tayyorlanishi borasida suhbat. Toshkent 1976 yil.





Usto Tohiri Buxoroiy.



Musiqa cholg'ularini tayyorlovchi Xalq ustasi , Usto Sirojiddin. Toshkent shahri. 1978 yil.



Usto Muhammadsiddiq bilan suhbat.



Usto Muhammad Nazir o'z shogirdlari bilan. Toshkent shahri 1987 yil.




Buyuk Xalq ustosi Usto Sirojiddin bilan suhbat.



Buyuk Xalq ustolari Usto Sirojiddin va Usto Faxriddinlar bilan suhbat.



Etuk tanburnavoz sozanda Abdumutal Abdullayev. qo'lida o'zi tayyorlagan tanbur musiqa cholg'usi.



Xalq ustolarining musiqa cholg'ulari tayyorlash jarayonida foydalanidigan ish anjomlari..



Musiqa cholg'ularini kosaxonalarini tayyorlashda qo'llaniladigan "zog'nul" nomli ish anjomi.



Musiqa cholg'ularini tayyorlovchi Xalq ustosi Inoyat Qodiriy va shogirdlari Faxriddin Saidov. Qarshi shahri . 2005 y.



Ustoz sozanda To'ra Jo'rayev va Xalq ustosi Karomatullo Muqimovlar bilan suhbat. Buxoro shahri. 1986 y.




Buyuk Xalq ustasi Usto Muhammadali Xoliqov
o'zi tayyorlagan "Shohrud" musiqa cholg'usi
Dushanbe shahri 1982 yil.



Xalq ustasi Usto Sobir.
Dushanbe shahri. 1986 yil.




Xalq ustasi Usto Zayniddin. Qo'lida
Buxoro shahrida faoliyat ko'rsatgan
buyuk Xalq ustasi
Usto Tohirdan yodgorlik qolgan , dutor
musiqa cholg'usini tayyorlaydigan
qolib yoki qolab.



Buyuk Xalq ustasi Usto
Muhammadnabi . Xo'jand
viloyati Voro' mahalgohi.
1987 yil.




Musiqa cholg'ularini tayyorlovchi Xalq
ustasi Usto Qayum.
Dushanbe SHahri 1989 yil .




Xalq ustalari Usto Usmon, Usto Tohir va ularning
shogirrdlari tomonidan tanbur,
sato musiqa cholg'ulari uchun tayyorlangan
xarraklarning turli xil nusxalari.



Usto Davlat. Malika Sobirova nomidagi maxsus musiqa maktabi. Qo'lida o'zi tayyorlagan ud cholg'usi.
Dushanbe. 1988 yil.



Xalq ustasi Usto Jonboz.
Tog'li Badaxshon avtonom viloyati, Bartang mahalgohi.
1988 yil.



Badaxshon musiqa cholg'ularini tayyorlovchi xalq ustasi Usto Gulbek.
Rushon mahalgohi. 1987 yil.



Usto Muhammad Nazirning ustaxonasi.



Usto Usmon Zufarovning tanbur va sato cholg'ulariga ishlagan bezaklari



Xalq ustolarini musiqa cholg'ulari tayyorlash jarayonida qo'llaniladigan ish anjomlari.

daraxtidan O'rta Osiyoda jumladan O'zbekistonda tut, zardoli, yong'oq daraxtlaridan musiqa cholg'ulari tayyorlanadi. Xalq ustolari uzoq yillar davomida milliy musiqa cholg'ularini tayyorlash borasida ilmiy va amaliy izlanishlar olib borganlar. Masalan: daraxtlarni tanlash, ularni faqat kuz, yoki qish faslida qirqish, yog'ochni kun chiqar tomondagi qismini tanlash, ularni 3 yildan 40 yilgacha quritish, hamda ma'lum holatdagi quyoshning nuri tushmaydigan joy, yer ostida, quruq qumning ichida, suvning ostida saqlanishi, tut va zardolu daraxtning tarkibidagi shirinlik, yong'oq daraxtning tarkibidagi yog' moddalarini yog'och tarkibidan chiqarish uslublari hisoblanadi. Tut daraxtning meva beradigan nusxasi, zardoli daraxtning shirin donakli nusxasi ham cholg'u yasash uchun tanlanadi.

Har bir musiqa cholg'usining tarkibiy qismlari alohoda-alohida tayyorlanib, keyin bir-biriga biriktiriladi. Kosaxona tut daraxtidan bo'lsa, dasta zardolu daraxtidan tayyorlanadi. Ud, dutorlarni tayyorlashda maxsus qolab (qolib) tayyorlanadi. Rubob, qonun, doyra, tor, g'ijjak kosaxonalariga novvos, toycha terisi yoki qora mol yuragining pardasi va baliq terilaridan qoplanadi. Tanbur, dutorlar kosaxonasidagi qopqoqlar maxsus kuydirilib, keyin o'rnatiladi. Tayyorlangan bo'laklar bir-biriga shirish yoki qora mollarning oyog'idagi poychadan tayyorlangan shirish orqali birlashtiriladi. Musiqa cholg'ularidagi tarkibiy qismlarni deyarli hammasi fors va o'zbek tillarida nomlangan. Masalan: kosaxona, dasta, qopqoq, (sarpo'sh) parda, xarrak, tor, shayton xarrak, quloqlar (go'shak) tolgir, (tor ushlagich), yuqori torxonona va pastgi torxonona, sarpanja tayyorlanadi. Ushbu cholg'ularni ijrolari uchun esa mizrob, komon, zaxma, noxun va hokozolar yasalgan. Bu tarkibiy qismlarni tayyorlab bir-biriga biriktirilishida xalq ustolari o'z ustolik mahoratlarini nozik did bilan namoyish etadilar.

Forobiy, Urmaviy, Marog'iy, Navoiy, Jomiy, Kavkabiyy, Husayniy, Darvesh Ali Changiy, Komil Xorazmiy va boshqalar o'z asarlarida milliy musiqa cholg'ulari haqida ma'lumot berishsa, ularni yasovchi xalq ustolari haqida esa tamoman ma'lumotlar berilmagan. O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston cholg'ushunosligini rivojida ikkita buyuk xalq ustolarini xizmatlari bebahodir. Ular Buxorolik Usto Mahmudning o'g'li Usto Tohir va Toshkentlik Usto Toshning shogirdi Usto Usmon Zufarov. Bu ulkan xalq ustolari juda ham jarangdor sado beruvchi tanbur, dutor va boshqa musiqa cholg'ularini juda ko'p nusxalarini tayyorlab, mutrib-sozandalarga hadya etganlar va xalq

ko'rgazmalarida namoyish ettirganlar. 1937 yilda Moskva shahrida O'zbekistonning birinchi dekadasi bo'lib o'tdi. Bu tarixiy sana uchun xalq ustosi Usto Usmon Zufarov turli xil ko'rinishdagi naqshli, ajoyib sadoli tanbur, dutor, rubob, sato va boshqa musiqa cholg'ularini tayyorlab, o'zbek milliy musiqa cholg'ularini kengroq tanitishda, o'zbek cholg'ularini jadal jalb etish rivojiga katta hissa qo'shdi. Dekada uchun tayyorlangan musiqiy cholg'ularning ba'zilarida asarlar ham ijro etildi.

Hozirgi kunda ushbu mashhur xalq ustolarining an'alarini Usto Sirojiddin, Usto Nabi, Usto Faxriddin, Usto Muhammad Nazir, Usto Muhammad Saddiq, Usto To'xtamurod, Usto Karomatullo, Usto Kozimjon, Usto Inoyat, Usto Adham, Usto Mustafo (O'zbekiston), Usto Mamadali Xoliqov, Usto Davlat, Usto Sobir, Usto Gulbek, Usto Zayniddin, Usto Qayum (Tojikiston) va boshqalar davom ettirishmoqda.

UD MUSIQA CHOLG'USI.

Sharq xalqlari musiqa ijrochiligida eng qadimiy musiqa cholg'ularidan biri bu "Ud" cholg'usi bo'lib, butun Sharq xalqlari musiqa ijrochiligida qariyb X asr davomida yetakchi soz hisoblanib, amaliyotda keng qo'llanilib kelinmoqda. "Ud" musiqa cholg'usining yaratilishi haqida turlicha ma'lumotlar berilgan. "Ud" so'zining lug'aviy ma'nosi "Qora daraxt" dir. (Ya'ni qora daraxtdan tayyorlangan musiqa cholg'usi). Udning dastlabki nusxasi yunon olimi Fishog'urs (Pifagor) hakim tomonidan ixtiro qilingan deyiladi (Is'hoq Rajabov. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent. 1963 yil. 17. s.). Udning ikkinchi nomi "Barbat" deb nomlanib bu so'z ikki ma'nodadir. Bar-qomat, bad-o'rdak; ya'ni o'rdak qomatiga o'xshash musiqa cholg'usi ma'nosini anglatadi. Ma'lumki musiqa tarixida sharq musiqa ijrochiligining asoschisi, sharq musiqa madaniyatining rivojiga o'z hissasini qo'shgan sozanda, xonanda, bastakor Barbat Marvaziyning nomi zikr etilgan bo'lib, bu sozanda O'rta Osiyoning Marv(Mari) shahrida yashaganligi, uning yetuk ijrochilik mahorati Eron podshohi Xusrav Parvizda katta tasurot qoldirganligi va shoh saroyida faoliyat ko'rsatib, shohga atab "Xusravoniy" nomli musiqiy asarlar bastalaganligi hamda bu asarlar uzoq vaqtlar davomida Sharq xalqlari musiqa ijrochiligida ijro etilganligi haqida juda ko'p ma'lumotlar berilgan. Demak Barbat Ud (Barbat) cholg'usini yetuk ijrochisi bo'lgan. Shu bois ud musiqa cholg'usiga ikkinchi nom Barbat berilganligi, yoki Barbat Marvaziyga

udning ikkinchi nomi bo'lmish "Barbat" taxallusi berilgan bo'lishi ham mumkin.

Umuman "Ud" musiqa cholg'usi VII asrdan to XYIII asrlarning oxirigacha barcha Sharq xalqlari musiqa ijrochiligida maqom asarlaridan "12 Maqom" nomi bilan ataluvchi musiqa asarlari ijro etilgan. "12 Maqom" asarlarini ijrolari esa "Ud" musiqa cholg'usining soz va pardalariga mos holda ijro etilgan. VII asrdan to XYIII asrgacha yozilgan barcha musiqa asarlarida (kitob, risola, o'zga manbalarda) faqat "12 Maqom" va "Ud" musiqa cholg'usi haqida ma'lumot berilgan. Bu ma'lumotlarni Forobiy, Urmaviy, Jomiy, Navoiy, Sheroziy, Kavkabiy, Husayniy, Darvesh Ali va boshqa mutafakkirlarning musiqa ilmiga bag'ishlangan asarlarida ko'rishimiz mumkin. Forobiy va Urmaviylar o'zlarining dastlabki "Sharq nota" yozuvi tizimini ham "12 Maqom" ijrosi va "Ud" musiqa cholg'usining sozi, pardalari, torlari umuman ijroviy imkoniyatlarini hisobga olgan holda yaratganlar. Shu davrlarda "Ud" sozi avval 4, keyin 5 torli va 7 pardali bo'lib, torlari: bam, maslas, masna, zir, hodd tusida, pardalari esa: mutlaq, zoid, mujannab, sabboba, vustai furs, vustai Zalzal, binsir, xinsir kabi nomlar bilan atalgan. Ko'pgina insho etilgan musiqiy risolalarda "Ud"ning turli xil ko'rinishdagi, nomlanishdagi nusxalari, turlari haqida ma'lumot berilgan: Ud, udi komil, udi qadim, taraf rud, rud, shohrud, Borbat va hokazo. XYIII asrlarga kelib musiqa ijrochiligida "12 Maqom" asarlari turli davlatlarda turlicha talqin etilib, nomlanib ijro etilaboshlangan. Masalan: "12 Maqom" asarlari o'rniga Eronda – "Dastgoh", Kavkaz xalqlarida "Mugam", Hindlarda "Raga", O'rta Osiyoning Buxoro shahrida "Shashmaqom" nomlari bilan atalib, bu asarlarni ijrosida endi "Ud" cholg'usi emas- "Dastgoh" asarlari ijrosida setor, komoncha, "Raga" asarlarini ijrosida Hind setori, "Shashmaqom" asarlari ijrosida esa tanbur asosiy musiqa cholg'usi hisoblanaboshlangan. "12 Maqom" nomli maqom asarlari hozirgi kungacha faqat Uyg'ur xalqlarida saqlanib qolgan va bu asarlar Uyg'ur tanburida ijro etiladi. Demak XYIII asrga kelib maqom nomli musiqiy asarlarning ijrolari "Ud" cholg'usida emas balki yuqoridagi musiqa cholg'ularida ijro etilaboshlandi.


Buxoro shahrida 1917 yillargacha juda ko'p musiqa cholg'ulari ijrochilikda qo'llanilgan. Ya'ni Ud, Tanbur, Afg'on rubobi, Afg'on rubobiga o'xshash Sorang nomli Hind musiqa cholg'usi, qubuz va hokazo. Ba'zi tarixiy voqeyalar tufayli ko'pgina musiqa cholg'ulari jumladan "Ud" cholg'usi ham ijrochilikda qo'llanilmay qolgan. Ko'pgina milliy musiqa cholg'ularining amalan musiqa ijrochiligida

qayta tiklanish va albatta 1971-1972 o'quv yilida qo'llanilishi albatta 1972-1979 yildagi San'atshunoslik fanlari doktori, musiqashunos olim, professor Fayzullo Karomatli rahbarligidagi "Sharq musiqasi" kafedrasining tashkil qilinishiga va ko'p yillik faoliyat davomida keng qanot yoyib ketganligi bilan bog'liqdir. Bu kafedra tashkil qilingach ud, qonun, an'anaviy tanbur, qo'shnay, surnay, sato va boshqa musiqa cholg'ularining ijrolari qayta o'rganilaboshlandi. Jumladan rubob sinfida oiladosh musiqa cholg'usi sifatida, Afg'on (Badaxshon) rubobi va "Ud" musiqa cholg'ularini ijrolari ham o'rganilaboshlandi. Demak rubob sinfida tahsil olgan shogirdlar "Ud" musiqa cholg'usi ijrosini o'rganaboshladi. Buyuk sozanda, bastakor O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan artist Shavkat Mirzayev, professor Rifatulla Qosimov va boshqalar shular jumlasidandir. Keyingi yillarda esa bu an'anani O'zbekiston Davlat Konservatoriyasining professori, "An'anaviy ijrochilik" kafedrasining mudiri Rifatullo Qosimov davom ettirib, shogirdlariga "Ud" va rubob musiqa cholg'ularini ijrochiligini o'rgatib kelmoqda. Undan tashqari O'zbekistondagi ko'pgina Oliy va O'rta maxsus musiqa o'quv yurtlarida, musiqa kollejlari hamda letseylarda "Ud" musiqa cholg'usi ijrochiligini o'zlashtirmoqdalar. "Ud" musiqa cholg'usining tarixi, torlari, sozlanishi, ijroviy asarlari to'g'irisida Rifatulla Qosimovning "Ud" darsligi va Saodat Abdullayevaning "Народные музыкальные инструменты Азербайджана" (Ozarboyjon xalq musiqa cholg'ulari) kitobida yetarli ma'lumotlar berilgan. "Ud" musiqa cholg'usining torlari dastlab 4-5 ta keyinchalik 9 ta bo'lib, hozirgi kunda esa 11 ta torlilari musiqa ijrochiligida qo'llanilmoqda. "Ud" musiqa cholg'usining sozlanishi esa turlicha ko'rsatilgan. Uzoq yillar davomida ko'pgina yetuk sozandalar tomonidan milliy musiqa cholg'ulari uchun o'quv qo'llanma va darsliklar chop etilgan bo'lib, ulardagi torlar miqdorini raqamlar orqali belgilanishi ozroq noaniqdek tuyuladi. Musiqa cholg'ularida mavjud torlar orqali o'sha musiqa cholg'usini birinchi toridan to oxirgi torigacha bo'lgan tovushqator (diapazon yoki fosilasi) belgilanib muayyan etiladi. Demak birinchi tor eng past sado beruvchi tor hisoblanib, o'sha torga (1) raqami quyilishi kerak. Keyin ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi, beshinchi va eng yuqori sado beruvchi oxirgi tor oltinchi va hokazo raqamlar bilan belgilanishi kerak. Mutaasifona barcha chop qilingan darsliklarda musiqa cholg'ularidagi torlar raqamlar bilan belgilanib, eng yuqori sado beruvchi tor (1) raqami bilan, eng past sado beruvchi tor besh yoki olti (5-6) raqami bilan belgilangan bo'lib, bu


esa tamoman maqsadga muvofiq emas. Birinchi torning raqam orqali belgilanishi eng past sado beruvchi tordan boshlanishi kerak.

Udning sozlanishi turlicha ko'rsatilgan Masalan: Rifatullo Qosimov. Ud.Toshkent 2002. 6-7 s.

Sozlanishi.



Tovushqatori.



O'zbekiston Davlat konservatoriyasi
"An' anaviy ijrochilik" kafedrasining
mudiri, professor Rifatullo Qosimov.
Ud sinfi bo'yicha ustoz.



Ustoz Ter-Petrosyans. Erevan shahri .
1990 yil.

TANBUR MUSIQA CHOLG'USI VA SHARQ XALQLARIDA MAVJUD TANBUR OILASIGA MANSUB MUSIQA CHOLG'ULARII

Tanbur eng qadimiy musiqa cholg'ularidan biri hisoblanib, arab, fors, turk, lotin, rus va boshqa tillarda yozilgan musiqiy asarlarda turlicha ma'lumotlar berilgan. XYIII asrning oxirigacha "Ud" musiqa cholg'usi musiqa ijrochiligida qanday mavqega ega bo'lgan bo'lsa, XYIII asrga kelib "Tanbur" ham xuddi shunday mavqega ega bo'lgan musiqa cholg'ularidan hisoblangan. Tanbur so'zi yunon tilida ikki ma'noni anglatadi. Tan-yurak, bur-tirnovchi, qitiqlovchi ya'ni yurak torlarini tirilanovchi, larzaga keltiruvchi ma'nolarini anglatadi. Dastlabki yaratilgan tanburlar deyarli bir torli bo'lib, "yaktor" deb atalgan. Keyingi yillarda bu musiqa cholg'usi takomillashtirilib undagi parda va torlarning miqdori ko'paygan. Ikki torlisi- dutor, uch torlisi-setor, to'rt torlisi-chortor, besh torlisi-panjtor va hokazo nomlar bilan atalib musiqa ijrochiligida qo'llanilib kelingan.

Tanbur joylashgan muhitiga qarab, millat va elatlarning nomlari bilan ham atalgan. Masalan: Xuroson tanburi, Bag'dod tanburi, Turk tanburi, Hind tanburi, Afg'on tanburi, Uyg'ur tanburi, O'zbek va Tojik tanburi, Kurd tanburi va hokazo. Tanbur fors tilida katta kichikligiga qarab – Tanburi kuchak (kichik tanbur), tanburi buzruk (katta tanbur) kabi nomlar bilan ham yuritilgan.

Tanbur tuzilishidagi tarkibiy qismlarning deyarli ko'p qismi fors tilida nomlangan. Ya'ni torlar miqdori to'rtta bo'lib, bir xil uchta ingichka torlari katta oktava "sol" tovushiga, uchinchi yo'g'on tori "re" tovushiga sozlanadi. "Shashmaqom" asarlari ijrosida tanbur turlicha sozlanadi. "Shashmaqom"ning ashula yo'li ijrosida esa hofiz-xonandalar tanburni ovozlari qarang turlicha sozlaydilar. Masalan: tanburning asosiy sozlanishi "sol" tovushiga bo'lsa, hofiz-xonandalar ovoz turlariga qarab (bas, bariton, tenor va hokazo) "sol" tovushidan yuqori "sol-diyez", "lya", "lya-diyez", "sol" tovushidan past "fa-diyez" va "fa" tovushlariga sozlaydilar. Umumiy qabul qilingan sozlanishi esa katta oktava **sol, sol, re, sol** tovushlari bo'lib, turlicha sozlanishda esa uning eng yo'g'on tori Buzruk, Dugoh, Segoh, Iroq maqomlari ijrosida "re" tovushiga, Rost maqomi ijrosida uning yo'g'on tori "**do**" ya'ni **sol, sol, do, sol** tovushlariga, Navo maqomi ijrosida esa yo'g'on tori "**fa**" ya'ni **sol, sol, fa, sol** tovushlariga sozlanadi. Umuman "Shashmaqom" ijrosida esa tanburning birinchi tori "**sol**" bir xil

sozlanishda turadi, lekin uchunchi yo'g'on "re" tori har xil sozlanadi. Tanburda musiqiy asarlar ijrolari jarayonida o'ng qo'l va chap qo'lning o'ziga xos ijro harakatlari mavjud. Chap qo'lning tanbur pardalari ustidagi harakati bu kunda ikki xil uslubda belgilanadi.

1. Buxoro ichilijroik maktabi – bunda ijrochining bosh barmog'i tanburning biror pardasida turishi va qolgan barmoqlarini pastga va yuqoriga qarab sekunda, tertsiya va kvarta oralig'i bo'yicha harakati tushuniladi. Bu tarzda ijro butun O'rta Osiyo, O'zbekiston hududida 1940 yillargacha ijro etib kelingan. Buxoro ijrochilik maktabiga ustozlar- Ota Jalol, Ota G'iyos, Ma'rufjon Toshpo'lotov, Abdirahmon Umarov va boshqalarning ijrolari misol bo'laoladi.

2. Farg'ona – Toshkent ijrochilik maktabi – bunda bosh barmoq bir joyda turmasdan bosh va ko'rsatgich barmoqlarni orasida tanburning dastasi ushlanib aynan dutor ijrosiga o'xshash har bir pardada panjalar barobariga pastga yoki yuqoriga harakat qiladi.



Qarshi Davlat san'at kolleji. Tanbur sinfi. Chapda Sa'dulloning tanbur ushlash holati Farg'ona – Toshkent, o'ngda Shuhratning tanbur ushlash holati Buxoro ijrochilik maktabiga mansub.

Ijro jarayonida o'ng va chap qo'l mahorati natijasida nola, "qochirim", "kashish", "nim kashish", kashishi purra", "purrang", "qo'sh noxun" "zarbi jam" yoki "zarbi oro" va boshqa ijro bezaklari qo'llaniladi. Tanbur ijro jarayonida uch xil vazifani o'taydi. Tanburda cholg'u yo'lga xos musiqiy asarlarni ijro etilishi, tanburda hofiz – xonandalarning o'zlari chalib ashula aytishlari, tanburda mutrib –

sozandalarning, hofiz – xonandalarga jo'r bo'lib jo'rnavozlik ijrolari. Albatta, cholg'u yo'li ijrosida o'ziga xos, ashula yo'li ijrosida o'ziga xos tanburning ijro bezaklari qo'llaniladi. Cholg'u yo'li ijrosida O'zbekiston Davlat Konservatoriyasining professori, O'zbekiston Xalq Artisti ustoz tanburnavoz Turg'un Alimatovning, ashula yo'li ijrosida ustozlar-Fazliddin Shahobov, Shohnazar Sohibov, Rasulqori Mamadaliyevlarning ijrochilik maktabini misol qilib olishimiz mumkin. Tanburnavoz eng yetuk mutrib-sozandalardan- Ota G'iyos, Ma'rufjon Toshpo'latov, Abdurahmon Umarov, Berkinboy Fayziyev, Ro'zmat Isoyev, Sultonxon Hakimov, Maqsudxo'ja Yusupov, Shohbarot tanburchi, Ibni Yamin Asomiddinzoda, Rizqi Rajabiy, Jo'rabek Sayidaliyev, Turg'un Alimatov, Abdumutal Abdullayev, Fazliddin Shahobovlar, tanburnavoz eng yetuk hofiz-xonandalardan: Komil Xorazmiy, Ota Jalol, Levicha Hofiz, Sodirxon Hofiz, Boboqul Fayzullayev, Shohnazar Sohibov, Rasulqori Mamadaliyev, Matpano Xudoyberganov, Orifxon Hotamov, Fattoxxon Mamadaliyev, Hasan Rajabiy, Mahmudjon Tojiboyev, Mashrab Ermatovlar va hokazo. Tanburnavoz jo'rnavozlar- Fazliddin Shahobov, Shohnazar Sohibov, Turg'un Alimatov, Borrux Zirkiyev va boshqalar.

Hozirgi kunda O'zbekistondagi va Tojikistondagi Oliy, O'rta va Boshlang'ich musiqa dargohlaridagi Tanbur sinflarida quyidagi tanburnavozlar ustozlik qilmoqdalar. O'zbekiston Davlat Konservatoriyasida professor Turg'un Alimatov, Abdufattoh Abdug'offorov, Asror Zufarov va boshqalar, Toshkent Madaniyat institutida dotsent Abdullo Umarov, Buxoroda Shodibek Sharipov, Samarqandda Naimjon Hamroqulov, Ixtiyor Sultonov, Farg'onada- Muhammadjon Xoliqov, Olimjon Yunusov, Xorazmda- Ozod Bobonazarov, Rustam Boltayev, Qashqadaryoda dotsent Murodullo Abdukarimov va boshqalar.


Sozlanishi.





Tovushqatori.



Sozlanishi.



Tovushqatori.





O'zbekiston va Tojikiston hududidagi tanbur musiqa cholg'ulari



O'zbekiston Xalq artisti Turg'un Alimatov.



Sodirxon hofiz .Xo'jand shahri.



O'zbekiston Xalq artisti Turg'un Alimatov bilan musiqiy suhbat.



O'zbekiston Xalq Hofizi Fattoxxon Mamadaliyev bilan musiqiy suhbat.



Buyuk tanburnavoz Buxoro Shashmaqomining bilimdoni ,etuk ijrochisi Tojikiston Xalq artisti Fazliddin Shahobov.



Buyuk tanburnavoz , Buxoro shashmaqomining bilimdoni, etuk sozanda , Tojikiston Xalq artisti Shohnazar Sohobov.



O'zbekiston Xalq hofizi Orifxon Hotamov.



O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan artist Jo'rabek Saidaliyev.



Buyuk xushovoz xonanda, Shashmaqom asarlarining mohir ijrochisi Tojikiston Xalq artistkasi Barno Is'hoqova bilan musiqiy suhbat.



Barno Is'hoqovaning ansmbli jo'rligidagi ijrosi



Qarshi Davlat san'at kolleji. Tanbur sinfi.



Uyg'ur, Afg'on, Arman va Turk tanburlari.

SATO MUSIQA CHOLG'USI.

Tanbur musiqa cholg'usi ikki xil ijro yo'li asosida musiqa ijrochiligida qo'llanib kelingan. Ya'ni noxun (mizrob) va komon vositasida ijro etilgan. Komonli tanbur haqida Omuliy keyinchalik Abdulqodir Marog'iy o'zining "Maqosid-ul-alhon", (Kuylar maqsadlari) asarida 40 ga yaqin musiqa cholg'ulari haqida ma'lumot berib, tanburning komon vositasida ijro etiladigan nusxasi "Nay tanbur" haqida ma'lumot bergan. Bizning davrimizda esa 1920 yillardagi musiqa ijrochiligi ya'ni "Shashmaqom" asarlarini ijrosi haqida ma'lumot berib, Abdurauf Fitrat o'zining "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" kitobida shunday fikr bildirgan. "Shashmaqom" asarlari ikki yo' uch tanbur jurligida ijro etilib, uch tanburdan biri komon vositasida ijro etilgan. Agarda bir tanbur komon vositasida ijro etilmaganda uning o'rniga qubuz cholg'usi jo'r bo'lgan.

Demak sozandalar ba'zan tanburni komon vositasida ijro etishgan. Dastlabki o'zbek teatri Yangi Yo'l shahrida tashkil qilinib, O'zbekistonning eng yetuk rejissyorlari, aktyorlari, sozandalari va xonandalari ushbu teatrdagi faoliyat ko'rsatishgan. Yetim Bobojonov, Yunus Rajabiy, Turg'un Alimatov va boshqalar. 1957 yilda esa O'zbekiston radiosi va televideniysi qoshida Yunus Rajabiy rahbarligida milliy, maqom an'sambli tashkil etilib, eng yetuk sozanda va xonandalar bu an'samblga taklif etiladi. Jumladan Turg'un Alimatov ham tanbur cholg'uchi sozanda sifatida taklif etilgan. Yunus Rajabiy, Turg'un Alimatovga o'z xohishini bildirib, eng yetuk ustozlardan Sultonxon Hakimov, Ma'rufjon Toshpo'latov, Fazliddin Shahobov va boshqalar ba'zan tanburni komon vositasida ijro etishgan. Shu bois Turg'un Alimatov shu an'anani qayta tiklashi haqida fikr yuritiladi.

Hozirgi biz fikr yuritadigan "sato" yoki "tanbur sato" haqida O'zbekiston xalq artisti O'zbekiston Davlat Konservatoriyasining professori Turg'un Alimatov xalq ustasi Usto Usmon Zufarovga murojaat qilib, bir tanbur kattaroq ko'rinishida bo'lib, bunda ham noxun, ham komon vositasida musiqa ijro etilishi lozimligini aytadi. Ustaxonaga kelib Usto Usmonga bu xohishni bildiradi va ustaxona burchagida chang bosib yotgan musiqa cholg'usini ko'radi. Bu musiqa cholg'usi 1937 yilda O'zbekistonning Mockvada bo'lib o'tgan birinchi dekadasiga bag'ishlab tayyorlanib, ko'rgazmada namoyish etilib, shu yildan 1957 yilgacha ustaxonada saqlangan. Ushbu musiqa

cholg'usi olinib uning parda, qopqoq, xarrak kabi qismlari yangilanib qayta ta'mirlandi va Turg'un Alimatov tomonidan komon vositasida musiqiy asarlar ijro etilaboshlandi. 1937 yilda O'zbekistonning 1-chi dekadasini Moskva shahrida o'tishi munosabati bilan Usto Usmon Zufarov tomonidan barcha o'zbek milliy cholg'ularini ko'pgina ko'rinishdagi turlari qayta tayyorlanib, dekadada namoyish etiladi. Tanbur sato ham ko'rgazma uchun Moskvada namoyish etiladi. Lekin hech bir sozanda uni ijro va soziga qiziqmagan. Turg'un Alimatov bu cholg'uni ba'zi bir qismlarni yangilab ijrochilikka ham tanbur, ham sato uslubida ijro eta boshladi. Dastlab Turg'un Alimatov "Navo" nomli musiqiy asarini tayyorlab ijro etgan. Bu radio va televidenie orqali namoyish etilgach, bu musiqa cholg'usini tanbur singari "noxun" vositasidagi ijrosi "tanbur", komon vositasidagi ijrosi "sato", yoki "tanbur sato" deb atala boshlangan. Keyingi yillarda Turg'un Alimatov juda ko'p musiqiy asarlarni sato ijrochiligi yo'lida ijro etib, o'ziga xos ijrochilik maktabini yaratib, "Sato navolari" nomli plastinka yozuvini shunavandalarga hadya etgan.

Sato - so'zining asl ma'nosi shundan iboratki, "sato" so'zi "sado" yoki "setor" so'zidan olingan. Aniqrog'i setor so'zini Uyg'ur tilidagi talaffuzidan olingan. Uyg'ur xalqida ham maqom asarlarini "marg'ul" nomli ijroviy bo'laklari tanburning komon vositasidagi ijrosi asosida ijro etiladi. Ya'ni setor so'zini uyg'ur tilidagi talaffuzi "satar" so'zidan olingan bo'lib, Uyg'urlarda komonli tanbur- "sato" yoki "satar" deb atalgan. Shunday qilib ushbu "sato" so'zining atamasini yuqoridagicha izohlash mumkin.

Sato ijrochiligida g'ijjak cholg'usidagi ijroviy zarb va bezaklari qo'llaniladi. Faqat "Zarbi oro" zarbi tanburda noxun vositasida, "sato" yoki "tanbur sato" da ko'rsatgich barmoq vositasida ijro etiladi.

"Zarbi oro" zarbi.



Torlar.

Yozilishi.

Ijro turlari.



O'zbekiston Xalq ustolari-Usto Usmon Zufarov , Usto Muhammad Siddiq , Usto To'xtamurod, Usto Faxriddinlar tayorlagan sato musiqa cholg'ulari.



Maqom asarlarini bilimdoni Ma'rufjon Toshpo'latov. Buxoro shahri. 1970 y.



O'zbekisto'n Xalq artisti buyuk satonavoz Turg'un Alimatov.

SETOR MUSIQA CHOLG'USI.

Tanbur musiqa cholg'usi torlarining miqdoriga qarab bir torlisi-yaktor, ikki torlisi-dutor, uch torlisi-setor deb nomlanadi. 1920 yillarda Buxoroda va boshqa mahalgohlarda uch torli tanburlar ham "tanbur" ham "setor" nomi bilan atalgan. Hozirgi kunda Eronda Eron setori, Hindistonda Hind setori, Badaxshonda Badaxshon setori, Xitoyning Qoshqar mahalidagi uyg'ur xalqlarida satar (setor) musiqa cholg'ulari ijrochilikda qo'llaniladi. Bu "setor" nomli musiqa cholg'usi o'zlarining joylashgan muhiti, ijroviy asarlari, sozlanish, parda tuzilishi, ijro holati va boshqa xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Ya'ni Hind va Badaxshon setorlari aynan tanburdek po'latdan tayyorlangan "temir tirnoq", "noxun" vositasida, Eron setori esa navozandaning o'zini tabiiy tirnog'i vositasida ijro etiladi.

Hind setori -ko'proq "Raga" nomli musiqiy asarlari ijrosida qo'llaniladi. Hind setorining dastlabki nusxalari albatta uch torli 14 pardali bo'lgan. Keyingi yillarda tayyorlangan nusxalari 12 dan 18 tagacha torli, pardali esa har bir "Raga" asarlarining ijrosiga qarab harakat asosida so'zlab ijro etiladi. Hind setorining dastlabki an'anaviy nusxalari aynan O'rta Osiyodagi tanbur sozini ijrolariga, ko'rinishiga, nomlanishiga yaqin, zamonaviylari esa hajmi, torlarning miqdori bilan farq qiladi. Chunki Hind musiqa cholg'ularini, Hind musiqa madaniyatini asoschisi Amir Xisrav Dehlaviy bo'lib, uning otabobolarini kelib chiqishi Shahrisabz (Kensh) shahridan bog'liqligi haqida ma'lumot berilgan. Undan tashqari XVI asrga Bobur mirzoning Hindistonda "Mo'g'il imperiyasi"ni barpo etishi, albatta iqtisodiy va madaniy aloqalar ham bo'lganligidan dalolat beradi. (Is'hoq Rajabov. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent 1963.230.s.)

Narayan Menoning yozishicha Xusrav Dehlaviy Hindiston adabiyoti va san'atini rivojlantirishga qo'shgan hissasi haqida gapiradi. (1253-1325). U turk bo'lgan, Hind olimi, navozandasi, bastakori, yozuvchisi, Urdu, Fors, Hind tillarda asarlar yozgan. (Виктор Сергеевич Виноградов. "Индийская рага" 1 зд. Сов. Композитор. Москва. 1976.17с.)

Hindistonda o'ziga xos nota yozuvidagi nomlanishiga doir musiqa ijrochiligi mavjud. Ovrupo uslubidagi do, re, mi, fa, sol, lya, si, notalarini o'rniga Hindistonda - sa, ri, ga, ma, pa, dxa, ni kabi atamalari qo'llaniladi. Bu atamalar Hind musiqa nazariyasidagi Svarshaddja,

rishabxa, gandxara, madx‘, yama, panchama, nishaba nomli atamalarining nomlanishidir.



Musiqashunos olimasi Hind musiqasi ijrochiligini bilimdoni, setor-navoz Dilorom Fayzulloh Karomat qizi. Toshkent – Dehli. 2004 y.

Eron setori-asosan Eron milliy musiqasi ijrochiligi va Eron dastgohlarini (maqom asarlari) ijrosida qoʻllaniladi. Eron setorining anʼanaviy nusxalari 3 torli va 14 pardali boʻlib, keyingi yillarda yana bir tor qoʻshilib 4 torli boʻlgan. Pardalarining joylashuvi esa xromatik tovushqator tarzida boʻlib, pardalarining joylashuvi bir ton, yarim ton va chorak tonli pardalar mavjud boʻlib, chorak tonli pardalar Eron tilida «Rubʼh» parda deb ataladi. Eron setorida asosan Eron maqom asarlari yaʼni dastgohlar ijro etiladi. Eron musiqasida “12 maqom” shundan yettitasi asosiy va beshtasi yordamchi maqom asarlari hisoblanadi. Bu maqom asarlari “Dastgoh” lar deb ataladi. Mahdi Barakashlini yozishicha Eron Dastgohlarida 228 ga yaqin musiqiy asarlar mavjud. Ularning asosiylari - Shur, Mohur, Humoyun, Segoh, Chorgoh, Navo, Rost boʻlib, yordamchilari Abu-ata, Dashtiy, Afshoriy, Bayoti-turk kabi nomlari bilan atalib, ijro etiladi. Bu maqomlarni ijrosida asosan milliy musiqasi cholgʻularidan - setor, tor, kamoncha (gʻijjak), tabl (tablak yoki nogʻora), soz musiqasi cholgʻulari qoʻllaniladi.

1990 yilda Dushanbe shahrida Borbat Marvaziyning to'g'ilganligini 1400 yilligiga bag'ishlangan Umumjahon musiqiy simpoziumi bo'lib o'tdi. Bu anjumanda butun dunyodan sozanda, xonanda, bastakorlar va musiqashunoslar ishtirok etishdi. Jumladan Erondan eng yetuk hofiz xonandalardan biri Shajariyon rahbarligidagi dasta ishtirok etib, Eron dastgohlardan juda ko'p musiqiy asarlar ijro etildi. Bu dastaning setornavozi Og'oi Rizo Qosimiy bilan suhbatlashib Eron setroining yasalishi, tuzilishi, sozlanishi, pardalarning joylashuvi, ijro etiladigan musiqiy asarlar va ijro jarayonida qo'llaniladigan musiqiy bezak zarblari va ularning ijrolari haqida suhbatlashib olindi.



Eron setornavozi Og'oyi Rizo Qosimiy bilan suhbat. Borbat Marvaziy tavalludining 1400 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan umumjahon musiqiy anjuman qatnashchilari. 1990 vil. Dushanbe shahri .

Sozlanishi.



Tovushqatori.



Eron setori navozandaning tabiiy tirnog'i vositasida ijro etiladi. Bu tabiiy an'ana Buxoro tanbur cholg'uchi sozandalarda ham bo'lib, tanbur sozandalarning "tabiiy" tirnog'i vositasida ijro etilgan.

Badaxshon setori – asosan Tojikistonning tog'li Badaxshon viloyatida musiqa ijrochiligida qo'llanilib uning an'anaviy nusxalari besh torli o'n to'rt pardali zamonaviylari esa to'qqiz, o'n bir, o'n to'rt, torli va o'n sakkiz, yigirma bir pardali. Setor tayyorlovchi ustolardan Usto Murodali, hamda uning davomchilari- Usto Gulahmad, Usto Gulbek, Usto Masayin, Usto Xudonazar va boshqalar bo'lib, zamonaviy setorlarining kosaxona va dastasi katta hajmda bo'lganligi uchun, setorining dastasi to shaytonxarrakkacha bo'lgan masofagacha kavlab olingan. Shu bois kosaxonadan hamda dastaning ichidan to shaytonxarakkacha bo'lgan masofada musiqa sadosi yangrab turadi.

Xorux shahridagi musiqa maktabida setor sinfi bo'yicha Qal'ador Rahmatbekov, Rosht Qal'adagi musiqa maktabidagi setor sinfida Landaur Sadonshoyev ustozlik qilishadi.

Eng yetuk setornavoz ustolar- Mamadyoqub Mamadyusupov, (Shug'non), Mohjon Nazardodova (Rushon), Usto Gulbek va Musavvar Munakov (Shujand), Navro'zshoh Qurbonhuseynov, Shotemir Qosim, Muhammad Ato Tavalloev, Murodbek Ramazonov, Qal'ador Rahmatbekov (Xorux), Usto Masayin (Andarob), Shonbek Bachchabekov (Banj), Gulbek Saodatov, Iqbol Zavqibekov, Imomnazar Sohobnazarov (Dushanbe) va hokazo.


Eng yetuk setornavozlardan Ustoz Muhammad Ato Tavalloyev Umumjahon, O'rta Osiyo, Samarqand shaharlarida o'tgazilgan musiqiy anjumanlarda, hamda ko'pgina xorijiy mamlakatlardan Arab mamlakatlarida, Hindiston, Eron, Afg'oniston, Yaponiya, Germaniya, Tayland va boshqa davlatlarda o'z kontsert dasturi orqali Badaxshon setorining ijrolarini namoyish etgan. Badaxshon setorida asosan, Badaxshonda mavjud "Dargilik", "Lalayik", "Duduvik", (Du-du-yak), "Falak", "Talqin", "Pok" va boshqa musiqiy asarlarining cholg'u va ashula yo'li ijrolari ijro etiladi.

Setornavoz Muhammad Ato Tavalloyevning setorini sozlanishi va tovush qatori.



Buyuk setornavoz, birqancha umumjahon musiqiy anjumanlar ishtirokchisi Tojikiston Xalq Artisti Muhammadato Tavalloyev bilan musiqiy suhbat .Badaxshon viloyati . Xorog shahri. 1988 yil.

Sozlanishi.



Tovushqatori.




Uyg'ur satari yoki satasi (setori). Uyg'ur maqom asarlarini ijrosida qo'llaniladi. Sharq halqlari musiqa ijrosidagida 18 asrgacha "12 Maqom" asarlarini ijro etilib, keyin esa bu maqom asarlarini o'rniga boshqa maqom nomlari bilan ataluvchi asarlar paydo bo'ldi. Lekin Uyg'ur halqida to hozirgi kungacha "12 Maqom" nomi bilan ataluvchi asarlar ijro etilib bu asarlarni ijrosida esa "Uyg'ur tanburi" ,"Uyg'ur satari " asosiy musiqa cholg'usi hisoblanadi. Uyg'ur satari O'rta Osiyoning O'zbekiston, Tojikiston, Qozog'iston va Qirg'izistonning uyg'urlar yashaydigan mahallalarida uchraydi. Uyg'ur satari Buxoroda,

Samarqandda, Toshkentda bo'lgan, keyingi yillarda O'zbekiston radiosi va televideniyesi qoshidagi Uyg'ur ansabli sozandlari ijrosida ijrochilikka qo'llaniladi. O'zbekistonning «Sato» nomli musiqa cholg'usining nomlanishi, ijro uslublari ham Uyg'ur satolarining (satar) ijrochiligidan olingan. Uyg'ur satarini va tanburini sozlanishi bir-biriga yaqin. Satarini kamon vositasidagi ijrosini ham tanburchi ijro etadi. Uyg'ur satarida 8 tadan 12 tagacha qo'shimcha sado beruvchi torlar hamda 16 ta asosiy 3-4 ta qo'shimcha pardalar mavjud. Birinchi tori Ana (ona) tor deb ataladi. 10 va 13 torli satarlar ham uchraydi. Satar Uyg'ur maqomlarning lad (tuzuk) tuzilmalariga qarab har xil sozlanadi, Masalan; re, si, do bular satarining birinchi bog'langan pardalari ochiq tori esa "sol" tovushga sozlanadi. Erkin Iso o'g'lining tanburini sozlanishi va pardalardagi tovushqatorlar.




Uyg'ur tanbur va satarnavozi Erkin Iso o'g'li bilan musiqiy suhbat. Toshkent. 1980 y.

Sozlanishi.



Tovushqatori.



Uyg'ur tanburi ham aynan satar (setor) kabi sozlanadi. Tovushqatori ham bir xil Uyg'ur satari va tanburning ustoz ijrochilari Turdi Oxun, Xudoyberdi Oxun, Musa Oxun, Erkin Iso O'g'li va hokazolar.

Chortor - musiqa cholg'usi 1920 yillarda Buxoroda va O'zbekistonning ba'zi bir hududlarida ijrochilikda qo'llanilgan. Bu musiqa cholg'ulari tanbur musiqa cholg'usining bir nusxasi bo'lib, Uyg'ur tanburi, Badaxshon setorlarining to'rt torli nusxalariga o'xshashdir. Buxoroda tanburlar uch torli bo'lganligi uchun, ularni ham tanbur ham setor deb atashgan. 1920 yillardan keyingi tayyorlangan tanburlarga yana bitta tor ko'paytirilgan va natijada hozirgi kundagi O'rta Osiyo O'zbekiston va Tojikiston musiqa ijrochiligida qo'llanilayotgan tanburlarni to'rt torli bo'lganligi uchun bu tanburlarni ham chortor deb atash mumkin.

Panjtor - bu musiqa cholg'usi ham tanbur oilasiga mansub bo'lib, keyingi yillarda ba'zi xalq ustolari tomonidan tayorlangan tanbur satolar ham besh torli, bularni ham panjtor deb atash mumkin. Lekin Tojikistonning Qal'ayi Xum mahalgochi Janubiy Buxoro deb ham nomlangan bo'lib, panjtor musiqa cholg'usi Buxoro tanburlariga o'xshaydi. Tanburlarda 3 yoki 4 tor bo'lsa, bunda 5 tor bo'lib, pardalar bog'langan aynan tanburga o'xshab ijro etiladi. Panjtor jo'rligida asosan Tojikiston Xalq Hofizi Aka Sharif Jo'raev «Qal'abandi», «Chorzarb» nomli musiqiy asarlarni ashula yo'li ijrolarini ijro etgan. Hozirgi kunda esa uning shogirdi Xalq Hofizi Abdullo Narziev xalq va klassik musiqa ijrochiligini panjtor jo'rligida ijro etadi.

Undan tashqari hozirgi kunda Tog'li Badaxshon Avtanom viloyatida 7, 9, 12 torli ya'ni nuhtor, duvozdahtor nomli musiqa cholg'ulari ham uchraydi.

Badaxshon tanburi (balandzukom)- Tog'li Badaxshon Avtanom viloyatining milliy musiqa cholg'ularidan biri hisoblanadi. Bu turdagi tanbur nomi bilan ataluvchi musiqa cholg'usi butun bir yog'ochdan tayyorlanadi. Faqat torlar uchun yuqori torxona, sarpanja alohida tayyorlanib o'rnatiladi. Torlar ichakdan tayyorlangan bo'lib, ularning miqdori yettita. Yetti torli musiqa cholg'usi yog'ochdan tayyorlangan «zaxmak» nomli mirzob vositasida ijro etiladi. Pardalar bog'lanmagan torlarda ochiq holatda musiqa ijro etiladi. Tanbur jo'rligida Badaxshonda mavjud, Falak, Rog, lalayik, Duduvik va boshqa xalq kuylarining ashula yo'li ijrolari ijro etiladi. Badaxshon sozandasi,

musiqa maktabining o'qituvchisi Rahmatbek Qal'andarovning tanburini sozlanishi.



Badaxshon musiqa cholg'usi Baland zukom yoki Badaxshon tanburi navozandasi.




Afg'on tanburi 1990 yilda Dushanbeda o'tkazilgan musiqiy anjumanlar Afg'on tanburnavozi Abdulmajit Abdulhamit bilan uchrashib, Afg'on tanburining tarixi, tayyorlanishi, sozlanishi parda tuzilishi va ijrochiligi haqida suhbat qilindi. Tanburda oltita asosiy va o'nbitta qo'shimcha torlari bor .

Sozlanishi.



Tovushqatori.





Badaxshon tanburining sozlanishi

Sozlanishi.

Afg'on tanburi.



Tovushqatori.



Afg'on tanburini sozlanishi va tovush qatori



Badaxshon hududida mavjud setorlarning turli xil nusxalari.



Badaxshon setori , tanburi , Pomur rubobi va panjtor musiqa cholg'ulari.




Badaxshon setorining etuk ijrochisi Tojikiston Xalq Hofizi Navro'zshoh Qurbonhuseynov.



Badaxshon musiqa merosini bilimdoni
va
ijrochisi Tojikiston Xalq Hofizi
Mohjon
Nazardodova. Badaxshon. Rushon
qishlog'i. 1987 yil.



Panjtor musiqa cholg'usini ijrochisi
Tojikiston Xalq Hofizi Abdullo
Nazriyev.
Badaxshon . Qal'ayi Xum. 1987 yil.



Badaxshon , Hind , Eron setorlari.



Dilrabo musiqa cholg'usi va uning ijrochisi.
Dushanbe .1989 yil.

DUTOR MUSIQA CHOLG'USI.

Dutor ham tanbur oilasiga mansub musiqa cholg'ularidan hisoblanadi. Chunki tanburning dastlabki nusxalari ikki torli bo'lib dator deb ham atalgan. Dutorning yasash tartibi ham aynan tanburdek, faqat kosaxonasi bo'lak-bo'lak cho'blardan tayyorlanadi. Ya'ni kosaxonani tayyorlash uchun maxsus qolab (qolib) yasaladi. Torlari ikkita bo'lib, avval ipakdan, keyinchalik esa ichakdan tayyorlangan. 1920 yillarda Buxoroda 13-14 pardali datorlar bo'lib, datorlarda maqom asarlari ijro etilmasligi, xarragi past bo'lganligi uchun ijrochilarini o'z panjaralarini dator kosaxonasiga tegib ketishi, lekin dator ijrochiligida Samarqandlik ustoz Hoji Abdulaziz Rasulov dutorda mohirona ijro etganligi uchun ham uning dator chalish mahoratiga yuqori baho beriladi. (A.Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent. 1993.29 s).

Eronda tanbur nomli musiqa cholg'usi bo'lib, lekin dutorga o'xshab panja vositasida musiqiy asarlar ijro etiladi. Dutor cholg'usi O'rta Osiyo hududida uchraydi. Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston hududidagi Qoraqalpog'iston avtonom viloyatlarida bir xil dator, O'zbekiston va Tojikistonda bir xil datorlar mavjud.

O'zbekistonda esa ajoyib sado beruvchi datorlar bo'lib, bu datorlar Usto Tohir Buxoriy va Usto Usmon Toshkandiylar tomonidan tayyorlangan bo'lib, keyingi yillarda xalq ustolari Usto Faxriddin, Usto Muhammad Siddiq, Usto To'xtamurodlar tomonidan tayyorlanayotgan datorlar Usto Tohir va Usto Usmon tayyorlagan datorlardan aynan nusxa olingan. Hozirgi kunda O'zbekistonda katta dator, kichik dator, qavurg'ali dator, qozma dator kabi datorlar Buxoro, Samarqand, Farg'ona, Toshkent mahalgohlarida uchraydi. Tojikistonning Ko'lob, Qorategin, Vanj mahalgohlarida ham turli xil datorlar uchraydi. O'zbekistonning Oliy va O'rta musiqa dargohlarida Faxriddin Sodiqov, Orif Qosimov, Abdusamad Ilyosov, Boqijon Rahimjonov, Abdurahim Hamidov, Davron Baliqov, Ilyos Lutfullaev va boshqalar dator sinflari bo'yicha ustozlik qiladi.

Dutor cholg'usida ustozlar. Orif Qosimov, Mahmud Yunusov, Faxriddin Sodiqov, Sayfiddin Yo'ldoshev, Turg'un Alimatov, Abdurahim Hamidov, Malikaxon Ziyaeva va boshqalar o'zlariga xos dator ijrochiligi maktabini yaratgan mohir ustozlar hisoblanadilar.

Dutor musiqa cholg'usi ijro asariga qarab turlicha sozlanadi. Prima, kvarta, seksta, oktava ya'ni qo'shtor, qo'shsoz, tanovar, munojot, bayot, navo kabi sozlanishlar atamalari mavjud.

Sozlanishi.



Tovushqatori.



Dumbra - ham qadimiy musiqa cholg'usi hisoblanib, ko'proq xalq musiqasining cholg'u va ashula yo'liga xos musiqiy asarlari ijro etiladi. O'zbekistonda dumbra jurligida xalq baxshilari ko'pgina xalq dostonlaridan-Alpomish, Go'ro'g'li nomli davomiy turkum asarlarini, xalq termalarini va o'zlari ijod qilgan og'izaki an'ana ijro uslubiga xos asarlarni ijro etadilar. Ular xalq baxshilari, shoirlar nomlari bilan ataladi. Xorazmda, Farg'ona vodiysida, Toshkent, Samarqand, Qahsqadaryo va Surxandaryoda, Qoraqalpoq avtonom viloyatida o'ziga xos baxshichilik ijro maktablari mavjud. O'zbekiston hududida uzoq yillar davomida xalq baxshilari o'z asarlarini faqat dumbra jo'rligida ijro etishgan bo'lsa, keyingi yillarda Xorazm baxshilari tor cholg'usi, Qoraqalpoq baxshilari qubuz cholg'usi jo'rligida, boshqa viloyatlarda esa dumbra jo'rligida ijro etish an'analari saqlanib qolgan. Xorazm baxshichiligi ijro yo'lida-Bola baxshi, Ro'zimbek Murodov, Samarqand baxshichiligi ijro yo'lida – Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil yo'ldosh o'g'li, Islom shoir, Qashqadaryoda esa Qodir baxshi va Surxondaryo baxshilari hamda boshqalar shular jumlasidan bo'lib, termalar, xalq og'zaki an'ana ijrosiga xos musiqiy asarlarni, xalq dostonlarini dumbra jo'rligida ijro etadilar. Undan tashqari yuqoridagi musiqiy asarlarni o'zbek va tojik tillaridagi ijrolari mavjud.

Tojikistonning Ko'lob, Qorategin, Dorvoz, Qal'ayi Xum, Badaxshon viloyatlarida dumbra musiqa cholg'usida "Falak" deb nomlanuvchi musiqiy asarlarni cholg'u va ashula yo'li ijrolari ijro

etiladi. “Falak” nomli musiqiy asarlarni ijrosida dumbra musiqa cholg’usiga, Jig’ak (g’ijjak), tablak kabi musiqa cholg’ulari jo’r bo’ladi. Dumbra asosan ikki torli bo’lib, tut, archa, terak va boshqa daraxtlardan tayyorlanadi.



O’zbekiston Xalq hofizi bastakor Xoji Abdulaziz Rasulov. Dutor va tanbur musiqa cholg’ularining etuk ijrochisi. Samarqand shahri.



Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansamblining buyuk dutor cholg’uchi sozandasi O’zbekiston Xalq artisti Orif Qosimov.



Yunus Rajabiy nomidagi maqom
ansamblining dutor cholg'uchi sozandasi
Malikaxon Ziyaeva.



Dutor cholg'uchi sozanda O'zbekistonda
Xizmat ko'rsatgan artist Mahmud Yunusov
bilan musiqiy suhbat.



Dombra musiqa cholg'usi.



Xalq baxshilaridan Bo'ron baxshi .

CHANG MUSIQA CHOLG'USI.

Chang musiqa cholg'usi tanburning o'ttiz ikki pardasidan olinib ixtiro qilingan. Ba'zi rivoyatlarda guyo Arastun (Arestotel) Hakim Zuhro yulduziga qiyos qilib ixtiro qilgan deyiladi. (Nag'mai niyogon. Tahqiq va tahiya A. Rajabov. Dushanbe. Adib, 1988. 124 s.).

Undan tashqari Abdulqodir Marig'iy o'zining "Maqosid ul alhon" ("Kuylar maqsadlari") kitobida chang musiqa cholg'usini yuziga teri tortilgan unga 24 ta tor ikki tomoniga ip bilan bog'lab quyilgan" degan ma'lumot berilgan bo'lib, noxun (tirnoq) vositasida ijro etilgan. Egri chang musiqa cholg'usining bir turi bu cholg'uning yuz qismiga

teri emas bal'ki yog'och qoplangan. Torlari ip bilan emas cho'plar vositasida berkitib qo'yilgan.

Hozirgi kunda O'zbekiston hududida musiqa ijrochiligida qo'llanilayotgan "Chang" nomli musiqa cholg'usi Sharq va boshqa xalqlarning milliy musiqa ijrochiligida turli xil nomlanishlarga ega. Belarusiya, Ukrainadagi - simbala, Uyg'ur xalqlaridagi - chang, Erondagi-santurlar, O'zbekistondagi - "Chang" musiqa cholg'usiga o'xshash. Ko'pgina musiqiy risolalarda zikr etilgan "Chang" cholg'usi hamda XVI asrlarda yashagan Darvesh Ali Changiy ijro etgan "Chang" nomli musiqa cholg'usi tamoman boshqa ko'rinishda bo'lib, hozirgi kunda musiqa ijrochiligida qo'llanilayotgan "Arfa" musiqa cholg'usining aynan o'zidir.

Chang so'zi sozandaning o'ng va chap qo'llari bilan changga panjalar orqali "Chang solish" vositasida musiqa ijro etish ma'nolarini anglatadi. Qadimiy "Chang" musiqa cholg'usi "Arfa"ga o'xshash bo'lib, Sharq xalqlari milliy musiqa ijrochiligida qo'llanib kelingan. Bu turdagi chang Ozarbayjon musiqa cholg'ulariga bag'ishlangan kitobda berilgan. (С. Абдуллаева. Народные музыкальные инструменты Азербайджана. Баку.1972.14 с.). Undan tashqari XVIII-XIX asrlarda Ozarbayjonda changga o'xshash "Nuzxa" va "Migni" nomli musiqa cholg'ulari bo'lib, ular aynan chang va qonunga o'xshash bo'lib, "Nuzxa"da 81 tor, "Migni"da 33 ta tor uch qatordan tortilgan bo'lgan va bu turdagi chang musiqa cholg'ulari navozandaning o'ng va chap qo'l barmoqlari, tabiiy tirnoqlari vositasida ijro etilgan. Hozirgi kunda O'zbekistonda "Chang" cholg'usi milliy va zamonaviy musiqa ijrochiligida keng miqyosda qo'llanilmoqda. Faxriddin Sodiqov, Fozil Xarrotov, Ahmad Odilov, Rustam Negmatov, Abdurahmon Xoltojiyevlar o'ziga xos chang ijrochiligi maktabini yaratgan ustozlar hisoblanadi. Ularning ijrochilik an'analari yosh changnavoz shogirdlari Tilash Xo'jamberdiyev, Temir Mahmudov, Anvar Lutfullayev, Fazilat Shukurova, Abdusalom Mutalov va boshqalar davom ettirmoqdalar.

Cang musiqa cholg'usining tovushqatori uch oktavadan iborat bo'lib, birinchi tovush "sol" ovozidan boshlanadi, chang ijrosi katta qamishdan yasalgan ikkita cho'bcha vositasida ijro etiladi. Chang musiqa cholg'usi to'g'irisida ko'pgina ma'lumotlarni quyidagi kitobdan olish mumkin. (Ahmad Odilov, Anvar Lutfullayev. Chang. Toshkent. 2002 y.)

Changning tovushqatorlari



Chang musiqa cholg'usi.



Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansamblining musiqiy rahbari, O'zbekiston Davlat konservatoriyasidagi "Sharq musiqasi" kafedrasining chang, dutar, ansambl siniflari bo'yicha ustoz, buyuk sozanda, bastakor O'zbekiston Xalq artisti Faxriddin Sodiqov.



O'zbekiston Davlat konservatoriyasining professori,
O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan san'at
arbobi , chang sinfi bo'yicha ustoz , etuk sozanda,
"Changchi qizlar" dastasining badiiy
rahbari Ahmad Odilov.



Ustos va shogirdlik an'analari. Professor Ahmad
Odilov o'z shogirdlari bilan.



Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti “Xalq cholg’ulari” kafedrasida chang sinfi bo’yicha ustoz , etuk sozanda, professor Rustam Negmatov.



O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasining dotsenti, “Xalq cholg’ulari” kafedrasining mudiri , chang sinfi bo’yicha ustoz Anvar Lutfullayev.



Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansamblining musiqiy rahbari, etuk chang cholg'uchi sozanda, O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Temur Mahmudov.



Qarshi Davlat San'at kollejjida chang sinfi bo'yicha ustoz, etuk sozanda Islom Rajabov.

Qarshi Davlat san'at kolleji. Chang sinfi bo'yicha ustozlar.



Haqberdi Egamberdiyev.



Anoraxon Inoyatova.

QONUN MUSIQA CHOLG'USI.

Sarq xalqlari musiqa ijrochiligining cholg'u yuli ijrosida qonun musiqa cholg'usining ham o'ziga xos o'rni bo'lib, musiqa ijrochiligida keng qullaniladi. Qonun so'zining lug'aviy manosi musiqa ilmining qonuni, tartibga keltirilishi ma'nolarni anglatadi. Zaynulobbidin Mahmudiy Husatniy o'zining "Qonunu ilmi va amalii musiqiy" ("Musiqqa ilmining amaliy va nazariy qonunlari") asarida sozlar, ovozlar, musiqiy asarlar haqida ma'lumot bergan. Qonun musiqa cholg'usi Arabiston, Eron, Turkiya, Kavkaz halqlari musiqa ijrochiligida keng qullanilib kelinmoqda. 1972 yilda O'zbekiston Davlat Konservatoriyada professor Fayzulla Karomatov rahbarligida "Sharq musiqasi" kafedrası tashkil qilinib, to hozirgi kungacha qonun sinfi bo'yicha O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan artist Abdurahmon Xoltojiyev ustozlik qilib kelmoqda. Dushanbedagi san'at institutida 1979 yilda musiqashunos Asliddin Nizomov rahbarligida "Sharq musiqasi" kafedrası tashkil qilinib, qonun sinfi bo'yicha Almasxon Abdullayev ustozlik qilib kelmoqda. Hozirgi kunda O'rta va Oliy musiqa dargohlarida qonun sinflari faoliyat ko'rsatib, uning ijrosi o'rganilmoqda. Qonunda 24 – 25 ta uch qator ichakdan tayyorlangan torlar tortilib, uning fosilasi "sol" kichik oktavadan "si" ikkinchi oktavagacha. Qonun sozandaning ikkila ko'rsatkich barmog'iga moslab tayyorlangan aylana mis va shoxdan tayyorlangan mizrob vositasida ijro etiladi.

Qonunning tovush qatori.





O'zbekiston Davlat konservatoriyasi "An'anaviy ijrochilik"
kafedrasida qonun sinfi bo'yicha ustoz, etuk sozanda,
O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan artist Abdurahmon
Xoltojiyev. Toshkent shahri. 2005 y.



Mirzo Tursunzoda nomidagi Dushanbe San'at instituti "Sharq musiqasi" kafedrasida chang va qonun sinfi bo'yicha ustoz , etuk sozanda Almosxon Abdullayev shogirdi Naimjon bilan . Qonun musiqa cholg'usi haqida suhbat.



Mullo To'ychi Toshmuhammedov nomidagi Qarshi Xalq teatirining etuk qonunnavozi Zafarjon Isoqulov. Qashi shahri . 2003 yil .

NAY MUSIQA CHOLG'USI.

Nay musiqa cholg'usi barcha sharq xalqlarida uchraydi. Ko'pgina davlatlarda nay musiqa cholg'usi yotiq holda ijro etilsa, ba'zi davlatlarda esa tik holda ijro etiladi.

Nay musiqa cholg'usining yaratilishi haqida turli xil ma'lumotlar mavjud. Ulardan birida go'yo nay temirchilarning olovini havosi orqali puflab beradigan narsasiga qiyos qilib Xorazmshoh Mavlono Safiuddin Al-Mo'min tomonidan ixtiro qilingan deyiladi. (Askarali Rajabov. Nag'mai Niyogon. Dushanbe. Irfon.1988. 124 s.).

Nay musiqa cholg'usi zardolidan, tutdan, g'arovdan, nuqra, kumush yoki misdan yasaladi. Unda yetti ovoz chiqaruvchi teshik pardalar bo'lib, bittasi alohida og'izdan nafas berish uchun, oltitasi bir joyda birin-ketin olti barmoqqa moslanib, bular asosiy sado chiqaruvchi aylana pardalar hisoblanadi.

1924 yillarda Buxoroda mavjud nay cholg'usi to'g'risida quyidagicha ma'lumotlar berilgan: "Nay qamish ma'nosida forsiycha bir so'zdir. Nay "birinj" yo "baqir"dan (kumush yoki mis) yasaladur". (Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent 1993 yil 33.s.). Ya'na bir asarda tanbur musiqa cholg'usini sozlanishida Buxoroda mavjud naylardan foydalanilganligi ya'ni mis nay-"sol", yog'och nay-"lya-bemol", g'orov nay-"lya" tovushlarini berib, asar ijrosida tanbur yuqoridagi naylardan biri – "sol", "lya-bemol" yoki "lya" tovushlariga soz qilinar ekan. (Н.Миронов. Музыка узбеков. Самарканд. 1929. 12 с.) O'zbekistonda nay musiqa cholg'usi musiqa ijrochiligida keng miqyosda qo'llaniladi. Nay sozi ijrochiligida o'ziga xos ijrochilik yo'llariga ega bo'lgan Ustozlardan – Abduqodir Ismoilov, Homidjon Jalolov, Halimjon Jo'rayev, Abdul Ahad Abdurashidov, Mirza Tohirov, Ahmadjon Sobirov, Tojikistonda esa Nison Shoulov va boshqalar shular jumlasidandir.



O'zbekiston radiosi va televideniyesi qoshidagi Doni Zokirov nomidagi xalq cholg'ulari orkestrida nay cholg'uchi sozanda , O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan artist , xonanda , bastakor Halimjon Jo'rayev.



Etuk naynavoz Rustam Odilov . Sodirxon hofiz nomidagi musiqa bilim yurtida nay sinfi bo'yicha ustoz . Xo'jand shahri . 1988 yil.



Buyuk naynavoz Tojikiston Xalq artisti .
Nison SHoulov.



Buyuk naynavoz Qurbonali Yoqubov. Malika Sobirova nomidagi musiqa
maktabida nay sinfi bo'yicha ustoz .Dushanbe shahri .1988 yil.

QO'SHNAY MUSIQA CHOLG'USI.

Qo'shnay asosan ikkita qamishdan yasalgan musiqa cholg'usi bo'lib, avvallari faqat xalq orasida ijro etilib kelingan. Keyingi yillarda esa bu musiqa cholg'usining ijrosi ko'pgina musiqa dargohlarida ham o'rganilmoqda va musiqa ijrochiligida keng miqyosda qo'llanilmoqda. Qamish naychani yuqori tomoni berkitilgan, pastgi tomoni esa ochiq. Yuqori qismida maxsus tilchak ochilib, nafas orqali puflab ijro etishga mo'ljallangan va yettita sado chiqaruvchi parda teshiklari mavjud. O'zbekistonda keksa qo'shnay cholg'uchi ustozlardan keng tanilgan Ahmadjon Umurzoqov, Xorazmda esa Qurbonboy og'a Otajonovlar bo'lib, hozirgi kunda ushbu ustozlar an'alarini Yo'ldoshali Tojiyev, Matrasul Matyoqubov (Xorazm), Mirzasharif Mirbarotov (Toshkent), Nasriddin Aliyev (Buxoro), Otajon Matjonov (Qashqadaryo) va boshqalar davom ettirmoqdalar.

Qo'shnayning tovush qatori.



Q o'shnay musiqa cholg'usi.




O'zbekiston radiosi va televideniyesi qoshidagi Doni Zokirov nomidagi Xalq cholg'ulari orkestrining ustoz qoshnay cholg'uchi navozandasi Mirzasharif Mirbarotov.



Xorazimdagi Matyusuf Xarratov nomidagi san'at kollejida qo'shnay sinfi bo'yicha ustoz maqom tanlovlarining sovrindori , respublika , O'rta osiyo , umumjahon miqiyosidagi musiqiy anjumanlarning ishtirokchisi va g'olibi buyuk qo'shnaynavoz Matrasul Matyoqubov.



Buyuk qoshnaynavoz
Yo'ldoshali Tojiyev.
Xorazm. 1978 y.



Buyuk qoshnaynavoz
Nasriddin Aliyev.
Buxoro. 1977 y.



Qarshi davlat san'at bilim yurtida
qoshnay sinfi bo'yicha ustoz Otajon Matjonov.


SURNAY MUSIQA CHOLG'USI.

Surnay musiqa cholg'usi ham o'z murakkabligi bilan ijrochidan ulkan mahoratni talab qiluvchi cholg'u hisoblanadi. Surnayning turli xil nusxalari mavjud. Farg'ona, Toshkent, Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo va boshqa joylarda katta nusxadagi surnay, Xorazmda esa kichikroq shaklli tuzilishidan ham farq qiluvchi surnay cholg'ulari bor. Surnay asosan tut, zardoli daraxtlaridan tayyorlanadi. Surnayda quyidagi nomlanishdagi tuzilmalar mavjud. Surnayning tana qismi, boshlanish tomoni kichikroq doyra shaklda, quyi tomoni esa kattaroq aylana shaklda. Uning ijrosi uchun esa misdan kichik naysimon nusxa nil tayyorlanib, surnayning yuqori qismiga joylashtiriladi. Bunga nafasdan to'g'ri foydalanish maqsadida ebonit yoki daraxtdan aylana shakldagi "Peshdam" nomli narsa tayyorlab o'rnatiladi. Uning yuqorisiga esa qamishdan tayyorlangan kichik naycha yasab o'rnatiladi. Naychani holatini yaxshi saqlash maqsadida, misdan nil cho'p yasaladi va naycha tozalanib turiladi. Surnayni ustki qismida yettita sado beruvchi aylana parda teshigi bor.


Surnay xalq sozandalari tomonidan ikki xil uslubda ijro etiladi. Musiqiy asar ijrosi jarayonida, shu asarni nafas qaytarish yo'li bilan, uzluksiz bir nafasda ijro etish, har bir musiqa parchalarini ijrosidan keyin nafas olib ijro etish yo'llari mavjud. Surnayda turli xil turdagi musiqiy asarlari ijro etilgan. "Surnay navosi", "Shodiyona" va hokazo. Eng yetuk surnaychi sozandalar Ahmadjon Umirzoqov, Tursun Jumayev, Qurbonboy ota Otajonov hozirgi kunda esa bu ustozlar an'alarini ularning davomchi shogirdlari; Yo'ldoshali To'jiyev, Matrasul Matyoqubov, Toshpo'lot Ahmedov, Otajon Matjonov va boshqalar davom ettirmoqdalar.

Surnayning tovush qatori.





Surnay musiqa cholg'usi .



Buyuk sunray cholg'uchi
sozanda Tursun
Jumayev.
Qashqadaryo viloyati ,
Kojor qishlog'i.



Surnay cholg'uchi sozanda ustoz
Mirzafayoz
. Farg'ona vodiysi.

KARNAY MUSIQA CHOLG'USI.

Karnay katta hajmdagi misdan, kumushdan yasalgan musiqa cholg'usidir. Karnay uch qismdan iborat bo'lib, musiqa cholg'ulari orasida eng baland va pastgi oktavalarda eng kuchli bas tovushli sado beruvchi musiqa cholg'usi hisoblanadi. Albatta karnay asosan surnay, doyra yoki nag'ora jo'rligida ijro etiladi.

O'zbekiston hududida hozirgi kunda Qoraqolpog'istonda Qubuz, Xorazmda Bulamon (Bolabon) nomli musiqa cholg'usi ijrochilikda qo'llaniladi, undan tashqari chang qobuz cholg'usini asosan xotin-qizlar nafas va ko'rsatgich barmoq vositasida ijro etishadi. Safoil, qayroq, qoshiq kabi cholg'ular ham hozirgi kunda fol'klor an'sambillari ijrolarida qo'llaniladi.



Karnay musiqa cholg'usi.

G'IJJAK MUSIQA CHOLG'USI.

G'ijjak musiqa cholg'usi haqida turli man'balarda har xil ma'lumotlar berilgan. G'ijjaklar dastlab bir torli, keyin ikki va uch torli hozirgi kunda esa to'rt torlidir. Ozarbayjon musiqashunos olimasi Saodat Abdullayeva o'zining "Музыкальные инструменты Азербайджана". Баку. 1972. Bu kitobining 16 va 17 sahifalarida «Kemancha» va unga oiladosh «chegane» musiqa cholg'ulari haqida ma'lumot bergan. Fayzullo Karomatov o'zining musiqa cholg'ulari haqida yozgan kitobida "Boburnoma" asari haqida ma'lumot berib, bu asarda Muhammad Udiy g'ijjakka uchinchi torni toqqanligi haqida ma'lumot beradi. (Ф.Кароматов. Узбекская инструментальная музыка. Ташкент. 1972. 110 s.).

O'zbekistonda g'ijjak va qubuz, Eron va Kavkaz xalqlarida "kemancha" nomlari bilan va unga oiladosh Hindiston, Pokiston, Afg'onistonda "dilrabo", Tojikistonning Ko'lob, Tog'li Badaxshon Avtonom viloyatida "jig'ak" (g'ijjak) musiqa cholg'ulari mavjud. 1937 yilda Moskva shahrida o'tkaziladigan o'zbeklarning birinchi dekadasiga bag'ishlab Ozbekistonda juda ko'p milliy musiqa cholg'ulari xalq ustasi O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan San'at arbobi Usto Usmon Zufarov tomonidan qayta tayyorlanib, jumladan uch torli tanbur va g'ijjaklarga yana bir tor taqilib, ular to'rt torli bo'lgan.

Hozirgi kunda to'rt torli g'ijjaklar musiqiy ta'lim dargohlarida ijrochiligida qo'llanilmoqda. G'ijjaklarning to'rt torini birinchisi kichik oktava "sol" ikkinchi va uchinchisi birinchi oktava "re" va "lya", to'rtinchi tori esa ikkinchi oktava "mi" tovushlariga sozlanadi. G'ijjak ijrosi uchun esa ot dumi dagi tabiiy va maxsus tayyorlangan sun'iy oppoq qil torlaridan "komon" tayyorlanadi. Milliy musiqa ijrochiligida g'ijjak o'ziga xos ijrochilik maktabiga ega bo'lib, buyuk ustozlardan-Imomjon Ikromov, Salohiddin To'xtasinov, G'ulomjon Hojiqulov, Ilhom To'rayev, G'anijon Toshmatov, Doni Zokirov, Mahmudjon Muhammedovlar hamda ularning davomchilari- Abduhoshim Ismoilov, O'lmasjon Rasulov, Ziyovuddin Andijoniy, Ahmadjon Dadaev, Salohiddin Azizboyev, Qahramon Komilov, Shuhrat Yo'ldoshevlar, Qashqadaryodan Bo'ronxon Muqimov, A'zam Rajabov, Salohiddin A'zamov, Nishonboy Avazov, Ravshan Muhammadiyev, Dilshod Mengishyev, Jumanazar Ibrogimov va boshqalarning ustodona ijrolari tahsinga loyiqdir.


O'zbekiston Davlat konservatoriyasida g'ijjak sinfi bo'yicha professor Murod Toshmuhammedov ustozlik qiladi. Bu ustoz tomonidan g'ijjak musiqa cholg'usini an'anviy va zamonaviy ijrolariga xos ko'pgina darslik va o'quv-uslubiy qo'llanmalar tayyorlanib, nashr ettirilgan va o'quv jarayonida keng miqyosda qo'llaniladi.




O'zbekiston Davlat konservatoriyasining professori Murod Toshmuhammedov

Keyingi yillarda zamonaviy musiqa ya'ni orkestr ijrolariga moslab ko'pgina musiqa cholg'ulari jumladan g'ijjak oilasiga mansub g'ijjak bir, g'ijjak alt, g'ijjak bas, g'ijjak kontrabas nomi bilan ataluvchi musiqa cholg'ulari tayyorlangan. Komonli cholg'ular xalq cholg'ulari orkestri, simfonik orkestr jamoalarida ham amalan ishlatilmoqda. Qoraqolpog'stonda esa qubuz cholg'usi ijrochilikda qo'llanilmoqda.

Sozlanishi.



Tovushqatori.





G'ijjak musiqa cholg'usi va uning ijrosi uchun tayorlangan komon.



O'zbekiston Davlat konservatoriyasining professori ,
g'ijjak sinfi bo'yicha
ustoz Murod Toshmammedov.



Maqom ansamblining sozandasi Ilhom To'raev.



Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansamblining badiiy rahbari , O'zbekiston Xalq artisti , buyuk g'ijjak cholg'uchi sozanda , bastakor Abduhoshim Ismoilov.



Mullo To'ychi Toshmuhammedov nomidagi teatirning musiqa rahbari , Qarshi Davlat madaniyat kollejining katta o'qituvchisi , etuk g'ijjak cholg'uchi sozanda Bo'ronxon Muqimov .



Buyuk sozanda g'ijaknavoz O'zbekiston Xalq
artisti O'lmasjon Rasulov .
Toshkent shahri 1979 yil.



Mullo To'ychi Toshmuhammedov
nomidagi teatirning etuk g'ijak cholg'uchi
sozandasi Salohiddin Rajabov.



Qarshi Davlat san'at kollejining katta o'qtuvchisi, etuk sozanda, g'ijjak sinfi bo'yicha ustoz Ravshan Muhammadiev.



Qarshi Davlat universitetining "Musiqqa" kafedrasida g'ijjak sinfi bo'yicha ustoz Qo'ldosh Qurbonov.



Ustoz va shogird tizimi Dilshod Mengishev va Akrom Sattorov.

QASHQAR RUBOBI.

Rubob musiqa cholg'usi ko'pgina Sharq xalqlari musiqa ijrochiligida qo'llaniladi. Rubob musiqa cholg'usining turli xil nusxalari Arab mamlakatlarida, Xitoyning Qoshg'ar mahalgohida, Hindiston, Pokiston, Afg'oniston hamda O'rta Osiyoning ko'pgina mahalgohlarida, Tog'li Badaxshon Avtanom viloyatida musiqa ijrochiligida qo'llanilmoqda. Rubob musiqa cholg'usining yaratilishi borasida turli xil ma'lumotlar mavjud. Go'yo rubob Muhammad Xorazmshoh davrida yaratilganligi haqida muallifi noma'lum musiqiy risolada ma'lumot berilgan. Lekin bu ma'lumot to'g'risida Abdurauf Fitrat o'z kitobida quyidagi fikrni bildiradi: Bu yigirmanchi yillarda Hindistondan keltirilgan "Sorang" ismli bir cholg'uning rubobga juda o'xshashligi meni shoshirgon edi. So'ngra qo'limg'a tushgan Darvesh Aliyning "Risolaiy musiqiy" asarida bu chol'g'uning Balxda yasalg'oni, Muhammad Xorazmshoh zamonida Xorazmda rivoj topgani ko'rsatiladur". (Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent 1993. 29 s.) Lekin bu berilgan ma'lumot hozirgi kunda O'zbekiston hududida mavjud Qoshqar rubobi haqida emas bal'ki Afg'on yoki Badaxshon rubobiga o'xshash rubob to'g'irisidagi ma'lumotdir.

Hozirgi kunda O'zbekistonda Qashqar rubobi va Afg'on rubobi, Tojikistonda esa Qoshg'ar rubobi, Badaxshon rubobi, Pomir rubobi, Qumri (katta rubob) kabi rubob cholg'ulari mavjud.

O'zbekistonda Qoshqar rubobi 1937 yillardan boshlab qo'llanila boshlagan. Bu borada rubob musiqa cholg'usining eng yetuk mutrib sozandasi O'zbekiston Xalq Artisti ustoz Muhammadjon Mirzayev bilan suhbat shuni ko'rsatadiki, Toshkentda dastlab bir uyg'ur sozandasi bu cholg'uni ijro etib yurgan. Muhammadjon Mirzayev bu rubobni ko'rib undan nusxa olish maqsadida O'zbekistonda Xizmat Ko'rsatgan San'at Arbobi xalq ustasi Usto Usmon Zufarov ustaxonasiga boradi. Aynan shu 1937 yilda O'zbekistonning Moskva shahrida bo'ladigan birinchi dekadasiga tayyorgarlik ko'rib, turli xil musiqa cholg'ulari ham tayyorlanayotgan edi. Shu yili Usto Usmon Muhammadjon Mirzayevga o'zi olib kelgan Uyg'ur rubobidan aynan nusxa olib bir necha rubob tayyorlaydi va birinchi tayyorlangan Qoshg'ar rubobi Muhammadjon Mirzayevga taqdim etiladi. Ma'lumki bu turdagi rubob aynan tanbur singari bo'lib, bunda pardalar bog'langan, sozlanishi ham aynan tanbur singari bo'lgan. Faqat bu yangi tayyorlangan rubobda bog'langan pardalar o'rniga, po'latdan yasalgan pardalar o'rnatiladi. Sozlanishi

avvalgidek kvinta ya'ni lya, re, lya ovozlariga. Bu turdagi sozlanish rubobning an'anaviy sozlanishi, keyingi yillarda qayta tayyorlangan rubobning sozlanishi lya, mi, lya kvarta ovozlariga, lekin to hozirgi kungacha Muhammadjon Mirzayev va ustozning farzandlari Shavkat Mirzayev an'anaviy sozlanishda behisob musiqiy asarlarni bastalab, cho'lg'u va ashula yo'li uslubida hamda jo'rvoqlik ijro yo'lida ikki rubob jo'rligida ijro etib kelishmoqda. 1937 yilda yana ushbu rubobdan nusxalar olinib, rubobda, Abbos Bahromov, Bo'riboy Mirzaahmedov, Ergash Shukurillayevlar ham ushbu sozda chalish sirlarini o'rgana boshlaganlar.

Ma'lumki Qoshg'ar rubobini dastlabki ijrosi, bu cholg'uni o'zbek milliy musiqa ijrochiligida ommalashib ketishiga, keyingi yillarda Qoshg'ar rubobining o'ziga xos ijrochilik maktabini yaratgan buyuk Ustoz Muhammadjon Mirzayevning xizmatlari buyukdir. Qoshg'ar rubobida o'nlab musiqiy asarlar bastalanib, "bam" va "zir" (zil) ijrosiga xos ikki rubobda Muhammadjon Mirzayev va Ustoz Shavkat Mirzayevlar ijro etgan musiqiy asarlar behisobdir. "Bahor val'si", "Zavqim kelur", "Dil kuyi", "Gulbahor va Tanovat" va boshqalar shular jumlasidandir. Uzoq yillar Qoshg'ar rubobida maxsus bastalangan, xalq kuylari, maqom asarlaridan namunalar ijro etib kelindi. Keyingi yillarda Ustoz sozanda O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan Artist Shavkat Mirzayev rubobda o'ziga xos maqom asarlari ijrochiligi maktabini yaratib, rubob musiqa cholg'usini o'z shogirdi O'zbekiston Xalq Artistkasi Munojotxon Yo'lchiyeva ijrosidagi asarlar bilan O'zbekiston, O'rta Osiyo va ko'pgina Xorijiy mamlakatlardagi yirik musiqiy anjumanlarda namoyish etmoqda.

Hozirgi kunda rubob musiqa cholg'usini mohir ijrochilari Shavkat Mirzayev, Qobil Usmonov, Ari Boboxonov, Tohir Rajabov, Adham Xudoyqulov, Rifatilla Qosimov, Davron Ziyodov va boshqalar Ustoz Muhammadjon Mirzayev ijrochilik maktabining davomchilari hisoblanadi.



Rubob ijrochilik maktabini yaratgan ustozlar , buyuk sozandalar, bastakorlar, O'zbekiston Xalq artisti Muhammadjon Mirzoyev va farzandlari maqom asarlarning etuk bilimdoni O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan artist Shavkat Mirzoyev.

Sozlanishi.



Tovushqatori.






O'zbekiston Davlat konservatoriyasining professori,
“An’anaviy ijrochilik” kafedrasining mudiri ,
rubob va ud sinflari bo’yicha ustoz ,
Rifatullo Qosimov .



Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetidagi “Musiq faqulteti”ning dekani,
rubob sinfi bo’yicha ustoz , Pedagogika fanlari doktori, professor Hamidulla Nurmatov
mashg’ulot jarayonida.



Qarshi davlat San'at kolleji "CHolg'u ijrochiligi" bo'limida rubob sinfi bo'yicha ustoz, etuk sozanda, cholg'u ijrochiligi tanlovlarining g'olibi, bastakor Ravshan Ziyodov.



Qarshi Davlat Universitetining dotsenti, rubob sinfi bo'yicha ustoz, etuk sozanda, bastakor Abdujabbor Rahmonqulov.

AFG'ON RUBOBI.

Afg'on rubobi O'zbek milliy musiqa ijrochiligida asosan Buxoroda qo'llaniladi. Abdurauf Fitrat "Rubob" deb bu cholg'u to'g'irisida ma'lumot bergan. Lekin bu ma'lumot Qoshg'ar rubobi haqidami yoki Afg'on rubobi haqida ekanligi faqat berilgan ma'lumotnomadek izoh orqali tushunib yetish mumkin. Chunki rubob sozining torlarini miqdori, tuzilishi albatta Afg'on rubobi haqidagi ma'lumotlar. Bu turdagi rubob Hindistonda, Pokistonda hamda Badaxshon viloyatida turlicha nomlanishlarda uchraydi. Ma'lumki Afg'on rubobi Badaxshon viloyatining ba'zi mahalgohlari Afg'oniston hududida, ba'zilari Tojikiston hududida mavjud. Shu bois bu rubob sozi Badaxshonda "Badaxshon rubobi", Afg'onistonda "Afg'on rubobi" deb ataladi.

Badaxshon rubobini kosaxona va dasta tuzilishi bir bo'lak yog'ochdan tayyorlanadi. Torlar o'rnashgan joy "Sarpanja" nomli bo'lagi alohida tayyorlanib birlashtiriladi. Unda asosan beshta ichakdan tayyorlangan torlari bo'lib, ular turli xil yo'g'onlikda. Undan tashqari oq po'latdan tayyorlangan o'nikkita simli torlari ya'ni qo'shimcha sado beruvchi torlari dastasining orqa yon qismida o'rnatilgan.

Bu musiqa cholg'usining ijrosi ham o'zbek milliy cholg'ulari qatori barcha musiqa dargohlaridagi rubob sinflarida o'rgatiladi. Dastlabki ijrolari Ergash Shukurullayev, hozirgi kunda Buxorodagi Muxtor Ashrafiy nomidagi musiqa bilim yurtida va Oliyaxon Sultonova rahbarligidagi "Sitorai Mohixosa" nomli fol'klor an'sambilining sozandasi To'ra Jo'rayev Afg'on rubobini ijrochisidir. Toshkent Davlat Konservatoriyasida esa Afg'on rubobi sinfi bo'yicha dotsent G'ulomqodir Ergashyev ustozlik qiladi. Sozlanishi aynan Qoshg'ar rubobiga o'xshash.

Afg'on rubobining sozlanish.

Sozlanishi.



Tovushqatori.





Muhtor Ashrafiy nomidagi Buxoro San'at kolleji "An'anaviy ijrochilik" bo'limining etuk ustozlaridan hamda Buxoro shahridagi "Sitorayi Mohixosa" folklor dastasining Afg'on rubobi navozandasi To'ra Jo'rayev . Buxoro shahri. 1988 yil.

TOR MUSIQA CHOLG'USI.

Tor musiqa cholg'usi asosan Turkiyada, Eron "Dastgoh"lari, Kavkaz xalqlarining "Mugam" asarlari, umuman milliy musiqa ijrochiligida keng miqyosda qo'llaniladi. Tor so'zi, ya'ni musiqa cholg'ulariga taqaladigan tor bo'lib, bu cholg'uning nomlanishi ushbu atamadan olingan. Tor musiqa cholg'usining Eron va Ozarbayjonda tayyorlangan nusxalarida aynan Eron setori singari pardalar joylashuvi bir ton, yarim ton, chorak tonli pardalardan (rubh' parda) iborat.

Keyingi yillarda O'zbekistonda aniqrog'i Xorazm viloyatida milliy musiqa ijrochiligini cho'lg'u va ashula yo'li ijrosida qo'llanilmoqda. Ma'lumki O'zbekistonda 1960 yillargacha hofiz-xonandalar Qoshg'ar rubobi jo'rligida ashula yo'liga xos asarlarni ijro etishgan. Dastlab tor musiqa cholg'usi jo'rligida Xorazmda Bola baxshi keyin esa O'zbekiston Xalq Artisti Komiljon Otaniyozov Xorazm maqomlari, xalq kuylari va o'zi bastalagan musiqiy asarlarni ashula yo'li ijrolarini ijro etgan. Shundan so'ng hozirgi kunda deyarli O'rta Osiyoda ko'pgina hofiz-xonandalar "Tor" cholg'usi jo'rligida ashula yo'liga xos musiqiy asarlarni ijro etishadi. Lekin Turkiya, Eron, Kavkaz xalqlarida to hozirgi kunga qadar "Tor" cholg'usi an'anaviy musiqa ijrochiligining cholg'u va ashula yo'li ijrolarida asosiy musiqa cholg'usi hisoblanadi. Torning sozlanishi va fosilasi "do" kichik oktavadan "sol" yoki "lya" ikkinchi oktavagacha.

Sozlanishi.



Tovushqatori.





O'zbekiston va Turkmaniston Xalq artisti Komiljon Otaniyozov.



Buyuk hofiz - xonanda, bastakor Xorazm maqomlarining bilimdoni va notaga oluvchi ustoz Matniyoz Yusupov.



O'zbekiston Xalq artisti Sherali Jo'rayev.



Tojikiston Xalq artisti Jo'rabek Murodov.



Inoyat Qodiriy , xonanda , sozanda, shoir va xalq ustasi.. Qrshi shahridagi folklor dastasining rahbari.Qo'lida o'zi tayyorlagan tor musiqa cholg'usi.

SOZ - MUSIQA CHOLG'USI.

Musiqa ijrochiligida SOZ - so'zi uch xil ma'noda qo'llaniladi. SOZ - bu musiqa cholg'usi. SOZ - bu musiqa cholg'ularini va boshqa biror narsani yasash va yoki ta'mirlash. SOZ - bu musiqa cholg'ularini sozlash.

SOZ - musiqa cholg'usida asosan Turkiya, Eron va Kavkaz xalqlarining musiqa ijrochiligida hofiz xonandalar soz jo'rligida klassik an'anaviy musiqa ijrochiligini ashula yo'lga xos asarlarni ijro etishadi. Saodat Abdullaeva Ozarbayjonda mavjud soz musiqa cholg'usi haqida, quyidagi ma'lumotlarni beradi. Soz musiqa cholg'usi O'rta asrlarda Ozarbayjonning ko'p mahalgohlarida ijrochilikda keng miqyosda qo'llanilgan musiqa cholg'usi bo'lib, Ozarbayjon shoirlari va yozuvchilari Haqoniy, Shirvoniy o'z she'rida, Nizomiy Ganjaviy "Iqbolnoma" asarida, Fuzuliy "Layli va Majnun" poemasida soz musiqa cholg'usining o'sha davrdagi o'rni, yoqimli sadosi hamda ikki torli soz musiqa cholg'usi bo'lganligi haqida ma'lumot beradilar. Ayniqsa XVII asrlarda Ozarboyjonda juda keng miqyosda tarqalgan bo'lib, hofiz-

xonandalar (ashulachilar) soz jo'rligida ashula yo'liga xos musiqiy asarlarni ijro etishgan.

Zamonaviy sozlar- (tanovar sozi) katta soz uning uzunligi 1200 mm; O'rta soz 800 mm; (jo'r soz) kichik soz 540 mm. bo'lib, bularda torlarning miqdori to'rttdan to'qqiztagacha, bog'langan pardalari 10 dan 14 tagacha, ba'zilarida esa 17-18 tagacha pardalar bo'lib, noxun, zaxma (tezene) vositasida ijro etiladi.

SOZ musiqa cholg'usining fosilasi "do" kichik oktavadan "sol" yoki "lya" ikkinchi oktavagacha.



Nurilla soznavoz.

Sozlanishi.



Tovushqatori.



SOZ - musiqa cholg'ularini yasalishi ma'nolarini anglatadi. Fors va Tojik tillarida ustochilik ishlariga tegishli kasblarda "Soz" so'zi ishlatiladi. Rasul Xodizoda Buxorolik mashhur tanburnavoz Qori Karomatulloh Tanburiy Buxoroiy to'g'irisida yozgan "Tanburi Dilkash" kitobida Qori Karomatulloh bir xalq ustosining huzuriga kelib, "Ba man yak tanbure nag'z soz" ya'ni "Menga bir yahshi tanbur yasab ber" deydi. Undan tashqari soz so'zi ko'pgina ustochilik sohalarida, yaratish, bastalash ma'nolarini ham anglatadi.

Ohangsoz – musiqa bastalovchi bastakor. **Soatsoz** – soat tuzatuvchi usto. **Asbobsoz** – musiqa cholg'ularini ixtrochilari. **Sozlash**- musiqa cholg'ulari torlarini muayyan bir ovozga, tovushga sozlanishi ma'nosini ham anglatadi. Masalan: tanbur "sol" va "re" tovushlariga, dutor "lya" va "mi", qo'shmay "re", rubob "lya" va "mi", chang "sol", nay "lya" tovushlariga sozlanadi va hokazo.

1978 yilda Toshkent qishloq xo'jalik institutiga xorijdan ikkita talaba tahsil olgani kelgan. Ular o'zlari bilan soz cholg'usini ham olib kelishgan. Ulardagi soz ta'mir talab bo'ladi va natijada ular Toshkent davlat konservatoriyasining ustaxonasida faoliyat ko'rsatayotgan bo'yuk xalq ustosi Usto Sirojiddinga murojaat qilishadi. Usto Sirojiddin bu cholg'uni ta'mirlab, undan aynan nusxa oladi. Dutor sinfi bo'yicha ustoz Boqijon Rahimjonov bu cholg'uni ijrosini o'rganib ko'pgina shogirdlariga o'rgatadi. Ba'zi maktablarda soz cholg'uchilar dastasini ham tashkil etadi. Hozirgi kunda barcha Oliy, O'rta musiqa dargohlaridagi "An'anaviy ijrochilik" bo'limlarida bu cholg'uning ijrosi o'rganilmoqda.

DOYRA CHOLG'USI.

Doyra musiqa cholg'usi musiqa ijrochiligida asosan mezon hisoblanib, yakka ijro, ikki, uch, to'rt, besh va ko'proq cholg'ular jo'rligidagi jamoa ijrolari jarayonida, hamda xonanda va sozandalar jo'rligidagi ijrolar, bir me'yorda muayyan o'lchovlardagi doyra zarbalari asosida ijro etib turiladi. Shu asnoda ijro jarayonini sekin, o'rtacha, tez va jozibadorligi sezilib turiladi.

Doyra musiqa cholg'usi butun Sharq xalqlarida turli xil nomlar bilan atalib ijrochilikda qo'llaniladi. Masalan: doyra, daf, chirmanda, childirma. Turkiyada esa "dumbalak" nomi bilan ataladi.

Hozirgi kunda O'rta Osiyoda turli xil ko'rinishdagi doyralar uchraydi. O'zbekistonda esa doyra musiqa cholg'usi xalq ashulalari, yallalar, terma, lapar, maqom asarlarini cholg'u va ashula yo'li ijrolarida keng miqyosda qo'llaniladi.

Doyrada ijro etiladigan ijro zarblari esa turli davrlarda har xil nomlanib, aruz vaznlari asosida tartibga keltirilib "T" va "N" harflaridan foydalanilgan. Masalan: Ta-na, tan-nan, tana-nana va hokazo. (Is'hoq Rajabov. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent 1963. 68 s.)

Ma'lumki Buxoro shahrida musiqa ilmini amaliy va nazariy masalalariga katta e'tibor berib kelingan. 1920 yillargacha Buxoroda mavjud musiqa ijrochiligi haqida yozib qoldirilgan ko'pgina musiqiy risolalarga tayangan holda Abdurauf Fitrat doyra zarblari haqida shunday ma'lumot beradi. U doyra zarblarini "usul" deb ataydi. Bunda "nag'ma" va "niqra" to'g'risida so'z yuritiladi. "Musiqiy olimlarimiz musiqada usul belgilash uchun shunday harakat qiladilar: "kuy" da bir-biriga boylanib kelgan "niqra" larning "tan" shaklida bo'lganini "sabab-i hafif", "tana" shaklida bo'lganini "sabab-i saqil", "tanani" shaklida bo'lganini "fosila" deb ataydilar.

Mana shul (tan, tana, tanan) shakllarida boylangan niqralarni belgili bir tartibda yig'ib, musiqiy usullarni maydonga chiqaradilar.

«Tanani-tanani-tanani-tanani» (fa'ulun, fa'ulun) vazniga «Hazaj» deydi. «Tanani-tanani-tanani-tanani» (foi'lun, foi'lun) vazniga «Ramal» deydi. Mana shunday qilib «usul» doyralarini tuzadilar. Usul doyralari ba'zilariga ko'ra o'n besh, ba'zilariga ko'ra o'n yetti, ba'zilariga ko'ra yigirma to'rt, yigirma yettidir. Usul doyralaridan mashhur o'n ikkitasining otlari mana shulardir: Hazaj, ramal, vofir, duyak, foxtazarb, Turkiy, muxammas, saqiyl, chanbar, zarb-i qadim, zarbu-l-fath." (Fitrat, O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent. 1993. 6,7,12,13 sahifalar. Qayta nashri). Fitrat bu kitobda o'z fikrini davom ettirib, hozirgi kunda o'zbek musiqa ijrochiligida doyra zarblaridan «Tanani-tanani» o'rniga esa «bak-baka-baka-bum» nomlanishdagi ijrolari qo'llanilayotganligini ta'kidlaydi. Shunday qilib hozirgi kunda o'zbek musiqasida «bum-bak» (Xivada «gub-taq») nomli doyra zarblari bo'lib, ushbu kitobchani 12 sahifasidan to 24 sahifalarigacha Buxoroda mavjud moqom asarlarini ijrolarida qo'llanilgan juda ko'p sonli doyra zarblari haqida ma'lumot bergan.

Hozirgi kunda O'zbekiston musiqa ijrochiligida doyra musiqa cholg'usini xotin-qizlar xalq ashulalari, lapar, yalla ijrolarida keng foydalanadilar. Ular- otin, yallachi, laparchi, xalifa, sozanda deb ataladi. Undan tashqari Buxoro, Farg'ona, Toshkent, Xorazm, Qashqadaryo va Surxondaryo o'zining doyra ijrochilik maktablariga ega. Bu borada Fayzullo Karomatovning «Узбекская инструментальная музыка». (Tashkent.1972.8-43 s.), K.Olimboyeva va M.Ahmedovlarning «O'zbekiston xalq sozandalari» 1959. 59-63 s. asarlarida ma'lumotlar berilgan.

Hozirgi kunda 40 dan ortiq doyra zarblari, ya'ni usullari, o'zbek musiqa ijrochiligida qo'llaniladi. Ayniqsa eng murakkab ijroga xos doyra zarblari Yunus Rajabiy notaga olgan «Shashmaqom» kitoblarida berilgan.

O'zbekistonda o'ziga xos doyra ijrochiligi maktabini yaratgan ustozlardan - Usto Olim Komilov va shogirdlaridan- G'ofur Azimov, To'ychi Inog'omov, Qahramon Dadaev, Doda Xo'ja aka, aka-uka Elmurod va Dilmurod Islomovlar, San'atilla Azimov, Xalil Muhammadiyev hamda hozirgi kunda o'zbek mumtoz musiqa ijrochiligiga ayniqsa maqom asarlarini cholg'u va ashula yo'li ijrosida o'ziga xos doyra zarblarini mukammal egallagan doyra cholg'uvchi sozanda O'zbekiston Davlat Konservatoriyasidagi "An'anaviy ijrochilik" bo'limining doyra sinfi bo'yiga ustoz Rahmatilla Samadov o'ziga xos doyra ijrochilik maktabini yaratgan yetuk ustozlardan hisoblanadi. Hozirgi kunda doyra ijrochiligi bir to'g'ri chizilgan chiziqda yoziladi. Ya'ni «bum» chiziqni ostida, «bak» chiziqni ustida yoziladi. Undan tashqari doyra ijrochiligida bum, bak, katta bak, kichik bak, katta bum, kichik bum, noxun, rez kabi ijrolar mavjud.

Doyra ijrochisi albatta maqom asarlarida mavjud cholg'u ijrosiga xos tasnif, tarje', gardun, muxammas, saqil hamda ashula yo'li ijrosiga xos saraxbor, talqin, nasr va taronalari, ufor, mo'g'ulcha, savt va ulardagi davomiy asarlarida mavjud doyra zarblarini ijrolarini hamda O'zbekistonda ashula yo'li ijrosiga xos ashulalardan: "Girya", "Bayot IY", Yunus Rajabiy bastalagan "Kuygay", "Ne Navo soz aylagay" va boshqa ashulalar ijrosida qo'llaniladigan doyra zarblarini mukammal o'zlashtirishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Barcha musiqa dargohlarida doyra sinflari mavjud bo'lib, doyra ijrochiligi keng miqyosda o'rganilmoqda.



O'zbekiston Davlat konservatoriyasining dotsenti, buyuk doyra cholg'uchi sozanda Raxmatullo Samadov



Qarshi Davlat San'at kollejida doyra sinfi bo'yicha ustoz, etuk sozanda Xalil Muhammadiyev.



Qarshi Davlat ma'daniyat kollejida doira sinfi bo'yicha ustoz Siddiqxon Ahmedov



Tog'li Badaxshon avtonom viloyati Xorog shahridagi madaniyat uyida faoliyat ko'rsatayotgan doyradastlar dastasi. 1990 yil. Dushanbe shahri.



Doyra va tablak musiqa cholg'ulari.

Doyra zarblari.

Saraxbor. $\frac{2}{4}$ Bum.Bak. Bak.Bum. Bum.Bak-Bak. Bum-Ba-ka. Bum.Bak.

Tarona. $\frac{3}{4}$ Bak - Bak.Bum. Bum. Bak-Bum. Bak.

**Qashqarcha.
Soqinoma.** $\frac{4}{4}$ Bum-Bak- Bak-Bum.Bak.Bum. Bak.Ba-ka. Bum.Bum.

Talqincha. $\frac{33}{48}$ Bum.Bak.Bum. Bak.Bak. Bum-Bum. Bak.Bak. Bum.Bak.

Talqin. $\frac{33}{84}$ Bak.Bak. Bum.Bak.Bum. Bak. Bum.Bak.Bum.

**Savt.
Mo'g'ulcha.** $\frac{5}{4}$ Bak.BakBak.Ba-ka-Ba-ka. Bak.Bum.

Nasr. $\frac{6}{4}$ Bak-Bak. Bum. Bak- Bak. Bum-Bak.Bak.

MILLIY MUSIQA CHOLG'ULARINING IJROCHILIGI HAQIDA.

Musiqa cholg'ularining ijrochiligi haqida qadimiy musiqiy risolalarda bebaho ma'lumotlar berilgan. Ularning yaratilishi, nomlanishi shu bilan birga ba'zi bir ularning ijrochilari, mutrib-sozandalari, ijro etilgan asarlariga oid ma'lumotlar ko'proq "Ud" va "Tanbur" hamda "Nay" musiqa cholg'ulari haqida bo'lib, keyinchalik boshqa musiqa cholg'ulari haqida ham fikr yuritilgan. Musiqa cholg'ulari uchun dastlabki bastalangan musiqiy asarlarni cholg'u va ashula yo'li ijrolari quyidagicha nomlangan-advor, alhon, navo, parda, davr, ohang, kuy, qonun, savt, bong, lahn, amal, kor, asovot, aqsom, sado, rang, sano, tarkib, davr, fig'on, g'azzol, doston, surud, davl, jam, jins, iqo, zoita, iqoma, marg'ul, maqom, mizon, muloimot, ovo, naqsh, parda, naqra, nag'ma, nag'am, nag'omot, go'sha va boshqalar.

Ma'lumki barcha milliy musiqa cholg'ularining ijro yo'llari og'zaki an'ana "Ustod (ustoz) va Shagird" tizimi asosida olib borilgan. Bu turdagi ijrochilik uslubi necha asrlar davomida shakllanib, ijrochilikda qo'llanilib, xalq orasida mavjud musiqiy asarlarning barcha turdagi nusxalari, namunalari shu asnodda ijro etib kelingan. Hatto Sharq Olimlari Forobiy, Urmaviy keyinchalik Komil Xorazmiylar tomonidan "Ud" va "Tanbur" musiqa cholg'ularining ijrosiga mos nota tizimlarini yaratilishiga harakat qilingan. Lekin bu ijro uslublari keyingi asrlarda yashagan musiqashunos olimlar tomonidan takomillashtirilmagan. Ushbu yaratilgan nota tizimlari keyinchalik Ovrupo nota tizimini yaratilishi va rivojiga asos bo'lgan bo'lishi mumkin.

Og'izaki an'ana uslubiga xos musiqa ijrochiligidagi ijro yo'llari xususan milliy musiqa cholg'ulari ijrolari jarayonida musiqa sadolarini yanada jozibali, mungli, yoqimli, ta'sirchan, hayratomuz va hokazo sadolanishi uchun turli xil milliy ijro bezaklari ijrochilikda qo'llanilib, ular turlicha nomlangan va hozirgi kungacha bu musiqiy bezaklar xalq mutqib-sozandalari tomonidan ijrochilikda qo'llanilib kelinmoqda.

Ular-nola, qochirim, kashish, zarb, zarbi oro, zarbi parron, teskari zarb, qo'sh noxun, pirrang, yakka zarb, to'lqinlanish, rez, bidratma, nolish, molish, zaxma orqali pastga va yuqoriga harakat va hokazo nomlar bilan atalib, bu milliy ijro bezaklari musiqiy ijro asarlarini xarakteriga va mutrib-sozandalarning ijrochilik mahoratlariga bog'liq holda ijro jarayonlarida qo'llaniladi. Bu ijrolar jarayonlarida ijrochining

o'ta o'tkir ijro mahoratidan eshituvchi ya'ni shunavandalar turli xil holatlarga tushish, miriqib dam olish, hayratdan kuchli ta'sirlanib yig'lashi, baqirishi kabi hollar ham uchrab turadi.

Hozirgi kunda Ovrupo nota tizimi asosida notaga olingan milliy musiqa ijrochiligini cholg'u yo'li ijrosiga moslangan musiqiy asarlarni yuqorisiga ba'zi bir milliy ijro bezaklarini qo'yib uning ijrolari ijrochilardan talab qilinmoqda. Lekin uning asosiy mohiyati va maqsadi aniq tushuntirib berilmagan. Notaga olingan asarni boshlanishdan to oxirigacha nota yuqorisiga milliy bezaklar belgilarini qo'yib chiqilishi maqsadga muvofiq emas. Chunki musiqa ilmi va ijrochiligini o'rganish uch pag'onaga ya'ni Boshlang'ich, O'rta va Oliy toifalarga bo'lingan. Ba'zan maktabgacha ham musiqa ijrochiligidan saboq olinishi mumkin. Lekin notaga olingan musiqiy asarlarda qo'llanilgan milliy ijro zarblari yuqoridagi uch toifadan qaysi biriga mo'ljallanganligi haqida umuman fikr yuritilmagan. Shu bois milliy musiqiy ijro bezaklari har bir notaga olingan musiqiy asarda berilishi maqsadga muvofiq emas. Ular kichik-kichik musiqiy ijrolar vositasida alohida-alohida misollar tariqasida berilishi, bu ijro bezaklari ijrochining o'ta o'tkir ijrochilik mahoratiga bog'liqligini izohlab o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Demak hozirgi kunda ikki xil musiqa ijrochiligi mavjud. Bu og'zaki an'ana va nota uslubi asosidagi musiqiy ijrolar. Og'zaki an'ana ijro uslubi qadimul ayyomdan to hozirgi kungacha davom etib kelayotgan milliy musiqa ijrochilik maktabi bo'lib, bu uslubdagi ijrochilik yo'llarini mukammal eng yuqori ya'ni oliy darajada o'zlashtirish har bir mutrib-sozanda uchun dasturul amal bo'lishi shart va zarur.

Hozirgi zamon Ovrupo uslubidagi nota ijrochiligini amaliy va nazariy jihatdan puxta o'zlashtirilishi nafaqat mutrib-sozanda bal'ki barcha musiqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar uchun bebaho vazifa hisoblanadi. Nota tizimi ham eng mukammal ilmlardan biri hisoblanadi. Nota tizimini yuqori darajada o'zlashtirilishi nafaqat milliy musiqa ijrochiligiga xos bilimlarni amaliy va nazariy jihatdan anglab yetish bal'ki, qardosh, xorijiy mamlakatlar musiqa ijrochiligiga xos masalalarni chuqur anglab yetishda umumjahon musiqa tili hisoblanadi.

Hozirgi kunda o'zbek cholg'ushunosligi masalalari kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Keyingi yillarda cholg'u ijrochiligida yangi-yangi musiqa cholg'ulari ham qo'llanilmoqda. Buyuk-buyuk mutrib sozandalar yetishib chiqib milliy musiqa cholg'ulari ijrochilik imkoniyatlarini o'zlarining yetuk ustozona ijrolarini nafaqat O'zbekiston

bal'ki O'rta Osiyo va ko'pgina xorijiy mamlakatlarda o'tkazilgan musiqiy anjumanlarda namoyish etib, shunavandalar olqishlariga sazovor bo'lib, cholg'ushunoslik, cholg'u ijrochiligi rivojiga o'z hissalarini qo'shmoqdalar.

1939 yilda xalq cholg'u asboblari ijrochilarining butun ittifoq ko'rigida ishtirok etgan keksa xalq sozandalaridan Abduqodir Ismoilov nay, Ahmadjon Umurzoqov qo'shnay hamda Faxriddin Sodiqov chang musiqa cholg'ulari ijrolari bilan ishtirok etishlari va bu tanlovda Faxriddin Sodiqov ikkinchi o'rinni egallaganligi haqida ma'lumot berilgan. (K.Olimboyeva.,M.Ahmedov. O'zbekiston Xalq sozandalar. Toshkent 1959 yil. 117s.). Bu an'analar to hoziri kungacha davom etib har to'rt yoki besh yilda O'rta va Oliy musiqa dargohlarida musiqa cholg'ulari ijrochilari uchun alohida tanlovlar o'tkazilib, o'nlab yetuk mutrib-sozandalar turli xil musiqa cholg'ularining yetuk ijrochilari sifatida e'zozlanmoqda va tanlov g'oliblari sovrindorlari bo'lmoqdalar.

Ma'lumki eng yetuk mutrib-sozandalar Buxoro, Samarqand, Xorazm, Toshkent, Qarshi va Farg'ona vodiysidagi shaharlarda yashab faoliyat ko'rsatishgan. Buxoroda - Ota G'iyos, Ma'rufjon Toshpo'latov, Tohirjon Davlatzoda, Abdurahmon Umarov, To'ra Jo'rayev, Boboqul Fayzullayev, Fazliddin Shohobov, Shohnazar Sohibov hozirgi kunda Ari Boboxonov, Homidjon Jalolov, Orif Atoyev, O'lmasjon Rasulov, Shodibek Sharipov, Samarqandda- Hoji Abdulaziz Rasulov, Qori Siroj, Nayimjon Hamroqo'lov, Ixtiyor Sultonov, Xorazmda- Matpano Ota Xudoyberganov, Matyusuf va Matyoqib Xarratov, Qurbonboy og'a Bobojonov, Matrasul Matyoqubov, Yo'ldoshali Tojiyiv, Ozod Bobonazarov, Rustam Boltayev, Toshkentda- Shohbarot Tanburchi, Shorahim Shoumarov, ularning davomchilari Faxriddin Sodiqov, Fozil Xarratov, Rustam Negmatov, Ahmad Odilov, Murod Toshmuhammedov, Muhammadjon Mirzayev, Mahmudjon Muhammedov, Sunnat Samadov, Turg'un Alimatov, Orif Qosimov, To'ychi Inog'omov, Mahmud Yunusov, Mamadaziz Niyozov, Jo'rabek Saidaliyev, Salohiddin To'xtasinov, Shavkat Mirzayev, Temir Mahmudov, Abduhoshim Ismoilov, Rahmatulla Samadov, Abdul Ahad Abdurashidov, Abdurahmon Xoltojiyev, Rifatullo Qosimov, Qahramon Komilov, Tohir Rajabov, Ahmadjon Dadayev, Zamira Miralimova, Malikaxon Ziyayeva va boshqalar, Farg'ona vodiysidan- Berkinboy Fayziyev, To'xtasin Jalilov. Rasulqori Mamadaliyev, Ro'zmat Isoyev, G'ulomjon Hojiqulov, Komiljon Jabborov va boshqalar, Qashqadaryodan- Abdulla Qodiriy, Mahmud Savdoiy, A'zam Rajabov,

Bo'ronxon Muqimov, Ravshan Ziyodov, Islom Rajabov, Solohiddin Rajabov, Murodullo Abdukarimov, Nishonboy Avazov, Abdujabbor Rahmonqo'lov, Dilshod Megeshev, Otajon Matjonov va boshqalar shular jumlasidandir. Hozirgi kunda bu ustozlarning ijrochilik an'analari shogirdlar tomonidan o'rganilmoqda va targ'ib qilinmoqda.

Mutrib-sozandalar milliy musiqa cholg'ularida mungli sadolar hosil qilishda ustozlarning ijrochilik an'anasiga xos ijrolarini, ijro bezaklarini qo'llash qoidalarini mukammal o'rganish uchun tinimsiz mashaqqatli mashg'ulotlar olib boradilar. Masalan; dastlab musiqa cholg'ularini sozlash har xil jarangdagi sadolar hosil qilish, holat: o'tirish, cholg'u sozini ushlab va undan foydalanish, o'ng va chap qo'lning harakat qoidalari, hissiyot, mahorat, o'zini tuta bilish, esda saqlash va xotira, yuqori darajadagi bilim va ko'nikma, ezozlash va nihoyat ijro bezaklarini mohirona qo'llash, ko'pgina yetuk mutrib-sozandalarning ijrochilik maktablaridan xabardor bo'lish, ular ijrolaridagi yutuq va kamchilliklardan xulosa chiqara boshlash, ustoz va shogirdlar orasidagi munosabatlar, talab va ijrolar, mashq qilish qoidalari, o'z kasbini qadrlash va hokazo.

Mutrib-sozandalar yakka ijro, ikki, uch, to'rt va o'ndan ortiq hamda ansambl, orkestr jamoalariga jo'r bo'lish ijro mahoratini hamda maqom asarlarini, xalq musiqa ijodiyotini, bastakorlarning milliy musiqa ijrochiligi yo'lida bastalagan musiqiy asarlarini cholg'u va ashula yo'li ijrolariga xos asarlari ijrolarini ayniqsa jo'rnavozlik mahoratini mukammal o'zlashtirgan bo'lishi kerak.

Jo'rnavozlik ijro yo'lida buyuk ustozlar- Faxriddin Sodiqovning changda, Muhammadjon va Shavkat Mirzayevlarning rubobda, Turg'un Alimatovning tanbur va satoda, Abduhoshim Ismoilov, O'lmasjon Rasulov, Ahmadjon Dadayevlarning g'ijjak musiqa cholg'ulari jo'rliqidagi jo'rnavozlik ijrolari misol bo'la oladi.

Musiqa cholg'ularidan- Ud, Qashqar rubobi, Afg'on ruboblarini ijrolarida musiqiy ovoz hosil qilinishi uchun maxsus zaxma, muzrob tayyorlanadi. O'ng qo'lning bosh va ko'rsatgich barmoqlari bilan ushlab, musiqa cholg'ularini ichakdan yoki mis va kumushdan tayyorlangan torlariga uriladi va chap qo'lning pardalar ustidagi yengil mohirona harakati tufayli barmoqlar vositasida turli xil musiqa sadolari hosil qilinadi. Tanburda qadimiy an'analarga ko'ra buyuk ustoz mutrib-sozandalar tomonidan o'ng qo'lning ko'rsatgich barmoqlaridagi tabiiy tirnoqlarini o'stirib tanburning misdan tayyorlangan torlariga urib, chap qo'lning harakati vositasida musiqa sadolari hosil qilingan. Masalan:

buyuk tanbur cholg'uvchi sozandalardan Ota Jalol, Ota Giyos va boshqalar o'zlarining tabiiy tirnoqlari vositasida musiqa ijro etganlar, bu an'ana hozirgi kunda Eron setornavozlaruda saqlanib qolgan. Bizda esa hozirgi kunda temirdan tirnoq yasab uni fors tilidagi atamada "Noxun" deb atab, o'ng qo'lning ko'rsatgich barmog'iga kiygizilgan holda tanbur torlariga urib musiqa sadolari hosil qilinadi.

Chang- musiqa cholg'usini ijrosi uchun bambukdan ingichka cho'b tayyorlanadi. Ularning miqdori ikkita bo'lib, uning boshlang'ich qismiga qizil aylana rezindan qirqib kiygiziladi va har ikkala qo'lning bosh va ko'rsatgich barmoqlari bilan ushlab, birgalikda harakat qilib changning torlariga ushbu tayyorlangan cho'bchalar vositasida urib musiqa sadosi hosil qilinadi.

Qonun- musiqa cholg'usining torlari oq ichakdan tayyorlangan bo'lib, torlar qonun yuzini ikki tomoniga maxsus tayyorlangan quloqchalarga berkitilgan bo'lib, kichik-kichik misdan tayyorlanib o'rnatilgan tilsimon narsalar orqali ijro jarayonida shu tilchalar orqali qonunning torlari yarim ton past va baland ovozli tovush hosil qilinadi. Qonunni ijrosi uchun o'ng va chap qo'lning ko'rsatgich barmog'iga misdan aylana shakldagi yasama tayyorlab kiygiziladi va molning shoxidan maxsus zaxma tayyorlanib haligi aylanani barmoqni old tomonidagi joyiga qadab qo'yiladi, ya'ni go'yo barmoq tirnog'ining davomi hisoblanadi. Shu asnoda musiqa sadolari hosil qilinadi.

Nay, Surnay, Karnay, Bulamonlar asosan insonning nafasi vositasida ijro etiladi. Nay cholg'uchi sozanda nafas olish va uni ishlatish borasida mashaqqatli mashq olib boriladi. Hatto mutrib-sozandachi nafasini kuchliligidan ijro jarayonida nay yorilib ketgan hollar ham uchraydi.

Surnay – musiqa cholg'usini ijrosida nafas olish va undan foydalanish ikki xil uslubda bo'ladi. (Biri tuzugi, ikkinchisi buzug'i). Ya'ni musiqiy asar ijrosi jarayonida nafas tez-tez olinadi. Ikkinchi turdagi ijroda esa nafas qaytarish ya'ni bir nafas olib kuyning boshlanishidan to oxirigacha nafas qaytarib uzluksiz ijro etish. Mutrib-sozanda uzliksiz nafas qaytarish uslubdagi ijro uchun bir stakanga suv olib, ikki qarichli ichi kovak rezinka bilan stakan suviga nafas orqali pufaydi va qo'ng'iroq pufakchalar hosil bo'ladi. Nafas qaytarib suvda pufakchalar qachonki uzliksiz hosil qilinsa shundan keyingina surnayni nafas qaytarib ijro etish uslubiga o'tiladi.

Karnay - cholg'usida ijro jarayonida nafas surnay va nag'ora yoki doyraning ijro zarbiga qarab ishlatiladi. Sekin, o'rtacha, tez va hokazo.

G'ijjak – ijrosi to'rtta torda bir-biriga o'tish vositasida, maxsus oq otning dumidagi qildan tayyorlangan “komon” vositasida musiqa sadosi hosil qilinadi. “Komon” maxsus aylana shakliga keltirilib tayyorlangan, quritilgan shirishga ishqalanadi va komon torlarga tegizilib tortilganda mayin, yoqimli sado hosil bo'ladi.

Dutor – ijrosida asosan o'ng qo'lning panjalari asosiy bo'lib, ipakdan yoki ichakdan tayyorlangan torlarga uriladi. Ba'zan ayniqsa “Qo'shtor” nomli musiqiy asarni ijrosini birinchi qismida o'ng qo'lsiz va chap qo'lning pardalar uzra harakati tufayli ijro hosil qilinib, ikkinchi qismida esa o'ng qo'lning panjasidan foydalaniladi.

Doyra – ijrosida ikki qo'lning panjalari barobar harakat qiladi. Doyranavoz bir meyorda doyra zarblarini ijrosi ustida tinimsiz mashq olib borishi shart. Doyra musiqa ijrosi jarayonida bir meyordagi doyra zarblariga mo'ljallangan mezon hisoblanadi. Doyraning gardishi va unga qoplanadigan teri esa yaxshilab oshlanadi. Shunday qilib doyralar har xil sado beradi. Yo'g'on, ingichka va hokazo. Gardishdagi aylanada po'ltdan yasalgan aylana halqachalar tayyorlanib o'rnatiladi.

Ansambl – bu atama milliy musiqa cholg'ularini guro'h-guro'h bo'lib birgalikdagi ijrolari tushuniladi. Masalan; puflama, urma torli, mizrobli, chertma torli, urma zarbli, komonli musiqa cholg'ularining ansambllari. Undan tashqari hozirgi kunda O'zbekistonda ansambl jamoalarida ko'proq o'ndan ortiq musiqa cholg'ularini birgalikdagi ijrolari tushuniladi. Har bir musiqa dargohlarida turlicha ansambllar faoliyat ko'rsatadi. Masalan – Toshkentdagi Yunus Rajabiy nomidagi sozanda va xonandalar guruhidan tashkil topgan “Maqom ansambli”. O'zbekiston Davlat konservatoriyasidagi An'anaviy ijrochilik bo'limidagi ansambl jamoasi, professor Ahmad Odilov rahbarligidagi “Changchi qizlar” ansambli, professor Murod Toshmuhamedov rahbarligidagi “Komonli cholgular” ansambli, G'anijon Toshmatov nomidagi “Dutorchi qizlar” ansambli va Qarshi Davlat Universitetidagi “Bayot” nomli milliy ansambl shular jumlasidandir.

Orkestr – jamoasi ko'p ovozli musiqiy asarlarni ijrosiga mo'ljallangan musiqa cholg'ularidan iboratdir. Turli xil ijrochilar guro'hidan tashkil topgan jamoadir. Hozirgi kunda O'zbekistonda Doni Zokirov va To'xtasin Jalilov nomidagi “Xalq cholg'ulari” orkestrlari bo'lib, bu jamoalar dirijyorlar rahbarligida faoliyat ko'rsatadi.

Akustika – Musiqiy tovushlarni joylashgan o'rni, musiqa cholg'ularida pardalarning joylashuvi akustika vositasida muayyan

qilinadi. Musiqa tili bilan sent deb ataladi. Yarim ton 100 sent, bir ton 200 sent, bir oktava oralig'i 1200 sent hisoblanadi. Moskvadagi P.I. Chaykovskiy nomidagi Konservatoriyada "Akustika" laboratoriyasi bo'lib, milliy musiqa cholg'ularidagi pardalarni joylashuvi maxsus dastgohlar vositasida muayyan qilinadi. 1990 yilda Moskva konservatoriyasiga borib, akustika laboratoriyaning boshlig'I S.N. Chebankov va A.B. Andrianovlar bilan birgalikda uchta dastgoh, ya'ni "KOON" deb ataluvchi moslama asosida ustoz sozandalardan – Turg'un Alimatov, Fazliddin Shahobov, Shohnazar Sohibov, Neriyo Aminov, Ma'rufjon Toshpo'latovlarning Usto Usmon va Usto Tohirlar tomonidan tayyorlangan tanburlarini, Turg'un Alimatovning "sato" musiqa cholg'usini, Badaxshon sozandasi Muhammad Ato Tavolloyevning setoridagi pardalar joylashuvlari sent tuzilmalari asosida muayyan qilindi.



Kompozitor Baris Feodorovich Gienko bilan musiqa cholg'ulari uchun musiqa bastalash Musiqiy asarlarni notaga olish va cholg'u ijrolariga moslash umuman bastakorlik sohasida musqiy suhbat.

Fazliddin Shahobovning tanburini pardalari oralg'idagi sent tuzilmalar va undagi tovushqator.

| | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|
| 1. | 0 | 200 | 400 | 500 | 700 | 900 | 1100 | 1200 | 1400 | 1500 | 1700 | 1900 | 2100 | 2200 | 2400 | 2600 | 2800 | 3000 | 3100 | 3300 |
| 2. | 0 | 200 | 400 | 500 | 700 | 900 | 1100 | 1200 | 1400 | 1500 | 1700 | 1900 | 2100 | 2200 | 2400 | 2600 | 2800 | 3000 | 3100 | 3300 |
| 3. | 0 | 245 | 424 | 537 | 723 | 929 | 1077 | 1203 | 1390 | 1528 | 1709 | 1906 | 2079 | 2219 | 2380 | 2562 | 2757 | 2957 | 3088 | 3307 |
| 4. | 245 | 179 | 113 | 186 | 206 | 148 | 126 | 187 | 138 | 181 | 197 | 173 | 140 | 161 | 182 | 195 | 200 | 131 | 219 | |

Turg'un Alimatovning tanburini pardalari oralg'idagi sent tuzilmalar va undagi tovushqator.

| | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|
| 1. | 0 | 200 | 400 | 500 | 700 | 900 | 1100 | 1200 | 1400 | 1600 | 1700 | 1900 | 2100 | 2300 | 2400 | 2600 | 2800 | 2900 | 3100 |
| 2. | 0 | 200 | 400 | 500 | 700 | 900 | 1100 | 1200 | 1400 | 1600 | 1700 | 1900 | 2100 | 2300 | 2400 | 2600 | 2800 | 2900 | 3100 |
| 3. | 0 | 205 | 391 | 495 | 700 | 900 | 1090 | 1196 | 1400 | 1590 | 1696 | 1904 | 2106 | 2297 | 2400 | 2612 | 2812 | 2895 | 3100 |
| 4. | 205 | 186 | 104 | 205 | 200 | 190 | 106 | 204 | 190 | 106 | 208 | 202 | 191 | 103 | 212 | 200 | 83 | 215 | |

Eslatma:

1. Tanbur pardalaridagi tovushqator.
2. Umumjahon miqyosida qabul qilingan sent tuzilmalar.
3. Tanbur pardalarini boshlanishdan to ohirigacha bo'lgan sent tuzilmalari.
4. Har bir parda oralg'idagi aniqlangan sent tuzilmalari.



1928 yil da Qarshi shahrida tashkil qilingan milliy ansambl . Suratda Abdullo Qodiriy , Mahmud Rahmonov , Usmon Bobo tanburnavozlar, Mamatqul Jalilov , Bahrom Kamolov, Sa'dullo Ashurov naynavoz , Hayotxon dutornavoz va boshqalar.



Abdullo Qodiriy tamburiy. Qarshi shahri 1930 yil.



O'zbekiston radiosi va televideniyesi qoshidagi Doni Zokirov nomli milliy orkestr jamoasi.
 1-qator chapdan. Orifxon Hotamov ,Mahmud Yunusov, Bozorboy Safarov , Ubaydullo Abdullayev, Doni Zokirov, Xayri Izomov , Abdusalom Mutalov , Grigaryans, Abdumutal Abdullayev, Sunnat Samadov.
 2-qator. Anormat, Abdumalik, Asror, Ma'ruf, Azim Yunusov , Zamira Miralimova, Fazilat Shukurova, Ozoda Bahriyeva, Jalol Zuhuriddinov, Xoldor aka , Sodiqjon, Halimjon Jo'rayev, Mirzasharif Mirbarotov.
 3-qator. Qodir aka, Olimjon, Najim, Mahmudjon, Ilyos Lutfullayev, Muhammadjon, Murodbek, Qayumjom , Xolmurod, Murodullo Abdukarimov, Qahramon , G'ofurjon.
 4-qator. Vohid aka , Mirsodiq, Tohirjon , Rustam aka , Rahimjon , Dilshod.
 Toshkent shahri 1980 yil.



O'zbekiston radiosi va televideniyesi qoshidagi xalq cholg'ulari orkestri. Dirijyor O'zbekiston xalq artisti Dono Zokirov.



O'zbekiston davlat konservatoriyasida faoliyat ko'rsatayotgan "Changchi qizlar" ansambli. Ansamblning rahbari professor Ahmad Odilov.



Qarshi davlat universiteti pedagogika va musiqa fakulteti "Qo'shiqchilik" kafedrasida tashkil qilingan "Bayot" nomli milliy ansambl. Ansamblning badiiy rahbari "Qo'shiqchilik" kafedrasining mudiri, San'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent Murodullo Abdukarimov. Ansamblning yakkaxon hofiz xonandalari - O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan artistka Oygul Xalilova hamda Muhiddin Murodov.



1987 yilda Toshkent davlat konservatoriyasida o'tkazilgan maqom tanlovi ishtirokchilari. Tanburda Murodullo Abdukarimov , dutorda Sultonali Xudoyberdiyev, doyrada Abdumajid Hasanov va tanlov g'olibi Ra'no Abdullayeva.



Abdullo Qodiriy tamburiy rahbarligidagi ansambl.
Shahrisabs shahri. 1960 y.



Xush ovoz xonanda O'zbekistonda xizmat kursatgan artist Oygul Xalilova.
 Jo'navozlar : tamburda Murodullo Abdukarimov, g'ijjakda, Dilshod Mengishov va Akram Sattorov, doirada Asadullo Sohibov.



Borbat Marvaziyning tavalludini 1400 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan umumjahon musiqiy anjuman qatnashchilari. O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan artistlar Shavkat Mirzoyev va O'lmasjon Rasulov, O'zbekiston Xalq artistkasi Munojotxon Yo'lchiyeva, San'atshunoslik Fanlari nomzodi, dotsent Murodulloh Abdukarimov, sozanda Rustam Abdullayev.




Borbat Marvaziy tavalludining 1400 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan umumjahon musiqiy anjuman qatnashchilari. Yuqorida anjumanning bosh rejissori Shamsi Qiyomov hamda Buxoro shahridagi Oliyaxon Sultonova rahbarligidagi "Sitorayi Mohixosa" folklor dastasining ishtirokchilari. Dushanbe. 1990 yil.





Kichik ansambl jamoasi.

MUSIQA CHOLG'ULARINING SOZLANISHLARI VA TOVUSHQATORLARI.

PUFLAMA MUSIQA CHOLGULARI.

Nay.  Musical notation for the Nay instrument, showing a scale with a bracketed section of 8 notes.

Surnay.  Musical notation for the Surnay instrument, showing a scale.

Qo`shnay.  Musical notation for the Qo`shnay instrument, showing a scale.

URMA TORLI MUSIQA CHOLG'ULARI.

Chang.  Musical notation for the Chang instrument, showing a scale across two staves.

Qonun.  Musical notation for the Qonun instrument, showing a scale.

MIZROBLI MUSIQA CHOLG'ULARI.


Sozlanishi.




Tovushqatori.



Sozlanishi.



Tovushqatori.



Sozlanishi.



Tovushqatori.



Sozlanishi.

Qashqar
rubobi.



Tovushqatori.




Sozlanishi.

Afq'on
rubobi.



Tovushqatori.



Sozlanishi.

Tor.




Tovushqatori.




Sozlanishi.

Soz.



Tovushqatori.



CHERTMA TORLI MUSIQA CHOLG'ULARI.

Sozlanishi.

Dutor.




Tovushqatori.




Sozlanishi.

Dutor
bas.




Tovushqatori.




Sozlanishi.

Dutor
kontrabas.




Tovushqatori.



Sozlanishi.

Dumbra.




Tovushqatori.




KOMONLI MUSIQA CHOLG'ULARI.

Sozlanishi.

G'ijjak.




Tovushqatori.



Sozlanishi.

G'ijjak
alt.




Tovushqatori.




Sozlanishi.

G'ijjak
bas.




Tovushqatori.




Sozlanishi.

G'ijjak
kontrabas.



Tovushqatori.




Sozlanishi.

Sato.



Tovushqatori.




Sozlanishi.

Manzur
sato.




Tovushqatori.





Sozlanishi.

Hind
setori.



Tovushqatori.



T a n b u r l a r .

Sozlanishi.

Afg'on
tanburi.



Tovushqatori.



Sozlanishi.

Bladzikom.
Badaxshon
ranburi.




Tovushqatori.



K o m o n l i c h o l g ' u l a r .

Sozlanishi.

Uyg'ur
satari.




Tovushqatori.



Sozlanishi.

Tojik
jig'aki.



Samoi Dugoh.

Dugoh maqomidan.

Tantanavor.

Notaga oluvchi
Murodullo Abdukarimov.

The musical score is written in a single system with ten staves. It begins with a treble clef, a key signature of one sharp (F#), and a 4/4 time signature. The notation consists of a series of eighth and sixteenth notes, often grouped in beams. There are several instances of slurs and ties across the staves. The piece concludes with a double bar line and repeat dots.

This page contains 12 staves of musical notation, all in the key of G major (one sharp). The notation is organized into four groups of three staves each. The first group (staves 1-3) features a treble clef and a key signature of one sharp. The second group (staves 4-6) features a treble clef and a key signature of one sharp. The third group (staves 7-9) features a treble clef and a key signature of one sharp. The fourth group (staves 10-12) features a treble clef and a key signature of one sharp. The notation includes various rhythmic values, including eighth and sixteenth notes, and rests. The first staff of each group begins with a treble clef and a key signature of one sharp. The notation is presented in a clear, black-and-white format.

Guluzorim.

Hoji Abdulaziz Rasulov musiqasi.

Notaga oluvchi
Murodullo Abdukarimov.

O'rtacha tez.

The musical score consists of 12 staves of music. The first staff begins with a treble clef, a key signature of one sharp (F#), and a 6/8 time signature. The melody is written in a single line. The notation includes quarter notes, eighth notes, and sixteenth notes, with various rests and phrasing slurs. The key signature remains consistent throughout the piece. The score is presented in a clean, black-and-white format.

This image displays a page of musical notation consisting of 12 staves. Each staff begins with a treble clef and a key signature of one sharp (F#). The notation is a single melodic line, featuring a variety of rhythmic patterns including quarter notes, eighth notes, and sixteenth notes. There are several instances of accidentals, specifically flats, which appear to be corrections or specific notations within the piece. Phrasing slurs are used to group certain notes together, particularly in the lower staves. The overall style is that of a handwritten musical score for a single instrument.

A handwritten musical score for guitar, consisting of 11 staves of music. The score is written in treble clef with a key signature of one sharp (F#). The music is a single melodic line, likely for the guitar's first string. The notation includes various rhythmic values such as quarter notes, eighth notes, and sixteenth notes, along with rests and slurs. The piece concludes with a final double bar line and a repeat sign.

A handwritten musical score for guitar, consisting of 11 staves of music. The score is written in treble clef with a key signature of one sharp (F#). The music is a single melodic line, likely for the guitar's first string. The notation includes various rhythmic values such as eighth and sixteenth notes, often beamed together, and rests. There are several instances of slurs and ties, indicating phrasing and sustained notes. The handwriting is clear and legible, typical of a composer's or arranger's manuscript.

This image displays a page of musical notation consisting of 12 staves, all in the key of G major (one sharp). The notation is written in a single system. The first staff begins with a treble clef and a key signature of one sharp (F#). The music is primarily composed of eighth and sixteenth notes, often grouped with beams. There are several instances of slurs and ties across the staves. The final staff concludes with a double bar line and a fermata over the final note.

Nimcho'poni.

O'zbek mumtoz musiqasi.

Ohista.

Notaga oluvchi
Murodullo Abdukarimov.

The image displays a musical score for the piece 'Nimcho'poni'. The score is written in a single system with ten staves. The first staff begins with a treble clef, a key signature of one flat (B-flat), and a 3/4 time signature. The music is characterized by a steady, rhythmic melody with frequent eighth and sixteenth notes, often grouped together. The notation includes various note values, rests, and phrasing slurs. The overall style is typical of traditional Uzbek folk music transcribed into Western musical notation.

This image displays a page of musical notation consisting of 12 staves. The music is written in G major (one sharp) and 3/4 time. The notation includes treble clefs, a key signature of one sharp (F#), and a time signature of 3/4. The music features a variety of rhythmic patterns, including eighth and sixteenth notes, and rests. The notation is presented in a standard, clear format suitable for a music manuscript.



Doyra zarblari.

Samoyi Dugoh.

Gulizorim.

Nimcho'poni



Bu asarlar tanbur musiqa cholg'usining sozi va pardalariga mos holda notaga olindi. Quyida "Nimcho'poni" asarining boshlanish qismini to'rt xil ijro etilishi berildi. Bu asarlar musiqa cholg'ularini sozi va parda tuzilishlarini hisobga olgan holda turli xil tovushlardan, turlicha ijro zarblari asosida ijro etish mumkin. Masalan: rubobda, nayda "lya", g'ijjakda, changda "sol", qo'shmayda "re" tovushlaridan va hakoza. Musiqiy asarlarning ijrolari ijrochining ijro mahoratiga bog'liq.



XULOSA.

Milliy musiqa cholg'ulari, xalq ustolari, cholg'u ijrochiligi haqida qisqacha fikr yuritildi. Cholg'ushunoslik deganda biz milliy musiqa cholg'ulariga tegishli amaliy va nazariy musiqiy bilimlar majmuasini tushunamiz.

Bu tushunchalar musiqa dunyosida faoliyat ko'rsatayotgan ko'pgina olimlar tomonidan kichik-kichik ilmiy maqolalar, maxsus ilmiy risolalar, kitoblar va boshqa izlanishlar vositasida yoritib berilishga harakat qilmoqdalar. Ma'lumki ilm fanning barcha sohalaridagi ko'pgina atamalar arab va fors tillarida. Jumladan musiqa dunyosidagi ko'pgina atamalar. Shu bois ilmu-fan sohasida manbashunos, o'lkashunos, navoiyshunos, folklorshunos, tilshunos shu bilan birga musiqa ijrochiligida musiqashunos, cholg'ushunoslik atamalari ham qo'llanilmoqda. Cholg'ushunoslik atamasi ya'ni musiqa cholg'ushunosligi ma'nosini anglatadi. Yuqoridagi atamalarga «shunos» yoki «shinos» so'zlari fors tilida shu sohalarga tegishli ma'lumotlarni yuqori darajada o'zlashtirgan yoki shu sohaga tegishli ma'lumotlar bilan mukammal ravishda tanishib chiqish ma'nolarini anglatadi. Shu bois har bir soha mutaxassisleri, shu sohaga tegishli ma'lumotlar bilan chuqur tanishish maqsadida uzoq yillar davomida amaliy va nazariy izlanishlar olib boradilar.

O'zbekistonda cholg'ushunoslik masalalarida dastlab Avgust Eyxgorn 1920 yillarda V.A.Belyayev, Abdurauf Fitrat, 1937 yillarda Xalq ustasi Usto Usmon Zufarov tomonidan musiqa cholg'ularini yangi namunalari tayyorlangan 1960 yillarda A.I.Petrosyans, T.S.Vizgo keyingi yillarda San'atshunoslik fanlari doktori, professor Fayzulloh Karomatli (O'zbekiston), Nizom Nurjonov (Tojikiston) bilan hamkorlikda cholg'ushunoslik xususida ko'pgina ma'lumotlar to'planib, nashr ettirilgan.

Cholg'ushunoslik masalasida fikr yuritilganda O'zbekiston hududida mavjud har bir musiqa cholg'usini yaratilish tarixi, tayyorlash jarayonlari, undagi mavjud bo'linmalarning atamalari, jarangdor yoqimli, xushsado musiqa cholg'ularni tayyorlash qoidalari, musiqaning cholg'u ijrochiligi sohasida faoliyat ko'rsatgan buyuk mutrib sozandalarni ijodi va ijrochilik maktablari, ularning ijro jarayonida qo'llagan milliy musiqiy ijro bezaklari, o'zbek milliy musiqa cholg'ularini O'zbekiston, O'rta Osiyo, Umumjahon musiqa ijrochiligidagi o'rni va boshqa milliy musiqa cholg'ulari umuman

cholg'u ijrochiligiga oid ma'lumotlari muntazam ravishda ilmiy asosda yoritib berilishi bu ma'lumotlardan nafaqat musiqa dunyosida faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi mutaxassislar balki barcha O'zbekistonda yashab ijod etayotgan fuqarolar xabardor bo'lishlari maqsadga muvofiqdir.

Albatta O'zbekistonda hozirgi kunda musiqa ilmini rivojiga jumladan «Cholg'ushunoslik» masalalariga ham e'tibor berilib, barcha Boshlang'ich, O'rta va Oliy musiqa dargohlarida musiqa cholg'ulari hamda cholg'ushunoslik masalalari o'rganilmoqda.

Umuman cholg'ushunoslik masalalari hali juda ko'p ilmiy va amaliy izlanishlar olib borilishini taqozo etadi. Bu bajarilgan ish cholg'ushunoslik borasida bajarilgan kichik bir ilmiy izlanish sifatida musiqa dunyosida faoliyat ko'rsatayotgan hamkasblarimiz e'tiboriga havola etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Abdurauf Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Qayta nashri. Nashrga tayyorlovchi Karimbek Hasan. Toshkent; 1993.
2. Is'hoq Rajabov. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent 1963.
3. Shashmaqom 1 jild. Toshkent 1966.
4. Nafas Shodmonov. Xo'ja Abdulqodir Marogiy. Toshkent 2000.
5. Rasulov J.K. O'zbek dutor ijrochiligi. Toshkent. 1997.
6. Nafas Shodmonov. Temuriylar davrida musiqashunoslik. Toshkent. 1995.
7. Mulla Begjon Rahmon o'g'li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. Qayta nashrga tayyorlovchi San'atshunoslik fanlari nomzodi Botir Matyoqubov.
8. Muhammadiyeva Gulchehra. Kuyla dilkash dutorim. Toshkent. 1998.
9. Ahmad Odilov, Anvar Lutfullayev. Chang. Toshkent. 2002.
10. Rifatullo Qosimov. Ud. Toshkent. 2002.
11. Nazarov Abdumannon. Farobiy va Ibn Sino musiqiy ritmika xususida. Toshkent. 1995.
12. Murodullo Abdukarimov. Tanbur navolari. Nasaf. 2000.
13. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. IY. O'zbekiston fanlari akademiyasi. Toshkent. 1985.
14. K. Olimboyeva, M. Ahmedov. O'zbekiston Xalq sozandalari. Toshkent-Yangiyo'l. 1959.

II. RUS TILIDA.

1. Абдуллаева С. Музыкальные инструменты Азербайджана. Баку. 1972.
2. Визго Т.С. Музыкальные инструменты Средней Азии. Москва 1980.
3. Кароматов Ф.М. Узбекская инструментальная музыка. Ташкент. 1972.
4. Гафурбеков Т. Б. Фольклёрные истоки Узбекского профессионального музыкального творчества. Ташкент. 1984.
5. Матёкубов О.Р. Фараби об основах музыки Востока. Ташкент. 1986.

6. Абдулкасим Вагиф Амир оглы. Тар и его роль в Азербайджанской музыки. Автореферат. Дисс. на. соиск. уч. ст. канд. искусств. Ташкент. 1990.
Эргашев Аллаберди. Плекторные инструменты Туркменстана. Автореферат. Дисс.на. соиск. уч. ст. кан. искусств. Ташкент. 1995.
 7. Худойбердиев Султонали. Функционирование особенности традиционного дутара в музыкальной системы Таджикиов и Узбеков. Автореферат. Дисс.на.соиск.уч.ст. канд. искусств. Ташкент. 1996.
 8. Абдукаримов Муродулло. Танбур, сато и сетор в музыкальной традиции Узбекистана и Таджикистана. Дисс. на.соис.уч.ст. канд. искусств. Ташкент. 1997.
 9. Л. Г. Ковал.Интонирование Узбекской традиционной музыки . Ташкент. 1990.
 10. Московская Государственная Консерватория. Лаборатория музыкальной акустики . Москва. 1966.
 11. Народные музыкальные инструменты и инструментальная музыка. Часть первая. Ред. Сост. И.В. Мациевский. Москва. 1982.
- Беляев В.М. Музыкальные инструменты Узбекистана. Москва. 1953.

ILOVA SIFATIDA.

- 1. Buyuk ustozlar haqida ma'lumot.**
- 2. Musiqiy atamalar.**
- 3. Qashqadaryoning madaniyati, san'ati va musiqiy hayoti.**
- 4. Musiqa cholg'ularini tayyorlovchi xalq ustolari, mutrib – sozandalar, hofiz – xonandalar, bastakorlar, musiqashunoslar va boshqalar bilan musiqa sohasida suhbat.**

BUYUK USTOZLAR HAQIDA MA'LUMOT.

Obid Xolmuhammedov (1928-1990) uzoq yillar davomida Muxtor Ashrafiy nomidagi Toshkent Davlat konservatoriyasi "Xalq cholg'ulari" kafedrasidan g'ijjak sinfi bo'yicha ustozlik qilgan.

Murod Toshmuhamedov - 1939 yilda tug'ilgan. O'zbekiston Davlat konservatoriysining professori, g'ijjak sinfi bo'yicha ustoz. G'ijjak sinfi bo'yicha o'quv qo'llanma, darslik, metodik qo'llanmalar muallifi. G'ijjak sinfi bo'yicha bu ustozdan ta'lim olgan ko'pgina shogirdlari Respublika, O'rta Osiyo, Umumjahon miqyosidagi tanlovlar g'olibi. Muhammadjon Asilov - (1928-1961), Abdivakil Umarov 1942 yilda tug'ilgan, Shuhrat Yo'ldoshev, Qahromon Komilov, Botir Rasulov va boshqalar g'ijjak sozini o'rganish va uni targ'ib qilishda o'z hissalarini qo'shmoqdalar.

Abduhoshim Ismoilov - buyuk g'ijjak cholg'uvchi sozanda, bastakor. Yetin maqom asarlarini ijrochisi. Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansamblining badiiy rahbari. O'zbekiston Halq Artisti.

Shavkat Mirzaev buyuk rubob cholg'uvchi sozanda, bastakor O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan Artist, buyuk rubobchi O'zbekiston Xalq Artisti Muhammadjon Mirzaevning farzandlari va shogirdlari «SHashmaqom» asarlarini amaliy va nazariy asosdagi bilimdoni. Maqom asarlarini ijrolarini o'z shogirdi O'zbekiston Xalq Artisti Munojotxon Yo'lchieva ijrosidagi hamkorlikda ko'pgina yirik dunyo miqyosidagi anjumanlarda namoyishi etib kelmoqda. O'ziga xos rubob ijrochiligi maktabini yaratgan ustoz.

Boqijon Rahimjonov 1945 yilda tug'ilgan. 1968 yilda Konservatoriyani dutor sinfi bo'yicha tugatgan. Birinchi Respublika tanlovini g'olibi (1971). U ustoz Orif Qosimov ijrosidagi musiqiy asarlarni yozib notaga olib nashr ettirgan. O'zbek cholg'ulari kafedrasining dotsenti.

Anvar Lutfullaev - Toshkent Davlat Konservatoriyasi chang sinfi bo'yicha tugatgan yetuk chang cholg'uvchi sozanda. Hozirgi kunda Konservatoriyada chang sinfi bo'yicha ustoz Xalq cholg'ulari Kafedrasining mudiri, dotsent. Professor Ahmad Odilov bilan hamkorlikda «chang» darsligini yozgan.

Rifatullo Qosimov - yetuk sozanda, rubob, va ud sinfi bo'yicha ustoz. Toshkent Davlat Konservatoriyasi «An'anaviy ijrochilik» bo'limining mudiri, dotsent. «Ud» sinfi bo'yicha darslik muallifi. Maqom asarlarini yetuk bilimdoni. Maqom ijrochiligiga tanlovi g'olibi.

Bo'ronxon Muqimov 1934 yilda Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumani Podaron qishlog'ida tug'ilgan. Yotin g'ijjak cholg'uvchi sozanda, bastakor. Qarshi madaniyat koglejining katta o'qituvchisi g'ijjak sinfi bo'yicha ustoz. Uzoq yillar Qarshidagi Mullo To'ychi Toshmuhammedov nomidagi teatrda sozanda, bastakor, musiqa rahbari lavozimida ishlab, yetuk aktyor va sozandalardan - Bahrom Kamolov, Fayzulla Ochilov, Xol aka Rajabov, Aliqul To'laev, Lola Xoliqova, Ashurali Xoliqov, Muhtaram Nosirova, Saygul Gulmurodova, Muhiddin Majidov, Tojiddin Murodov, Haqberdi va Harzatqul Amirqulovlar, Sulton Arslonov, Haqberdi Mengliev, Jalil Ashurov, Toshpo'lat Axmedov va boshqalar bilan birgalikda «Tohir va Zuhro», «Aziz va Sanam» «Xolisjon», «Boy ila xizmatchi», «Farhod va Shirin», «Oshiq G'arib va Shoxsanam» va shunga o'xshash musiqali dramalarni sahnalashtirgan.

Matrasul Matyoqubov 1958 yilda Xorazmda tug'ilgan. Qo'shnay, Surnay, Bulaman musiqa cholg'ularini yetin ijrochisi. 1973-77 yillarda Urganchdagi Matyusuf Xarrochov nomli musiqa bilim yurtini, 1977-82 yillar Toshkent Davlat konservatoriyasi «SHarq kafedrası» bo'limini tugatgan. Matrasul Matyoqubov 1973, 1981, 1986, 1987 yillarda Samarqandda o'tkazilgan umumjahon musiqiy anjuman qatnashchisi. 1987 yilda o'tkazilgan ikkinchi Respublika maqom tanlovini g'olibi. U ko'pgina xorijiy mamlakatlarda o'tkazilgan musiqiy anjumanlar qatnashchisi. Masalan: 1996 yil Koreyani Seul shahrida o'tkazilgan «Naylar» festivali, 1995 yil Turkiyada 1996 yil Janubiy Koreyada, 1997 yil Germaniyada, 1997 yil Turkiyada, 2001 yil Yaponiyada va o'tkazilgan musiqiy anjumanlar qatnashchisi. 1997 yil 26 Avgustda prezidentimiz Islom Karimov tomonidan «Do'stlik» ordeni bilan taqdirlangan.

Ravshan Ziyodov - 1948 yilda tug'ilgan. 1963-1967 yillarda Buxoro Davlat musiqa bilim yurtida tahsil olgan. 1967-1972 yillarda Toshkent Davlat Konservatoriyasidagi xalq cholg'ulari bo'limini, rubob sinfida tahsil olgan. U mohir sozanda, bastakor, ansambl, orkestr, xor jamoalariga rahbarlik qilib, bir qancha viloyat va respublika miqyosidagi tanlovlarda ishtirok etgan. Birinchi Respublika sozandalar tanlovining g'olibi.

1973 yildan boshlab Qarshi musiqa bilim yurtida rubob sinfi bo'yicha ustozlik qiladi. 1995-2004 yillardan boshlab Viloyat ichki ishlar bo'limi qishdagi «Posbon» badiiy havaskorlik to'garagini rahbari. 2002 yilda u bastalagan ashulalar «Nasaf» nashriyoti tomonidan «Qalbimda Vatan» nomi bilan chop etildi. Unda 16 ta qo'shiq bastalangan. Ziyodovlar oilasi musiqa dunyosining fidoiylari. Ukalari Davron Ziyodov ham Toshkent Davlat konservatoriyasini G'ijjak sinfi bo'yicha tamomlagan.

Rahmatjon Tursunov - O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan san'at Arbobi, O'zbekiston bastakorlar uyushmasini haqiqiy a'zosi, fan nomzodi, professor, sozanda, bastakor, Toshkent Madaniyat instituti «Xalq qo'shiqligi» kafedrasining mudiri.

Bir qancha kitoblar muallifi. Uning Fuzuliy she'riga bastalagan «G'anzasin Sevding ko'ngil» asari xalq orasida sevib ijro etilmoqda. Rubobda uchun esa «Shahlo» nomli musiqa bastalangan.

Mirzasharif Mirbaratov - 1936 yilda Chust shahrida tug'ilgan. 1954 yilda Toshkentdagi musiqa bilim yurtiga o'qishga kirgan. 1960 yilda uni bitirib 1968 yilgacha To'xtasin Jalilov nomli orkestrda ishlagan. 1968 yilda boshlab Hamza nomidagi musiqa bilim yurtida qo'shnay sinfi bo'yicha ustoz hamda Doni Zokirov rahbarligidagi «Xalq cholg'ulari» orkestrida qo'shnay cholg'uvchi sozanda bo'lib ishlaydi.

Temir Mahmudov - 1943 yil Toshkent shahrida tug'ilgan. 1952 yilda musiqa maktabini, 1959 yilda Hamza nomidagi musiqa bilim yurtini, 1963-1969 yillarda Toshkent Davlat Konservatoriyasini tugatgan. 1961-1973 yilda Muqimiy nomli teatrda, 1973 yildan boshlab Yunus Rajabiy

nomidagi maqom ansamblida Chang cholg'uvchi sozanda bo'lib ishlab kelmoqda. 2000 yilda unga «O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan San'at arbobi» faxriy unvoni berilgan.

Malika Ziyaeva - 1956 yilda Farg'ona viloyatida tug'ilgan. 1970 yilda Farg'ona musiqa bilim yurtida dutor sinfi bo'yicha tahsil olgan. 1974 yildan Toshkent Davlat Konservatoriyasining an'anaviy ijrochilik bo'limidagi dutor sinfi bo'yicha buyuk ustoz Faxriddin Sodiqovdan saboq olgan. 1979 yilda konservatoriyaning tugatib Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansamblida dutor cholg'uvchi sozanda bo'lib ishlamoqda.

Halimjon Jo'raev - 1936 yilda Chustda to'g'ilgan. 1954 yilda Hamza nomidagi musiqa bilim yurtida Ayub Qodirovdan nay sinfi bo'yicha tahsil olgan. Buyuk nay cholg'uvchi sozanda, bastakor u Mashrab g'azali bilan ijro etiladigan «O'rtar» ashulasini muallifi. Uzoq yillardan buyon Doni Zokirov nomidagi xalq cholg'ulari orkestrida nay cholg'uvchi sozanda, Abdullo Qodiriy nomidagi Madaniyat instituti «Xalq qo'shiqchiligi» kafedrasida nay sinfi bo'yicha ustoz.

A'zam Rajabov - O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi. G'ijjak, chang, nay va boshqa musiqa cholg'ularini yetuk ijrochisi. Uzoq yillar Qarshi musiqa madaniyatini rivojiga o'z hissasini qo'shgan.

Abdulla Qodiriy - 1928 yillarda Qashqadaryoda dastlabki teatr va milliy ansambl jamoasini tashkil qilgan yetuk tanbur cholg'uvchi sozanda. U o'z zamondoshlari Mahmud Savdoiy, Bahrom Kamolov, Mamatqul Rajabov va boshqalar bilan hamkorlik qilgan. Hozir u kishining o'g'illari Inoyat Qodiriy, yetuk xalq ustasi, sozanda, xonanda, shoir va bastakor, hamda Qarshi shahridagi folklor jamoasining rahbari. U tayyorlagan ko'pgina musiqa cholg'ulari viloyat, respublika va xorijiy mamlakatlardagi musiqiy anjumanlarda namoyish etilmoqda.

Islom Rajabov - yetuk chang cholg'uvchi sozanda, bastakor. Toshkent Davlat Konservatoriyasini chang sinfi bo'yicha tomonlagan. Uzoq yillar davomida Qarshi musiqa bilim

yurti «CHolg'u ijrochiligi» bo'limini boshlig'i, chang sinfi bo'yicha ustoz.

Elmurod Boymurodov - Shahrisabzdagi teatrning bosh rejissyori. Yetuk, sozanda, bastakor, maqom, asarlarini yetuk ijrochisi. O'zbekiston Xalq Artistlari Maryam va Nasiba Sattorovlar bu ustozdan an'anaviy musiqa ijrochiligiga xos musiqiy asarlarni ashula yo'li ijrolarini o'rganganlar. O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan Madaniyat xodimi.

Murodullo Abdukarimov - Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani, Kopor qishlog'ida tug'ilgan. 1965-67 yillarda Toshkent Madaniyat Texnikumida o'qigan. 1968 yilda Qarshi Teatrida ishlagan. 1968 yilda Qarshi Madaniyat texnikumida o'qituvchi, 1972 yilda Toshkent Davlat konservatoriyasida qoshidagi tayyorlov bo'limida, 1974 yil konservatoriyaning «Xalq cholg'ulari» bo'limini birinchi kursiga o'qishga kirib 1979 yilda tanbur ixtisosligi bo'yicha tugatgan. 1981 yilgacha O'zbekiston radiosi va televideniesi qoshidagi Doni Zokirov nomidagi «Xalq cholg'ulari» orkestrida sozanda bo'lib ishlagan. 1981 yildan Dushanbedagi Mirzo Tursunzoda nomidagi san'at institutining «SHarq kafedrasida» da o'qituvchi, katta o'qituvchi va kafedra mudiri lavozimida ishlagan. Kafedra Barno Ishoqova, Shoista Mullajonova, Neriyo Aminov, Jo'rabek Murodov, Boymuhammad Niyozov Mastona Ergasheva, Asqar Rajabov, Asliddin Nizomov, Abubakr Zuhiriddinov va boshqalar bilan birga ishlagan. «O'zbekiston va Tojikiston milliy musiqaijrochiligida tanbur, sato va setor musiqa cholg'ularining o'rni» mavzuida kandidatlik dissertatsiyasini 1997 yilda himoya qilgan. San'atshunoslik fanlari nomzodi.

Turg'un Alimatov. O'zbekiston xalq artisti. Tanbur, dutor, g'ijjak, sato musiqa cholg'ularining buyuk ijrochisi. Toshkent Davlat konservatoriyasining professori. Uzoq yillar Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansamblida sozanda, hozirgi kunda Toshkent Davlat konservatoriyasi "An'anaviy ijrochilik" kafedrasida "Tanbur" sinfi buyicha ustozlik qiladurlar. Tanbur, sato, dutor ijrochilik va joravozlik ijro maktablarini yaratgan buyuk ustoz sozanda.

Faohxon Mamadaliyev. 1923 yilda Andijonda tugʻilgan. Oʻzbekiston xalq hofizi. Toshkent Davlat konservatoriyasining professori. “Anʻanaviy ijrochilik” kafedrasida ansambl va anʻanaviy qoʻshiq sinfi buyicha ustozlik qiladurlar. Buyuk hofiz-xonanda, Oʻzbekiston, Oʻrta Osiyo va Umumjahon musiqiy anjumanlarda qatnashgan va sovrindori.

Muhammadjon Mirzayev. Oʻzbekiston Xalq artisti, Oʻzbekiston bastakorlar uyushmasining aʼzosi, Qashqar rubobini Oʻrta Osiyo musiqa ijrochiligiga olib kirgan, rubob cholgʻusi ijrochilik maktabini yaratgan ustoz. Uzoq yillar Oʻzbek Davlat filarmoniyasining musiqa rahbari, buyuk sozanda, yetuk bastakor. 1913 yilda tugʻilgan.

Orifxon Hotamov. Oʻzbekiston Xalq hofizi, tanbur cholgʻusini yetuk ijrochisi, hofiz bastakor. Uzoq yillar Doni Zokirov rahbarligidagi “Xalq cholgʻulari” orkestrida tanbur cholgʻuchi sozanda boʻlib, ishlaganlar.

Ahmad Odilov. Oʻzbekistonda Xizmat koʻrsatgan Sanʼat arbobi. Toshkent Davlat konservatoriyasi “Xalq cholgʻulari” kafedrasining mudiri, professor. Chang sinfidan va “Changchi qizlar” ansamblining rahbari. Chang cholgʻusini Oʻzbekiston va Oʻrta Osiyo koʻpgina Xorijiy mamlakatlarda oʻtkazilgan musiqiy anjumanlarda namoyish etgan ustoz sozanda.

Maʼrufxoʻja Bahodirov. 1920 yilda Xoʻjand shahrining Roʻmon qishlogʻida tavallud topgan. Ikki oʻlkaning hofizi. Oʻzbek va Tojik tillarida ashula ijro etgan. Maʼrufxoʻja Bahodirovning uylarida Sodirjon hofizning surati, tanburi va ustoz ijro etgan baʼzi bir ashulalarini yozuvini magnit lentasi mavjud. Xalq ustachiligi sirlaridan ham xabardor, oʻziga xos tanbur musiqa cholgʻularini ham ixtiro qiladilar.

Hoji Abdurasul Rasulov – (1852-1936). Samarqand shahrida yashab ijod etgan. Dutor va tanbur jorligida koʻpgina ashulalarni ijro etgan. Ayniqsa mohir dator cholgʻuchi sozanda va bastakorlik sohasida Guluzorim, Bozurgoniy, Ushshoqi Samarqand, Ushshoqi Quqand nomli asarlar shu ustoz tomonidan bastalangan.

Abdumutal Abdullayev. Yetuk tanbur cholgʻuchi sozanda. Uzoq yillar Doni Zokirov nomidagi orkestrda sozanda boʻlib,

ishlaganlar va ko'pgina tanbur cholg'usini ham tayyorlab sozandalarga had'ya etganlar.

Shohnazar Sohibov. 1910 yilda to'g'ulgan. Yetuk tanbur cholg'uchi sozanda, hofiz, bastakor, Tojikiston Xalq artisti. Bu ustoz Buxorolik mashhur tanburchi ustozlar Boboqul Fayzullayev, Fazliddin Shahobovlar bilan birgalikda "Shashmaqom" asarlarini besh jilddan iborat kitobini to'plab tojik tilida nashr ettirishgan.

Doni Zokirov- G'ijjak cholg'uchi sozanda, bastakor. Uzoq yillar O'zbekiston radiosi va televideniesi qoshidagi Xalq cholg'ulari orkestrida bosh dirijyor lavozimida ishlagan. Hozir bu orkestr Doni Zokirov nomi bilan ataladi.

Faxriddin Sodiqov – (1908-1979) O'zbekiston Xalq artisti buyuk chang cholg'uchi sozanda, O'zbekiston bastakorlar uyushmasining a'zosi, O'zbekiston radiosi va televideniesi qoshdagi Maqom ansamblida Yunus Rajabiy badiiy rahbar, Fahriddin Sodiqov musiqa rahbar sifatida faoliyat ko'rsatgan. 1972 yilda professor Fayzulloh Karomatov rahbarligida Toshkent Davlat konservatoriyasida "Sharq kafedra"si tashkil qilinib bu kafedrada Fahriddin Sodiqov ansambl, chang, dutor sinflari buyicha ustozlik qilganlar.

Fozil Xarratov – (1926-1971), Rustam Ne'matov 1940 yilda tug'ulgan buyuk chang cholg'uchi ustozlar hisoblanadi. Fozil Xarratov Moskvada bo'lib, o'tgan Yoshlar va talabalar YI Jahon festivalining qatnashchisi.

F. Shukurova, T. Xo'jamberdiyev kabi changchilar saboq olgan.

Rustam Negmatov -1962 yilda konservatoriyani chang sinfi bo'yicha tugatgan. 1969 yilda opera simfoniya dirijyorligi bo'yicha tahsil olgan. 1971 yilda o'tkazilgan birinchi Respublika cholg'u ijrochiligi tanlovining g'olibi. Toshkent Madaniyat institutining professori. Chang sinfi bo'yicha ko'pgina metodik qo'llanmalar muallifi.

MUSIQIY ATAMALAR.

Ajam – Qadimda Eronni shunday deb atashgan. Arablar Arabstondan tashqaridagi yerlarini shunday deb nomlashgan. Musiqa ijrochiligida esa Ajam nomi bilan atalib ijro etiluvchi musiqiy asarlarnicholg’u va ashula yo’li ijrolari bor. 312 s.

Hasan Dehlaviy-

Yaminiddin Abdulhasan Xusrav Dehlaviy. (1253-1325). Hind, Eron va O’rta Osoyo madaniyatining mashhur namoyondalaridan biri. U tilchi, adabiyotchi va tarixchi olim Musiqiy va badiiy adabiyotlar muallifi. 309 s.

Zuhro– xonanda vaq sozandalarning xomiysi bo’lgan. Chunki yulduz yoki Vnera sayyorasi. 312 s.

Sabo - Janubiy Arabistondagi shaharning nomi. Afsonaviy mamlakatning nomi. Sabo-shamol ma’nosini ham anglatadi. “Shashmaqomda”da “Sabo” nomi bilan atalib ijro etiluvchi musiqiy asarlar mavjud. Bu asarlar “Shashmaqomning “Navo” maqomida uchraydi.

Duhul – Tabl, naqora, naqqora (nag’ora).

Nay – nay musiqa cholg’usi. Naynavoz, nay ijrochilari “Naiy “ deb ham atalgan.

Chang- Chang solish. Inson panjalarini egilgan holati. Qadimiy chang musiqa cholg’ularida inson panjalari vositasida chang solish, changal orqali tirnab musiqa sadolari hosil qilingan.

Chang - Qadimiy musiqa cholg’usi.

Changsoz - Chang tayyorlovchi usto.

Changzan - Changnavoz, changiy, chang ijrochisi.

Qonun - Nizom, tartib, qoida, dastur.

Humoyun - Qutlug’, muborak, sharaf.

Parda - Musiqa cholg’ularidagi turli xil past va baland sado beruvchi bo’linma tuzilmalar. Tanbur va dutorda ichakdan, tayyorlanib dastaga bog’lab chiqilgan, rubobda pardalar po’lotdan tayyorlangan. Changda uch qator sim, qonunda uch qator ichakdan tayyorlangan torlar o’rnatib chiqilgan. G’ijjakda pardalar torlar orqali muayyan qilinadi. Nay, qushnay, surnayda aylana teshiklar parda vazifasini o’taydi va barmoqlar vositasida muayyan egiladi.

Parda - Niqob, to'siq, berkitish, uylarga tutiladigan pardalar. Doyra, qonun, rubob, g'ijjak kosaxonalariga qoplanadigan -qora mol, toycha, baliq terilari va qora mol yuragini qoplab turgan pardalar ham «parda» deb ataladi.

Parda - Atamasi ba'zi shakllar uchun, ba'zi gapirilayotgan so'zlar uchun ham ishlatiladi.

Masalan: pardali harakat, so'z. Pardasiz, belarda.

Parda - Qadimda musiqa asarlarini birinchi bogshlang'ich sadosi, ovozigina ham aytilgan.

Masalan: Parda Ushshoq, Parda Rost, Parda Navo. 1920 yillarda Buxoroda maqom asarlarini ijrosida tanburni sozlanishda, ijro etilayotgan asarning dastlabki boshlanish pardasi «mizrob» deb ham atalgan. Undan tashqari eng past sado beruvchi pardalarning bir oktava oralig'i «zil» yoki «zir» pardalar deb ham atalgan.

Chobuk - bu atama ham pardaning nomi.

Muxayyar - ixtiyorli, bir ishni qilish qilmaslik. Bir kun ular xizmatida bir darvesh der ediki, agar xudovando taolo meni bihisht birla do'zax orasida m u x a y y a r qilsa men do'zaxni ixtiyor qilurmen.

(nasoyimul muhabbat. XV. 196. lug'atda 238 sahifa.)

Abubakr Shibliy- Uch yuz o'ttiz to'rtida zulhijja oyida dunyodan o'tdi.

Diro - qo'ng'iroq.

Noxun - bu so'z tilidan so'z bo'lib, insonning tabiiy tirnog'ini ma'nosini anglatadi. Chunki ko'pgina cholg'ulari, masalan tanbur musiqa cholg'usi o'zoq yillar davomida sozandaning tabiiy tirnog'i vositasida ijro etib kelingan, 1920 yillarga Buxoro, Samarqand, Xiva umuman O'rta Osiyo hududida sozandalar musiqa asarini tirnoqlari vositasiga ijro etib kelganlar. Keyinchalik musiqa asarlarni ko'proq ijro etila boshlagandan keyin, tirnoqni o'rniga temirdan, kulochdan, misdan ba'zan tilladan tayyorlanib o'ng qo'lni ko'p sattip barmog'iga kiygizib musiqa ijro eta boshlaganlar. Shuning uchun tanbur ijrosi uchun temirdan tayyorlagan nasa tirnoq ya'ni noxun deb ataladi. Hozirgi kunda Eron ichorvovozlari setorda Eron dastgohlarini milliy musiqa ijrochiligiga xos musiqiy asarlari o'zlarining tabiiy tirnoqlari vositasida ijro

etiladi. Rubob, qonun, ud, Tor soz musiqa cholg'ulari uchun esa temirdan emas, shoxdan, suyukdan va boshqa narsalarda tayyorlanadi.

Zaxma- Tog'li Badaxshon Avtonom viloyatida Balandzukom yoki Pomir tanburi, rubobi chupdan yasalgan noxun bilan ijro etilib uni «zanma» deb ataydilar.

Torxonona – ya'ni torlar joylashgan joy. Musiqa cholg'ularining boshlang'ich yuqori qismidagi torlarning joylashgan joyi “torxonai bolo”, pastki torlar joylashgan joyi “torxonai poyon” deb ham ataladi. Torlar miqdori rubobda beshta, g'ijjakda va tanburda to'rtta, dutorda ikkita, torda o'nbitta, Badaxshon setorida to'qqiztadan o'n sakkiztagacha va hokazo.

Setor – Bu fors tilida uch torli musiqa cholg'usi ma'nosini anglatadi. 1920 yilda Buxoroda uch torli tanbur setor deb ham atalgan. Hozirgi kunda Eronda Eron setori, Hindistonda Hind setori, Badaxshon Avtonom viloyatida Badaxshon Setori bo'lib, ular setor degan atamaga to'g'ri kelmaydi. Chunki torlarini miqdori uchta bo'lishi kerak, lekin ularda to'rt, to'qqiz, o'nbir, o'nto'rt va undan ortiq torlari bor. Tojikistonning Tog'li Badaxshon Avtonom viloyatidagi Andarob mahalgohida yashovchi Usto Masayin 30 torli musiqa cholg'usini yasab uni “Sitor” (30 torli) nomi bilan atagan. Bu o'ttiz torli sitorda kosaxona bitta, dasta esa ikkita. Birinchi dastada parda bog'langan va sakkizta tor joylashtirilgan. Ikkinchi dastada esa parda bog'lanmagan, lekin yigirma ikkita tor dastaga joylashtirib chiqilgan.

Jig'ak – Ikki torli g'ijjak. Bu musiqa cholg'usi Tojikistonning Ko'lob, Qorategin, Darvoz hamda Badaxshon Avtonom viloyatida ijrochilikda qo'llaniladi. Uning kosaxonasi to'rtburchakli yoki aylana shakldagi tunika va yog'ochdan tayyorlanadi. Asosan dumbra va tablak jo'rlikiga komon vositasida ijro etiladi. Birinchi oktava “lya” va ikkinchi oktava “re” tovushlariga sozlanadi.

Tablak – bu naysimon musiqa cholg'usi bo'lib, yuqori qismida maxsus nafas orqali puflaydigan joy tayyorlangan. Tik holda ijro etiladi. Oltita yoki yettita aylana pardalari bor. Bu ham Tojikistonning Tog'li hududlarida uchraydi.

Balandzukom – Badaxshon Avtonom viloyatida bu musiqa cholg’usi Badaxshon tanburi deb ham atalib, unda yetita ichakdan tayyozwrlangan torlar taqilgan va cho’bdan tayyorlangan “zaxma” vositasida ijro etiladi. Undagi tuzilmalar qo’pa, dahon, biyobon, sarpanja nomlari bilan ataladi.

Rubh’ - yoki rubh’ parda - O’rta Osiyodagi ko’pgina musiqa cholg’ularida pardalarning joylashtirishi bir xil. Masalan: «do» va «re» oralig’i bir ton. «do» dan keyingi bog’langan parda do-diez. Eron va Kavkaz xalqlarida mavjud. Chor, setor, soz musiqa cholg’ularidagi pardalrni joylashuvi - «do» dan keyin yana «choryak» tonli parda bog’langan bo’lib, bu bir tonli musiqa sadosini to’rtdan bir qismiga tegishli bog’langan sado beruvchi parda Eronda «rubh’» parda deb ataladi boshqa pardalarning ba’zilaridan ham «rubh’» larda bog’langan bo’lib, ijrochilik jarayonida qo’llaniladi. Tanburda esa bu «choryak» tonli tovushlar bir pardadan chiqib «kashish» ijro zarbi vositasida hosil qilinadi.

Sozanda -cholg’uvchi, musiqa cholg’ularini ijrochisi. Ba’zi qo’lyozmalarda «sozanda» so’zi musiqa cholg’ularini ijrochisi ma’nosini ham bildiradi. Sozandi - ya’ni musiqa cholg’ularini ijrochilari ko’pgina musiqiy risolalarda va she’rlarda navozanda, mutrib, mug’anniy, mashshoq degan nomlar bilan ham ataladi. Ya’ni musiqa asarlarini cholg’u yo’li ijrochilarini ijrochisi.

Yotug’on- yachag’on (Musiqa cholg’usi). Ey yirav (hofiz) sen ham ishingni ko’rguz. Yochug’on bilan ulug’ irni (ashulani) tuz. (Xazonul maoniy. IV b. 698).

Berud- Sozsiz, musiqasiz.

Hofiz- Hofz. Biror narsani o’zida mukammal o’zlashtiruvchi. Quro’nni yoddan biluvchi qori. Ashula aytuvchi hofiz.

Hofizi

vusqo- Qur’onni to’liq yodlagan Xo’ja Abdullohga shunday taxallus berilgan.

Hofizi

mujavvid - Qur’onni bexato tajvid qoidasiga muvofiq qiroat qiluvchi qori. Faqir So’iy va bois bo’ldikim ul qur’on o’qib yod tutdi va xo’b Hofizi mujavvid bo’ldi.

Xushxon

hofiz- Chiroyli ovoz bilan qiroat qiluvchi.

Hofiz - Yodlash, yodda saqlash, yodlash mahorati.

Jo'rnavor - Ashula ijro etuvchi hofizlarga tanbur, dutor, g'ijjak, rubob umuman biror musiqa cholg'usi orqali jo'r bo'lish. Jo'rnavor eng yuqori darajadagi ijrochilik mahoratini puxta egallagan sozanda.

Mutrib - Mug'anniy, mashshoq, navosiz, cholg'uchi bu atamalarning hammasi musiqa cholg'ularini yetuk ijrochilariga berilgan. Ko'pgina eng yetuk musiqa cholg'ularining ijrochilarini musiqa cholg'ularini nomlari bilan atash odat bo'lib, ular udiy, tanburiy, noiy, g'ijjakiy, rubob navoz, changiy, qonuniy, doyradast va hakazo nomlar bilan atalgan.

Tor - Tor so'zi juda ko'p ma'nolarni anglatadi. Tor- bu musiqa cholg'ulariga taqiladigan ichak, ipak, kumush, po'lotdan tayyorlangan torlar tushuniladi. Tor- bu Eron, Turkiya, Kavkaz va O'rta Osiyo xalqlarida mavjud. Musiqa cholg'usi bo'lib unda to'qqizta, o'n bitta tor taqilgan musiqa cholg'usi ham shunday ataladi.

Xarrak - Xarrak atamasi forstilidagi atama bo'lib, eshak ma'nosini anglatadi. Chunki musiqa cholg'ularidagi barcha torlarni hammasini xarrak ko'tarib turadi. Musiqa cholg'ularini ko'plarida ikkita xarrak- katta asosiy xarrak va kichik shayton xarrak bor. Ular cho'b, ebonit, shoxlardan tayyorlanadi.

Komon - Komon, yoysimon tayyorlangan narsa bo'lib, qadimda undan o'q yoy tortib o'q otishgan. Uning kichik nusxasiga oq otningqilidan tortib komonli musiqa cholg'ularni ijrosida qo'llanilgan. Eron, Turkiya, Kavkaz xalqlarida «g'ijjak» musiqa cholg'usi «komon» yoki «komoncha» nomi bilan atalib, ijrochilikda qo'llaniladi.

Sent - Qadimdan musiqashunos olimlar, musiqa cholg'ularida mavjud pardalar oralig'ida joylashgan musiqa sadolarini akustika yo'li bilan muayyan qilishga harakat qilganlar. Akustika o'lchovi ikki xil bo'lib, temperatsiya qilingan va temperatsiya qilinmagan. Tovush qatorlar ayniqsa tanbur, dutor musiqa cholg'ularidagi pardalarni ustolar eshitish vositasida taxminiy bog'lab chiqadilar. Ulardagi

tsentlar akustika vositasida aniqlanganda temperatsiya qilingan tovushqatordan farq qiladi. Dunyo olimlari qabul qilgan qoida bo'yicha yarim ton oralig'i 200 tsent, bir oktava oralig'i 1200 tsent va hokazo.

Musiqacholg'usi-

Musiqacholg'usi, musiqiy tovushlarning rang-barangligi, xalq ustolarining mashaqqatli mehnatining mahsuli. Har bir sozanda qo'lidagi jarangdor musiqacholg'usi orqali o'z mahoratini bayon eta oladi. Lekin ijro jarayonida cholg'u sozini tayyorlab bergan usto haqida umuman ma'lumot berilmaydi. Shu bois har kontsert dasturi tanlovlardagi ijro jarayonida albatta musiqacholg'usini tayyorlagan ustoning nomi ham e'lon qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan: kontsert vaqtida ustoz Turg'un Alimatov tanbur musiqacholg'usida «Nasrullovi» asarini ijro etadi. Tanbur Xalq ustasi Usto Usmon Zufarov tomonidan tayyorlangan va hokazo.

Mutlaq yoki mutlaq parda - Mutlaq so'zi fors tilidagi so'zdan olingan bo'lib «ochiq» degan ma'noni anglatadi. Ba'zi bir qadimiy sozandalari bilan suhbatlashganda «mutlaq parda» atamasini haqida gapirishadi. Ya'ni shayton xarrak va katta xarrakka tortilgan ochiq torda ijro jarayonida barmoqlar bosilmasdan musiqacholg'ularidagi ochiq holatda turgan torlar «mutlaq» yoki «mutlaq parda» deb ataladi.

Biyobon - Badaxshon sozandalari setor, balandzikom, Pomir rubobi, Badaxshon rubobida va boshqa musiqacholg'ularda pardalar joylashgan masofa oralig'i Badaxshon sozandalari tomonidan «biyobon» deb atashadi.

Zingak - Eng yuqori pardadagi ingichka tovush hosil qilinadigan parda shunday deb ataladi.

Sarpanja - pishir setor, qashqar rubob, Abzon rubobi, tor musiqacholg'ularini torlarni quloqlarga o'ralib turgan qismi «sarpanja» deb ataladi.

Tor -

Kuy ma'nolarni anglatadi. Shakl tomonga tortib berkitilgan ip. Musiqa cholg'usi. Musiqa cholg'ulari uchun maxsus - ipakdan, ipakdan, po'lat va misdan tayyorlanib, musiqa sadosi hosil qilinadi.

QASHQADARYONING MADANIYATI, SAN'ATI VA MUSIQIY HAYOTI.

Qashqadaryoning joylashgan muhiti asosan juda qadimiy madaniyat va san'at tarixiga egadir. Chunki hozirgi Qashqadaryo sarhadi tarixda madaniyat, san'at, adabiyot musiqa san'ati umuman ilmu fanning barcha sohalari rivojlangan qadimiy shaharlarga chegaradosh. Marv, (Mari), Kesh (Shahrisabz), Buxoro, Samarqand, (Samarqand) Termiz, Xiva kabi qadimiy tarixga ega shaharlarning ba'zilari esa Qashqadaryo hududida joylashgan. Albatta Qashqadaryo hududidagi Nasaf (Qarshi) shahri va yuqoridagi nomlari zikr etilgan shaharlar aro iqtisodiy va madaniy aloqalar bo'lgan. Qashqadaryo hududiga yaqin joylashgan Marv (Mari) shahrida Sharq musiqa madaniyati rivojining asoschisi, yetuk sozanda, xonanda, bastakor Borbad Marvaziy musiqa ilmining rivojiga katta hissa qo'shgan. Keyinchalik Eron shohi Xusrav Parviz saroyida faoliyat ko'rsatgan tarixiy shaxs hisoblanadi.

Shuningdek Nasaf (Qarshi) shahriga yaqin Kesh (Shahrisabz) shahri ham qadimiy shaharlardan hisoblanib, yetuk tarixiy shaxslarning nomlari ushbu shahar tarixi bilan bog'liqdir. Ma'lumki Hind musiqa madaniyatining asoschisi musiqa, adabiyot va boshqa sohalarda ijod etgan buyuk olim Amir Xusrav Dehlaviyning ota-bobolari ham Kesh shahridan ekanligi haqida ma'lumotlar berilgan. Buxoro va Samarqand shaharlaridagi madaniyat va san'at rivoji nafaqat unga yaqin shaharlar balki, O'rta Osiyo madaniyati va san'ati rivojining asosini tashkil etadi.

Demak shu asnoda hozirgi Qashqadaryo madaniyati va san'ati o'ziga xos talqinda rivojlanib kelgan. Hozirgi kunda esa tarixiy, madaniy an'analar davom ettirilib, qadimiy an'analar rivojlantirilib, bu sohada turli xil kasb egalari faoliyat ko'rsatib kelishmoqda. Madaniyat va san'atning o'ziga xos uslubda taraqqiy etib borishida ko'pgina sohalar qatori musiqa ilmini adabiyot, teatr sohasi bilan bir-biriga bog'liq holdagi ijodiy faoliyati va bu sohalarda shoir va shoirlar, musavvirlar, aktyorlar, qo'shiqchilar, xalq ustalari, xalq baxshilari, milliy musiqa cholg'ulari, mutrib-sozandalar, hofiz-xonandalar, bastakorlar, musiqashunoslar o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatishmoqdalar.

Yil davomida bo'ladigan to'y marosimlar, sayillar, hosil to'yi, muchal to'yi, navro'z bayrami va boshqa turli xil marosimlarda musiqa ijrochiligiga xos barcha turdagi ijrolar shu bilan birga madaniyat va san'at sohasiga tegishli barcha ijro namunalari namoyish etiladi. Shu

bois bu qadimiy anʼanalar avloddan-avlodga oʻtib, xalq orasida esa koʻpgina xonadonlarda qadimdan tanbur, dutor, changqobiz, nay, surnay, doyra, dumbra kabi musiqa cholgʻulari boʻlib, bu esa musiqa ijrochiligini avloddan-avlodga oʻtib kelayotganligidan dalolat beradi. Bu borada Abdulla Qodiriy va Mahmud Savdoiylar (tanbur), Aʼzam Rajabov, Odil Poyonov (gijjak), Tursin Jumaev (surnay), Salom Hofiz (doyra joʻrligida qoʻshiq) va boshqalarning uylarida saqlanayotgan baʼzi bir musiqa cholgʻulari va ularning uzoq yillar davomida xalq orasidagi va koʻpgina marosimlardagi musiqiy ijrolari misol boʻlaoladi.

Keyingi yillarda ham Qashqadaryo madaniyati va sanʼati ancha yuksalib, bu sohada Oʻrta va Oliy musiqa dargohlarida malakali mutaxassislar faoliyat koʻrsatishmoqda. Qashqadaryoda hozirgi kunda Mulla Toʻychi Toshmuhammedov nomidagi musiqali teatri faoliyat koʻrsatmoqda. Albatta bu teatr Qashqadaryo madaniyati va sanʼati rivojining asosini tashkil etadi. Chunki bu teatrda eng yetuk ustozlar, yaʼni mutrib sozandalar, hofiz-xonandalar, aktyorlar, dirijyorlar, musavvirlar oʻzaro hamkorlikda faoliyat koʻrsatishgan. Mamatqul Rajabov, Rajab Shoyqulov, Bahrom Kamolov, Aʼzam Rajabov, Komiljon Rahimjonov, Aliqul Toʻlayevlar shular jumlasidan boʻlib, bu teatrda 1941- 1942 yillarda Oʻzbekiston xalq artistlari Turgʻun Alimatov, Surʼat Poʻlatov, bastakor Ibrohim Hamroevlar ham faoliyat koʻrsatishgan. Ayniqsa yetuk ustoz sozanda Boʻronxon Muqimov tomonidan koʻpgina musiqali drama ijro uslubiga xos asarlar sahnalashtirilib, bu ustoz uzoq yillar davomida sozanda, dirijyor hamda musiqa rahbari lavozimida ishlagan. Boʻronxon Muqimov rahbarligida “Tohir va Zuhro”, “Aziz va Sanam”, “Alpomish”, “Ravshan va Zulxumor”, “Xolisxon”, “Boy ila xizmatchi”, “Farhod va Shirin” musiqali dramalari yetuk rejissyor Aliqul Toʻlaev bilan hamkorlikda sahnalashtirilgan. Bu asarlarni musiqiy ijrolari esa teatrning yetuk sozandalari: Boʻronxon Muqimov va Bahridin Ostons, Ravshan Muhammadiyevlar (gijjak), Bozorboy Berdiyev (rubob) Naim Sattorov (nay), SHarif Sohibov va Yoʻldoshali Rahimovlar (Dutor), Toshpoʻlot Ahmedov (chang va doyra), Haqberdi Mengishev (akkordion), Jalil Ashurov (doyra), Rahimjon Komiljonovlar (dirijyor) tomonidan, musiqali dramalarning ariya va duetlari esa yetuk aktyorlardan Bahrom Kamolov, Fayzullo Ochilov, Yoqub Rajabov, Majid Muhiddinov, Muhtaram Nosirova, Xol aka Rajabov, Tojiddin Murodov, Lolaxon Xoliqova, Ashurali Xoliqov, Saygul Gulmurodova, Odiljon Ismoilov, Halima Isroilova, Husan Amirqulov, Omon Beganjiyev, Muharram opa,

Hamida opa, Haqberdi va Hazratqul Amirqulovlar, Arslon Sulonov, Fayzulla Islomov, Tolib Jalilov va boshqalar ijrolarida sahnalashtirilgan. Shu yillarda teatrga Hayit aka Mustafoulov, Sharif Qobulov, Muhiddin Majidov va boshqalar rahbarlik lavozimida ishlagan.

Hozirgi kunda ham Qashqadaryodagi Mulla To'ychi Toshmuhammedov nomidagi musiqali drama teatri jamoasi ustozlar an'analarini davom ettirib ko'pgina konsert dasturlari va turli xil musiqa dramalarni tayyorlab tomoshabinlarga had'ya etmoqdalar. Teatrga yetuk sozanda Islom Rajabov musiqa rahbari, Salohiddin A'zamov, Nishonboy Avazov (gijjak), Zafar Isoqulov (qonun). Elmurod Rasulov (nay), Zafar Mengeshev, Jamshid Ashurov, Sur'at Ahmedov, Nosir Umirovlar (doyra), Otabek Boychaev (soz) va boshqalar sozanda sifatida, Azamat Sattorov musavvir sifatida faoliyat ko'rsatishmoqda. Teatrga esa Sharof Rahmatov, Kommuna Kamolovalar rahbarlik qilmoqda.

Keyingi yillardagi Qashqadaryo musiqa ijrochiligini rivojiga o'z hissasini ko'shgan ustoz sozandalardan biri bu O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi A'zam aka Rajabovdir. A'zam Rajabov chang, nay, gijjak va boshqa musiqa cholg'ularini yetuk ijrochisi bo'lib, musiqa sirlarini o'rganish borasida ustozlari Rajab Shoyqulov va Mamatqo'l Rajabovlardan saboq olgan. A'zam Rajabov ko'pgina shogirdlariga musiqa ijrochiligi sohasida ustozlik qilganlar. Ukalari Qodir Rajabov, Sunnat Rajabov, farzandlari - Rustam, Salohiddin, Islom, Ravshan, Rizqi Rajabovlar va boshqalar bo'lib, bular hozirgi kunda Qashqadaryo musiqa madaniyati rivojiga o'z hissalarini qo'shmoqdalar.

Eski masjid teatri jamoasining ham Qashqadaryo musiqa madaniyati rivojida o'ziga xos o'рни bo'lib, xushovoz xonanda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistka Oygul Xalilova ham shu teatrdan faoliyat ko'rsatadi. Teatr jamoasi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan San'at Arbobi Is'hoq To'raev rahbarligida o'zlarining teatrlashtirilgan musiqiy barnomalarini, respublikamizning mustaqillik bayrami, O'rta Osiyo, umumjahon miqyosidagi musiqiy anjumanlarda namoish etib, muvaffaqiyatlarga erishmoqdalar. Shahrisabzdagi Qori Siroj nomidagi xalq teatri jamoasi ham o'ziga xos uslubda musiqa asarlarini o'rganish va targ'ib qilishda samarali ijodiy ishlarni amalga oshirmoqda. Bu teatrdan faoliyat ko'rsatayotgan ustoz O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan Madaniyat xodimi Elmurod Boymurodov bir qancha yosh ijrochilarga maqom asarlari va zamonaviy musiqa ijrochiligini

o'rgatmoqda. Bu ustozdan tahsil olgan shogirdlardan Maryam va Nasiba Sattorovalar musiqa ijrochiligida o'ziga xos uslub yaratgan xushovoz xonandalardir.

Hozirgi kunda Qashqadaryo madaniyati, san'ati, musiqa ijrochiligi borasida oliy darajadagi mutaxassislar faoliyat ko'rsatmoqda. Ular orasida turli xil unvonlarga sazovor hamkasblarimiz bor.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Rahimjon Komiljonov, Karim Yo'ldoshyev, Sadridin Salimov, Is'hoq To'raevlar, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi A'zam Rajabov, Rizqi Rajabov, Gulchehra Ahmedova, Elmurod Boymurodovlar shular jumlasidan.

Qashqadaryo shoir va shoirlarining ko'pgina she'rlariga o'zbek bastakorlari tomonidan musiqa bastalangan. O'zbekiston xalk qahramoni Abdulla Oripov, shu bilan birga Normurod Narzullayev, Jumaniyoz Jabborov, Poyon Ravshanov, Ismoil To'xtamishev, Amir Xudoyberdi, Sharofat Ashurova, Momoxol Elmurodova va boshqalar. San'at sohasida esa yetuk musavvirlardan-Sadridin Salimov, Omon Azizov, Abdulla Ochilov, Azamat Sattorov, No'mon Berdiev, Murodxon Muqimov, Hotamxon Muqimov, Ro'zi Xudoyberdiyev, Abdimurod To'laganov, Bahodir Niyozov hamda milliy musiqa cholg'ularini tayyorlovchi xalq ustozlaridan Usto Inoyat, Usto Adham, Usto Is'hoq, Usto Toshpo'lot, Usto Mustafo, Abrorxon Mansurovlar ham san'at va musiqa rivojiga o'z hissalarini qo'shmoqdalar.

Shahrisabzda Junaydixon (1875), Abdurahmonbek (1895) degan bastakorlar bo'lib, ular tomonidan bastalangan. "Junaydixon" va "Abdurahmonbegi" asarlari shular jumlasidandir. Hozirgi kunda ham bastakorlik sohasida ijod qilayotgan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi professor, O'zbekiston bastakorlar uyushmasining a'zosi Rahmatjon Tursunov hamda Anvar Sultonovlar va yetuk mutrib – sozanda, hofiz- xonandalardan: Islom Rajabov, Bohodir Maxsumov, Murodulla Abdulkarimov, Abdujabbor Rahmonqo'lov va boshqalar ham bastakorlik sohasida faoliyat ko'rsatishmoqda. Ayniqsa Rahmatjon Tursunovning Fuzuliy she'riga bastalangan "G'amzasin sevding ko'ngil" ashulasi O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan artist Tojiddin Murodov tomonidan ijro etilgan bo'lib, hozirgi kunda O'zbekistonda eng sevimli musiqiy asar sifatida ijrochilikda qo'llanilmoqda. Hozirgi kunda Qashqadaryoda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistka Oygul Xalilova, Fayzullo Islomov, Salohiddin Lutfullayev, Egamberdi Tursunov, Salim Sayimov, Nishonboy Avazov, Umirzoq Quvvatov kabi

hofiz-xonandalar o'z ijrolari bilan shunavandalarga manzur bo'lmoqdalar.

Ko'pgina Qashqadaryolik hamkasblarimiz Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatishmoqda. O'zbekiston Xalq artistlari- Farog'at Rahmatova, Rohatoy Mannonova, Ikroma Boltayeva, Zaynab Sadriyeva, O'zbekiston xalq hofizlari- O'lmas Saidjonov, Beknazar Do'stmurodov, O'zbekiston xalq artistlari-Maryam Sattorova, Zamira Suyunova, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar-Nasiba Sattorova, O'ktam Ahmedovlar hamda hushovoz xonandalardan Azamat Sharipov, Abusaid Azimov, Abduvali, Usmonjon, Sharofiddin Murodov, Asliddin Do'stov, Adham Soliyev va boshqalar shular jumlasidandir.

Qashqadaryoning Dehqonobod, Yakkabog', Qamashi, Chiroqchi, G'uzor, Nishon va boshqa joylarida o'ziga xos baxshichilik ijro yo'llari bo'lib, ko'pgina xalq dostonlari, termalar dumbra jo'rligida ijro etiladi. Abdulla Shoir Nurali o'g'li, Umar Baxshi ayniqsa Qodir Baxshi Rahimov va shogirdlari Qahhor, Abdimurod, Bahodir, Bahrom baxshilarning ijrochilik mahorati, shu bilan birga Inoyat Qodiriy, Momogul opa rahbarliklaridagi fol'klor dastalarining tayyorlagan dasturlari shunavandalarga behad manzurdir va ko'pgina anjumanlarda namoyish etilmoqda.

Qashqadaryo musiqa madaniyatini rivojida viloyatdagi Boshlang'ich, O'rta va Oliy musiqa dargohlarining ham o'ziga xos o'rni bo'lib, musiqa ta'limi yuqori malakali ustozlar tomonidan olib boriladi. Musiqa maktablari Svetlana Jumayeva, Tojiddin Nazarov, Anvar Choriyevlar rahbarligida faoliyat ko'rsatadi.

Qarshi musiqa bilim yurti, keyinchalik San'at bilim yurti, hozirgi kunda San'at kolleji, Qashqadaryo madaniyati, san'at va musiqa ijrochiligini rivojiga katta hissa qo'shmoqda. Bu jamoaga Salimjon Saimov rahbarlik qiladi. Musiqa ilminig barcha turlari-musiqa cholg'ulari, teatr, rassomchilik, raqs ijrochiligi, an'anaviy ijrochilik sohalari bo'yicha mashg'ulotlar olib boriladi. Bu dargoh dastlab 1973 yillarda taniqli bastakor Muxtor Ashrafiy tashabbusi bilan tashkil etilgan bo'lib, hozirgi kunda Ravshan va Davron Ziyotovlar, Nusurxon Tursunov, Jobir Jumayev, Azamat Rajabov, (rubob) Salohiddin A'zamov, Bahridin Ostonov, Sunnat Salohiddinov, Dilshod Mengishev, Jumanazar Ibrohimov, Jamol Xolmurodov, Tojiddin Qodirovlar (gajjak) Islom Rajabov, Haqberdi Egamberdiyev, Anora Inoyatova, Zebo Tohirovalar (chang), Rustam Abdulg'oziyev (bayan), Murodullo Abdukarimov (tanbur), Fazliddin Tursunov (qonun), Xalil

Muhammadiev, Zafar Azizov, Qahramon G'afforovlar (doyra), Fayzullo Islomov, Egamberdi Tursunovlar (vokal) Yodgor Bozorov (qo'shiq), Ibrohim Umarov (pianina), Otajon Matjonov (qo'shnay) sinflari bo'yicha ustozlik qilishadi.

Qarshi Madaniyat Texnikumi hozirgi kunda, madaniyat kolleji 1968 yilda tashkil qilingan bo'lib, Qashqadaryoda madaniy-oqartuv ishlari sohasidagi ta'lim maskani hisoblanadi. Uning birinchi direktori Jo'ra Xidirov bo'lib hozirgi kunda bu jamoaga Abdurahmon Berdiyev rahbarlik qiladi. Dastlabki yillarda madaniyat texnikumida Bo'ronxon Muqimov, Siddiqxon Ahmedov, Qodir Rajabov, Murodullo Abdukarimov, Bahrom Hamidov, Sobirjon Saydinovlar musiqiy mashg'ulotlar olib borishgan bo'lsa, hozirgi kunda Davron Omonov, Ravshan Muhammadiyev, Haqberdi Botirov, G'ulom Primov, Rahim Hakimov, Odiljon Ismoilov, Nishon Avazov, Faxriddin Umarov va boshqalar musiqadan amaliy va nazariy mashg'ulotlar olib borishmoqda.

Qarshi Davlat Universitetida ham Pedagogika va musiqa fakul'teti faoliyat ko'rsatadi. Fakul'tetga professor Malla Ochilov, Pedagogika fanlari doktori Abdishukur Choriyev, dotsentlar: Meyli Oripov, Tal'atoy Gafforova, Qo'yli Xurramov, Toshbotir Rasulov, Odil Rahmatovlar rahbarlik lavozimida ishlagan. Fakultetda musiqa kafedralarida juda ko'p ustozlar faoliyat ko'rsatishgan. Taniqli bastakor, professor Rahmatjon Tursunov ham ustozlik qilgan. 2000 yilgacha Universitetda "Musiqqa" kafedrasida faoliyat ko'rsatgan. Universitet rektori Matematika fanlari doktori, professor Gulmirza Xudoyberganov va o'quv ishlari bo'yicha rektor muovini professor Poyon Ravshanovlar tashabbusi bilan universitetda yangi-yangi fakul'tet va kafedralar tashkil qilindi. Jumladan "Musiqqa" kafedrasida tarkibidan ikkita "Cholg'u ijrochiligi" va "Qo'shiqchilik" kafedralari tashkil etildi.

"Cholg'u ijrochiligi" kafedrasiga filologiya fanlari nomzodi, dotsent Sami Aziz o'g'li rahbarlik qiladi. Kafedrada Abdujabbor Rahmonqulov, Qo'ldosh Qurbonov, Rashid Primov, Shavkat Omonov, Zokir Yusupov, Yodgor Islomov, Laziz Pirnazarov, Amirqul Turdiyev, Shahnoza Muqimova va boshqalar ishlaydi. Shu yillarda Sami Aziz o'g'lining "Garmoniya" darsligi, Murodullo Abdukarimovning "Tanbur navolari" Abdujabbor Rahmonqulovning "Istiqlolni kuylayman" o'quv qo'llanmasi chop etilib Respublika miqyosidagi musiqa dargohlarida qo'llanilmoqda.

"Qo'shiqchilik" kafedrasida 2001 yilda tashkil etildi. Kafedra mudiri ushbu satrlar muallifi San'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

Murodullo Abdukarimov. Kafedrada Murodullo Abdukarimov tanbur va an'anaviy qo'shiqchilik sinfidan, O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan Artistka Oygul Xalilova, o'qituvchilar-Muhiddin Murodov, Nilufar Ashurova, Asadullo Sohibovlar an'anaviy qo'shiqchilik, Bahodir Maxsumov, Faxriddin Saidov, Fayoz Azizovlar xor dirijyorligi, Keskir Ulashev, Abduqahhor Tilovov, Mahbuba Ismoilovalar vokal sinflaridan hamda Dilshod Mengishev, Otajon Matjonov, Akrom Sattorov, Olga Kivarkovalar jo'rnavozlik sinflari bo'yicha mashg'ulotlar olib boradilar.

“Qo'shiqchilik” kafedrasida universitet rektori professor Gulmirza Xudoyberganovning tashbusi bilan “Bayot” nomli milliy an'sambl tashkil qilinib, dotsent Murodullo Abdukarimov rahbarligida faoliyat ko'rsatmoqda. “Bayot” an'sambl universitet tashkil topganligini 10 yilligiga bag'ishlab hamda Viloyat televideniesi orqali ham ko'pgina kontsert dasturlarini namoyish etmoqda.

Ma'lumki har yili “O'zbekiston vatanim manim” qo'shiq tanlovi o'tkaziladi. An'sambl jamoasi yakkaxon xonandalar- O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan Artistka Oygul Xalilova va Muhiddin Murodovlar hamda sozanda va xonandalar jamoasi bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2002 yil 29 iyun Toshkent shahridagi “Turkiston” saroyida o'tkazilgan “O'zbekiston qo'shiq bayrami” ko'rik-tanloviga ishtirok etdi. Bu ko'rik tanlovda Abdulla Oripov she'riga Murodullo Abdukarimov bastalagan “O'zbekistonim senga” nomli qo'shiq ijro etilib, an'sambl jamoasi uchinchi o'rinni olishga muvaffaq bo'ldi.

Umuman bu musiqa kafedralarining asosiy maqsadi radio va televidenie orqali muntazam yoritilib boriladi. Chunki Qashqadaryo musiqiy hayoti viloyatdagi barcha musiqa dargohlari, maktablar, madaniyat, san'at va musiqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jamoalar uchun oliy malakali musiqa mutaxassisleri tayyorlash kabi mas'uliyatli vazifani ado etishdan iboratdir.

Yildan-yilga Qashqadaryo madaniyati, san'ati va musiqa ijrochiligi yuksalib bormoqda. Ayniqsa viloyat madaniyatiga tegishli barcha ma'lumotlar viloyat radio va telavideniesi orqali yoritib borilmoqda. Bu borada viloyat telekompaniyasi uyushmasining direktori Husan Temirov va musiqa muharririyati boshlig'i, hozirgi kunda viloyat madaniyat va sport boshqarmasining boshlig'i Usmonjon Nusurov, bosh rejissor Jabbor Toshev va boshqalarning xizmatlari tahsinga loyiqdir.

Ko'pgina musiqa ilmiga tegishli musiqiy risolalarning aksariyat qismi arab yoki fors tillarida yozilgan. Ularning ko'plari musiqashunoslar tomonidan tahlil etilgan. Qashqadaryoda ham arab va fors tillarini yahshi bilgan ba'zi bir olimlar ushbu mashaqqatli ishga o'z hissalarini qo'shib, ko'pgina musiqiy risolalarni o'zbek tiliga o'girib, bir qancha to'ldirishlar asosida nashr ettirib kitobxonlarga va musiqa dunyosida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxasislarga tuhfa etmoqdalar. Shunday olimlardan biri Qarshi Davlat universitetining dotsenti, filologiya fanlari nomzodi, filologiya fakultetining dekani Nafas Shodmonovdir. "Temuriylar davrida musiqashunoslik". Toshkent. "Xazina" 1995 yil. Abdurahmon Jomiy "Risolayi musiqiy". Toshkent. 1997 yil, Xoja Abdulqodir Marog'iy "Maqosid ul alhon". (Kuylar maqsadlari). Toshkent. 2000 yil kabi asarlar Nafas Shodmonov tomonidan tarjima va to'ldirishlar asosida o'zbek tilida chop qilingan.

Qashqadaryoda 1994 yilda musiqa bilim yurtida, Qarshi Davlat Universitetidagi musiqa kafedrasida va musiqa maktablarida ushbu sathlar muallifi tomonidan dastlabki tanbur sinflari ochildi. Musiqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan har bir kishi, musiqiy ta'lim maskanlari, teatr jamoalari yangi-yangi izlanishlar natijasida musiqa ilmi va ijrochiligini rivojiga alohida e'tibor berib, O'zbekiston musiqa madaniyati rivojiga o'z hissalarini qo'shmoqdalar.



Toshkent madaniyat inistituti “Xalq qo’shiqchiligi”
kafedrasining mudiri, fan nomzodi,
O’zbekiston bastakorlar uyushmasining a’zosi,
O’zbekistonda Xizmat ko’rsatgan san’at
arbovi, professor Rahmatjon Tursunov.



Bastakor Rahmatjon Tursunov.



Qarshi davlat universiteti dotsenti ,
‘‘CHolg’u ijrochiligi’’ kafedrasining
mudiri Sami Aziz o’g’li .



Shahrisabz shahridagi ‘‘Qori Zokir Sodiqov’’ nomidagi Shahrisabz
xalq teatrining musiqa rahbari, rejissori, etuk sozanda ,maqom asarlarining
bilimdoni, O’zbekistonda Xizmat ko’rsatgan
madaniyat xodimi Elmurod Boymurodov.



Buyuk sozanda . O'zbekistonda
Xizmat ko'rsatgan madaniyat
xodimi A'zam Rajabov.



O'zbekistonda Xizmat
ko'rsatgan madaniyat
xodimi Rizqi Rajabov.



Sozanda Rustam Rajobov.



Hofiz xonanda Fayzullo Islomov.



O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Tojiddin Murodov.



Xushovoz xonanda Po'latjon Hamidov.



O'zbekiston Xalq artistkasi, O'zbekiston Davlat konservatoriyasining
dotsenti Zamira Suyunova.



Eski Machit teatri. Teatrning bosh rejissyori O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Is'hoq To'rayev.



Buyuk xushovoz hofiz xonanda O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan artistka Oygul Xalilova.



Qarshi Davlat universiteti musiqa bo'limining ustozlari.



Folklyor dastasi va uning rahbari Inoyat Qodiriy.

**Musiqa cholg'ularini tayyorlovchi xalq
ustolari, mutrib – sozandalar,
hofiz – xonandalar, bastakorlar,
musiqashunoslar va boshqalar bilan
musiqa sohasida suhbat.**



Akademik Yunus Rajabiy , etuk tanburnavoz Rizqi Rajabiy va To'xtamurod Zufarov.



O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan artist Tohir Rajabiy va O'zbekiston Xalq hofizi Hasan Rajabiy.



O'zbekiston va Tojikiston Xalq Hofizi Marufxo'ja
Bohodirov bilan musiqiy suhbat. 1987 yil.
Xo'jand shahri.



Xalq hofizi Mullo To'ychi Toshmuhammedovga 1925 yillarda jo'rnavoz
bo'lgan tanbur cholg'uchi sozanda Ibni Yamin Asomiddinzoda va buyuk sozanda
Tojikistonda Xizmat ko'rsatgan artist Mirzoqurbon Soliyev bilan musiqiy suhbat.
Isfara shahri 1988 yil.



Tog'li Badahshon avtanom viloyatiga musiqiy safar . Setornavozlar-Navro'z shoh Qurbonhuseynov, SHotemur Qosim. .Xorog shahri. Xalq hofizi SHohbek Bachchabekov. G'arim qishlog'i.



Tojikiston Xalq artisti Boymuhammad Niyozov bilan musiqiy suhbat. Xo'jand shahri. 1987 yil.



Kitobni komputerdagi terish jarayoni. O'zbekiston Xalq qahramoni Abdulla Oripov Universitetimiz mehmoni. Universitet rektori professor Gulmirza Xudoyberganov bilan birgalikda komputers markazida.



Mirzo Tursunzoda nomidagi San'at instituti "Sharq musiqasi"
kafedrasining mudiri, San'atshunoslik fanlari doktori,
musiqashunos olim Asliddin Nizomov bilan suhbat.



Maqom asarlari, Xalq musiqa ijodiyoti va bastakorlar bastalagan
ashula yo'li ijrolarini buyuk ijrochisi, betakror xonanda,
Tojikiston Xalq artistkasi Shohista Mullajonova.



Maqom ansamblining badiiy rahbari, ustoz hofiz xonanda, professor Ahmad Boboqulov bilan musiqiy suhbat. . Dushanbe shahri 1986 yil.



Buyuk naynavoz Tojikiston Xalq artisti Nison SHoulov bilan musiqiy Suhbat. Dushanbe . 1988 yil.



Buyuk sozandalar: qoshnaynavoz Yo'ldoshali Tojiyev, g'ijjaknavoz O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan artist O'lmasjon Rasulov va tanburnavoz Murodullo Abdukarimov .
Toshkent shahri 1979 yil.



Etuk tanburnavoz O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan artist Abdumutal Abdullayev.




Qo'shnayda Nasriddin Aliyev ,dutorda Qurbon Qurbonovlar.



Tojikiston Xalq xofizi Navruzshoh Qurbonhuseynov
bilan musiqiy suhbat . Tog'li
Badaxshon avtonom viloyati . Xorog shahri. 1988 yil.



Badaxshon tanburi ijrochisi Akimbek Pahlavonov va
Pomir rubobi navozandasi Ustoz Sadonshoh.
Badaxshon viloyati Rosht Qal'a mahalgohi .1988 yil.



Musiqqa bilim yurtida setor sinfi bo'yicha ustoz
Imomnazar Sohibnazarov bilan musiqiy
suhbat. Dushanbe shahri .1987 yil.



Sozandalar dastasi. Bohodir Maxsumov, Murodullo Abdukarimov, Yodgor Islomov, Muhiddin Murodov.



Turkmen dutornavozi.

Musiqiy suhbat.



Bekmurodov Abdukarim va Xumor opa Bekmurodova



Usto Usmon tayorlagan sato, dutor va tanburlar haqida suhbat.




Fayziyev Nazar va Aliqulova Gulsara.
2003 yil Qarshi shahri.



Enaqiz oyi Omonova bilan Toshkent musiqa madaniyati haqida suhbat. Toshkent 1976 yil.



Chanqovuz ijrochisi.



Murodullo Abdukarimov.

Cholg'ushunoslik

**Oliy musiqiy ta'lim dargohlari uchun
darslik.**

**O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari
vazirligi respublika metodika va axborot markazi
nashrga tavsiya etgan.**

Qarshi - 2006